

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 954.9

BBK: 63.3 (5)

N-18

Nazarov Elbek Shuxrat o‘g‘li

**“AFG‘ONISTON ICHKI ISHLARIGA TASHQI KUCHLAR
ARALASHUVINING TARIXIY TAHLILI”**

5A120302 – TARIX
(mamlakatlar va yo‘nalishlar bo‘yicha)

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya

Ilmiy rahbar:
siyosiy fanlar nomzodi **Abdullayev N.A.**

Toshkent-2015

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I bob. Davlatlarning mintaqaviy tizimida Afgʻonistonning oʻrni.....	13
1.1. Gʻarb davlatlari va Rossiyaning Afgʻoniston hududida geosiyosiy manfaatlari toʻqnashuvi	13
1.2 Pokiston, AQSh va mintqa davlatlarining Afgʻonistonga nisbatan siyosati tarixi.....	27
1- bob boʻyicha xulosalar.....	41
II bob. XX asr oxiri XXI asr boshida tashqi omilning Afgʻoniston ijtimoiy-siyosiy hayotiga taʼsiri.....	43
2.1 XX asr oxiri XXI asr boshida Pokistonning Afgʻonistondagi ichki siyosiy vaziyatga taʼsiri.....	43
2.2 XXI asr boshida Pokiston va Gʻarb davlatlarining Afgʻonistonda tinchlik va havfsizlik oʻrnatilishiga munosabati.....	58
2- bob boʻyicha xulosalar.....	76
III bob. Oʻzbekiston Respublikasining Afgʻoniston bilan munosabatlari tarixi.....	78
3.1 Oʻzbekiston tashqi siyosatida Afgʻoniston muammosi.....	78
3.2 Oʻzbekiston Respublikasining Afgʻoniston muammosini hal etish yoʻlidagi faoliyati.....	91
3- bob boʻyicha xulosalar.....	102
Xulosa.....	103
Adabiyotlar roʻyhati.....	106

KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

Tarixan Afgʻoniston masalasi yetakchi xorijiy davlatlar eʼtiborini oʻziga jalb qilib kelgan. Tarixan Afgʻonistonga boʻlgan tashqi qiziqishlar koʻlami yanada ortishi barobarida, mintaqa yetakchi xorijiy davlatlar oʻrtasida koʻplab geosiyosiy manfaatlar toʻqnashuvlari makoniga aylangan. Afgʻonistonda oʻttiz yildan oshiq vaqt mobaynida roʻy berayotgan voqealar butun dunyo jamoatchiligi diqqat-eʼtiborini oʻziga tortib kelmoqda.

Bu borada Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov: «Biz Afgʻonistonda tinchlik va barqarorlikka erishish butun Markaziy Osiyo mintaqasini barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi hayotiy muhim muammolarni yechish uchun katta imkoniyatlar ochib beradigan xavfsizlikning hal qiluvchi omili ekanini yaxshi anglaymiz», degan fikrni bildirib oʻtadi ¹.

Hozirgi vaqtda Afgʻoniston tinch va barqaror jamiyat qurish yoʻlidan bormoqda. Prezidentimiz I.Karimov taʼkidlaganlaridek - «bu millionlab afgʻonlarni tinch mehnat bilan band qilish, yangi, nisbatan qisqaroq kommunikatsiyalar va savdo, iqtisodiy aloqalarni shakllantirish, dunyoning bu eng keskin mintaqasidagi joʻgʻrofiy-siyosiy holatlarni tubdan oʻzgartirish imkonini beradi»².

Afgʻoniston ichki ishlariga tashqi kuchlar aralashuvida asosiy eʼtiborni Pokistonga qaratish lozim. Afgʻoniston Islom Respublikasi va Pokiston Islom Respublikasi bir-biriga chegaradosh, biroq geografik jihatdan ikki mintaqaga – Afgʻoniston Oʻrta Sharqqa, Pokiston esa Janubiy Osiyo mintaqasiga mansubdir. Davlatlar geografiyasi farqlansa-da, mazkur davlatlar xalqining turmush tarzi koʻp jihatdan, jumladan, tarixiy, diniy, madaniy, etnik jihatdan bir-biriga yaqin hisoblanadi.

Afgʻoniston va Pokiston oʻrtasida qanchalik yaqinlik boʻlmasin, davlatlar siyosiy hayoti, iqtisodiy taraqqiyoti va tashqi siyosatidagi ustuvor yoʻnalishlarda

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning NATO/SEAP sammitidagi nutqi // <http://www.press-service.uz/uz/gsection.scm?groupId=5254&contentId=383051999>. Aprel 03, 2008

² Karimov I. Mintaqaviy xavfsizlikdan yalpi xavfsizlik sari. 4-jild. – T.: «Oʻzbekiston», 1996. – B.56-57

muayyan farqli jihatlar mavjud. Afgʻoniston-Pokiston munosabatlari tarixi nafaqat Janubiy Osiyo yoki Oʻrta Sharq mintaqalarida, balki Markaziy Osiyo mintaqasidagi siyosiy jarayonlarda muhim oʻringa ega. Chunki mazkur mintaqalarda xavfsizlikni taʼminlash masalasi bevosita Afgʻoniston va Pokistondagi beqarorliklar bilan bogʻliq.

Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlikni taʼminlashni afgʻoniston omili barobarida, Afgʻoniston va Pokiston munosabatlarining kechmishi bilan ham bogʻlash mumkin. Bu jihatdan Markaziy Osiyo xavfsizlik tizimi nechogʻli Afgʻonistonga bogʻliq boʻlsa, Afgʻonistondagi siyosiy muhit bevosita Pokistonga bogʻliqdir. Shuning uchun ham mutaxassislar “Pokiston – afgʻon muammosining kaliti” sifatida bejiz aytishmagan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda mavzuning dolzarbligini quyidagilarda koʻrishimiz mumkin:

Birinchidan, Afgʻonistonga tashqi kuchlar aralashuvi ichki vaziyatning murakkablashuviga olib kelishi va uning Oʻzbekiston Respublikasi xavfsizligiga taʼsir koʻrsatishi;

Ikkinchidan, Afgʻoniston ichki ishlariga tashqi kuchlar aralashuvi tarixini Pokiston nuqtai-nazaridan kelib chiqqan holda oʻrganish;

Uchinchidan, Afgʻonistondagi notinch vaziyat va uning davomiyligi boshqa chegaradosh davlatlar qatori, Oʻzbekiston tashqi siyosatida ham muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bu esa mazkur masalaning tarixini oʻrganish nechogʻli ahamiyatli ekanligini koʻrsatmoqda;

Shu bois, Afgʻonistonda tinchlik va barqarorlikning oʻrnatilishi Oʻzbekiston Respublikasining istiqboldagi manfaatlarini taʼminlanishiga olib kelishi mazkur mavzuning dolzarbligini yana bir bor koʻrsatib beradi va ilmiy jihatdan tarixini oʻrganishni talab qiladi.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Xalqaro munosabatlar tarixida Afgʻoniston omili tadqiqot ishining obyekti sifatida belgilab olindi. Afgʻonistonda barqarorlikni taʼminlash jarayoniga Pokiston va yetakchi xorijiy davlatlar aralashuvi tadqiqot

ishining predmeti hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Afg'oniston ichki ishlariga tashqi kuchlar aralashuvini o'rganish va uni tahlil qilish tadqiqot ishining maqsadi hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda magistrlik ishi oldiga quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- Afg'oniston hududida Pokiston, Rossiya va G'arb davlatlari geosiyosiy manfaatlarini to'qnashuvini o'rganish;
- Pokiston, AQSh va mintaqa mamlakatlarining Afg'onistonga nisbatan siyosatini tarixiy tahlil qilish;
- XX asr oxiri XXI asr boshida Pokiston va G'arb davlatlarining ta'siri natijasida Afg'onistondagi ichki siyosiy vaziyatning o'zgarishini tahlil qilish;
- Afg'onistonda Pokiston va G'arb davlatlarining tinchlik va xavfsizlikni o'rnatishdagi faoliyatini ko'rib chiqish;
- O'zbekiston Respublikasining Afg'on muammosini hal qilishdagi faoliyatini ko'rsatish.

Ilmiy yangiligi. Tadqiqot jarayonida Afg'oniston ichki ishlariga XX-XXI asrlarda tashqi kuchlar aralashuvini har tomonlama o'rganishga harakat qilindi. Mavjud ilmiy adabiyotlarda Pokiston, Angliya va Rossiya kabi davlatlarning Afg'oniston hududida harbiy harakatlar olib borib ichki vaziyatga ta'sir ko'rsatgani e'tirof etilgan va mintaqadagi geosiyosiy vaziyat hamda Afg'onistondagi ichki siyosiy vaziyat tashqi kuchlar aralashuviga sabab qilib ko'rsatilgan. Mazkur tadqiqotda, bildirilgan umumiy fikrlardan farqli o'laroq, Afg'onistonga tashqi kuchlar aralashuvi sabablari va oqibatlari mazmun-mohiyatiga ko'ra faktik misollar yordamida ko'rsatib berildi, jumladan;

Afg'oniston ichki ishlariga Pokiston va G'arb davlatlari aralashuvlari tarixiy tahlil qilindi;

–Afg'oniston ichki ishlariga tashqi kuchlar aralashuvi tarixida Pokiston

omiliga asosiy e'tibor qaratildi;

- Afg'oniston tarixiga oid Pokiston va O'rta Osiyo olimlari tomonidan nashr qilingan tarixiy adabiyotlardagi Afg'onistonga tashqi kuchlar aralashuvi tarixiga doir ma'lumotlar aniqlanib, qiyosiy tahlil asosida tegishli xulosalar chiqarildi;

- Pokiston, Buyuk Britaniya, Rossiya va AQSh kabi yetakchi davlatlarning Afg'oniston joylashgan mintaqaga bo'lgan qiziqishlari va shuning asosida Afg'onistonga uyushtirilgan xujumlari sabablari tahlillar asosida yoritildi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va ilmiy farazlari.

Afg'oniston ichki ishlariga Pokiston va G'arb mamlakatlarining aralashuvi, mamlakatlar hududida yetakchi davlatlar o'rtasidagi geosiyosiy kurashlar tendensiyalarini ochib berish maqsadida quyidagilar ilmiy ishning asosiy masalalari va farzlari sifatida belgilandi:

- XIX asrda Buyuk Britaniya Rossiya imperiyasi bilan geosiyosiy kurash natijasida Afg'oniston hududiga bosqinchilik xujumlarini uyushtirdi;

- Buyuk Britaniya va Rossiya imperiyasi Afg'onistonni o'z ta'sir doiralariiga olish maqsadida mamlakatdagi ichki siyosiy vaziyatga doimiy ta'sir o'tkazib kelganlar;

- Sobiq Sovet qo'shinlarining Afg'onistonga xujumi natijasida mamlakatda ursh boshlandi. Pokiston va AQShning Afg'oniston hududiga Sobiq Sovet qo'shiniga qarshi harakatlanishi uchun tayyorlangan qo'shin kiritdi;

- XX asr oxirida Pokiston o'z maqsadi yo'lida Afg'oniston ichki ishlariga aralashuvi natijasida mamlakatda yangi kuch «Tolibon» harakati vujudga keldi va keyinchalik «Tolibon» harakatining nazoratdan chiqishi natijasida afg'on muammosi yuzaga keldi. Natijada mamlakatda narkotik moddalar yetishtirish va terrorizm rivojlandi;

- Afg'oniston tashqi kuchlar aralashuvisiz o'z ichki muammolarini mustaqil hal qila olmadi. Afg'oniston ichki siyosatida tashqi kuchlar aralashuvi «Tolibon» harakatining hokimiyatga kelish holatini bartaraf etish va ichki siyosiy kuchlar muvozanatini ta'minlanishida zaruratga aylanib qoldi. 2011-yil sentyabr

voqealaridan so'ng Afg'oniston ISAF qo'shinlarining kiritilishi natijasida mamlakatdagi salbiy vaziyatga barham berildi.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi. Bugungi kunda dunyo mamlakatlari o'rtasidagi integratsion jarayonlar, jahon xo'jaligi munosabatlarining kengayishi, xavfsizlik muammolarining globallashuvi ichki siyosiy, xalqaro, mintaqaviy va global konfliktlar o'rtasidagi chegaralarning yuvilib ketishi bilan tavsiflanmoqda.

Buni Janubiy Osiyo, O'rta Sharqning Afg'oniston qismi va Markaziy Osiyo davlatlari xavfsizligining o'zaro bog'liqligi hamda tahdidlarning umumiyligida ham yaqqol ko'rish mumkin. SHuningdek, soha mutaxassislari bildirayotgan fikrlarida ham, G'arb davlatlari tashqi siyosatida ham Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqalari xavfsizligining mushtarakligi o'z aksini topmoqda.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab mintaqaviy xavfsizlikning muhim omili bo'lgan Afg'oniston muammosi O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlari sirasiga kiritildi. Shuningdek, mazkur masala xalqaro xavfsizlik masalasi bilan ham chambarchas bog'liq bo'lib, xalqaro maydonda katta qiziqish tug'dirib kelmoqda.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda Afg'onistonda milliy davlatchilikning shakllanishi, ichki ijtimoiy vaziyat bilan bog'liq masalalarni tadqiq etish borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi. Xususan, bu borada A.Xaydarov, N.Xan, N.U.Tulyaganova, Sh.I.Akmalov, Z.X.Xatamov kabi o'zbek olimlari o'z tadqiqot ishlarini bevosita Afg'onistondagi mavjud muammolarni o'rganishga bag'ishlaganlar³.

Shuningdek, Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligini o'rganish borasida R.M.Alimov, Sh.R.Arifxanov, R.Z.Jumayev, Sh.I.Paxrutdinov, A.R.Raxmanov, I.I.Boboqulov, U.S.Xasanov, S.T.Saidolimov, F.F.Tolipov kabi olimlarning qator

³ Хайдаров А. Центральная Азия во внешней политике Исламской Республики Иран. – Т.: ТашГИВ. 1998; Туляганова Н.У. Афганский фактор в современных международных отношениях в Центральной Азии. – Т.: ЖИДУ, 2004; Акмалов Ш.И. Национальная стратегия Республики Узбекистан в вопросах мирного урегулирования афганского конфликта (1991 - 2009 гг.). – Т.: ТИУ, 2009; Хатамов З.Х. Туркистанский сборник как источник изучения История Афганистана г.Фергана-1993 Хан Н.Ю Афг фактор в Пакистано статья индийских отношениях Т: "Маяк Востока" 1-3: ТашГИВ 1996г;

ilmiy asarlari va maqolalarini e'tirof etish mumkin ⁴.

Jumladan, N.Tulaganova monografiyasida Afg'onistonning milliy davlatchilik asoslari, afg'on xalqining o'ziga xos tomonlarining tarixiy jihatlari, afg'on muammosining Markaziy Osiyo geosiyosiy holatiga ko'rsatayotgan ta'siri hamda O'zbekiston Respublikasining bu muammoga nisbatan munosabati, manfaatlar tizimi atroflicha tahlil qilingan.

Sh.I.Akmalovning "Национальная стратегия Республики Узбекистан в вопросах мирного урегулирования афганского конфликта (1991-2009 гг.)" o'quv qo'llanmasida afg'on muammosining mintaq va xalqaro xavfsizlikka ta'siri va uni tartibga solish bo'yicha O'zbekistonning pozitsiyasi, 1991-2009 yillarda O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimovning taklif va tashabbuslari uch bosqichga bo'lib tadqiq etilgan.

Tarixchi Z.X.Xatamov nomzodlik dissertatsiyasida «Turkistanskiy sbornik» risolasida chop etilgan Sharq mamlakatlari, xususan, Afg'onistonga oid tarixiy materiallar tahlil qilingan.

R.M.Alimovning "Центральная Азия: общность интересов" monografiyasida Markaziy Osiyo mintaqasida yetakchi xorijiy davlatlar

⁴ Алимов Р.М. Центральная Азия: общность интересов. – Т.: Шарк, 2005. – 464 с.; Алимов Р.М. Центральная Азия в XXI веке: сотрудничество, партнерство и диалог. Материалы международной конференции (13-15 мая 2003 года, Ташкент). – Т.: «Шарк», 2004; Арифханов Ш.Р. Центральная Азия: региональная интеграция и безопасность. – Т.: 2007; Жумаев Р.З. Политическая система

Республики Узбекистан: становление и развитие. – Т.: изд-во «Фан» АН Республики Узбекистан. 1996. – 207 с.; Пахрутдинов Ш. «Тахдид» тушунчаси: назария ва амалиёт. – Т.: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти, 1998. – 64 б.; Пахрутдинов Ш. Тахдид – халокатли куч. – Т.:

«Академия», 2001. – 317 б.; Рахмонов А.Р. Проблемы безопасности на национальном, региональном и глобальном уровнях. – Т.: «Узбекистон миллий энциклопедияси», 2001; Рахманов А.Р. Право международной безопасности. – Т.: ТГЮИ, 2005; Бобокулов И.И. Эволюция концепции безопасности: от военного к социальному аспекту // Международные отношения. №3. 2006; Бобокулов И.И. Вопросы международно-правового определения статус - региональных организаций в уставе ООН // Международные отношения.- Т.: УМЭД. №4. 2007; Boboqulov I. I. Central Asia: is there an alternative to regional integration? // Central Asian Survey. 25 (1-2).2006; Бобокулов И.И. Мухамеджанов А.Н. Международные организации и механизмы по обеспечению мира и безопасности. Краткий справочник. – Т.: ВШСАП Республики Узбекистан. 2003; Хасанов У.С. Региональные конфликты в Центральноазиатском регионе и безопасность // В кн. Региональная безопасность и национальные интересы (Центральноазиатский регион). – М. 2004; Саидолимов С.Т. Формирование системы региональной безопасности. – Т.: 2002; Толипов Ф. Ф. Большая стратегия Узбекистана в условиях геополитической и идеологической трансформации Центральной Азии. – Т.: Фан, 2005.

manfaatlarining tutgan o'rniga alohida e'tibor qaratilgan. Muallif fikricha, Afg'oniston davlatchiligida «yangi bosqich» rivojlanishi 2001 yilning 11 sentyabrdan keyin boshlangan. Shuningdek, F.F.Tolipovning bir qancha ilmiy maqolalarida afg'on mojarosini hal etishning bir necha jihatlari, shu jumladan, tashqi omillarning o'zni muhim ahamiyatga egaligi ta'kidlab o'tilgan.

Siyosatshunos A.Haydarov o'zining “Центральная Азия во внешней политике Иран” nomli tadqiqotida Afg'onistondagi diniy munosabatlar va uning mintaqadagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatga ta'siri alohida o'rganilgan, shuningdek, islom omilining siyosiy va giyosiyosiy jihatlari keng tahlil etilgan.

F. Tolipovning “Большая стратегия Узбекистана в условиях геополитической и идеологической трансформации Центральной Азии” nomli monografiyasida hamda bir qancha ilmiy maqolalarida afg'on mojarosini hal etish yo'llari jumladan, bunga tashqi omillarning o'zni muhim ahamiyatga egaligi ta'kidlab o'tilgan.

N.To'laganova o'zining “Афганский конфликт и его последствия в контексте становления новой системы безопасности в Центральной Азии” nomli ilmiy ishida Markaziy Osiyo davlatlari xavfsizlik tizimi bevosita Afg'oniston bilan bog'liqligidan kelib chiqib unda Pokiston Islom Respublikasining o'ziga xos o'zni borligini ta'kidlaydi. Muallif Afg'onistonning milliy davlatchilik asoslari, afg'on xalqining o'ziga xos tomonlarining tarixiy jihatlari, afg'on muammosining Markaziy Osiyodagi geosiyosiy vaziyatiga ko'rsatayotgan ta'siri hamda O'zbekiston Respublikasining bu muammoga munosabati, manfaatlar tizimini atroflicha tahlil qilgan.

Afg'oniston bo'yicha butun dunyo bo'ylab ko'pgina ilmiy ishlar bajarilgan va afg'on muammosi yetarlicha tadqiq etilgan. Bu ishlarda afg'on muammosi turli jihatlardan kelib chiqib tadqiq etilgan. Afg'onistondagi siyosiy holat tahliliy ma'lumotnomalar, ilmiy maqolalar va monografiyalarda u yoki bu darajada o'rganilgan. Umuman mavzuning o'rganilganlik darajasi borasida uni shartli ravishda ikkiga ajratish mumkin, chet ellik olimlar, tadqiqotchilar va

respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassislar.

Afg'onistondagi vaziyat chet ellik tadqiqotchilar A.Knyazev, A.Rashid, S.Akimbekov, N.Shilo, L.Aristov⁵ A.Koen, V.Suprun, D.Verxoturov, I.Dobayev, I.Fadeyeva, K.Entexabi-Fard, M.Laumulin, R.Sikoyev, S.Akimbekov, T.Daymond tomonidan ham o'rganilgan⁶.

Y.V Gankovskiyning "Национальный вопрос и национальные движения в Пакистане" asarida muallif Afg'oniston va Pokiston o'rtasidagi etnik muammolar xususida so'z yuritadi⁷.

Olaf Karoening "The Pathans" kitobi Afg'oniston va Pokiston hududidagi Pushtunlar tarixiga bag'ishlanadi. Bu kitobda Pushtunlarning tarixi miloddan avvalgi V asrdan XXI asrga qadar yoritilgan⁸.

Pokistonlik yozuvchi K.K.Aziz "Studies in history and politics" asarida Pokistondagi ijtimoiy-siyosiy harakatlar, Afg'oniston va Pokiston o'rtasidagi siyosat va bir qator Pokistonlik olimlarning fikrlari keltirilgan⁹.

Pokistonlik olim Ahmed Rashidning "TALIBAN Militant Islam, Oil and

⁵ А.Князев Афганский конфликт и радикальный ислам в Центральной Азии Бишкек "ИЛИМ" 2001 Ahmed Rashid TALIBAN Militant Islam, Oil and Fundamentalism in Central Asia. – London.: Yale University Press 2000;

С.Акимбеков Афганский узел и проблемы безопасности Центральной Азии. 2003; Н.Шило Обстановка в Афганистане: военно-политическая ситуация и трансформация политического курса страны МГИМО (У) МИД России, Октябрь 2008; Л.Аристова Социальная инфраструктура Афганистана (системы здравоохранения и просвещения в конце 70-х - сер. 80-х годов). Сборник - Афганистан: история, экономика, культура -М.: 1989.

⁶ Коэн А.Вашингтон тревожит дальнейшая судьба Карзая. <http://www.hs.uz>; Князев А. Афганский конфликт и радикальный ислам в Центральной Азии.<http://www.hs.uz>; Рашид А. Талибан: Ислам, нефть и новая Большая игра в центральной Азии. <http://www.hs.uz>; Супрун В. Власть в Афганистане перешла к Временному правительству. - Компас: ИТАР-ТАСС. № 1 -2002.; Верхотуров Д. «Промышленное развитие Афганистана». Часть 1., Часть 2. afghanistan.ru; Добаев И. К вопросу о типологии радикального исламского движения. // «Центральная Азия и Кавказ». №3(21)-2002г.; Фадеева И. Ислам и политический конфликт. //

«Россия и Мусульманский мир». № 8.(122).–2002.; Энтехаби-Фард К. Временное правительство Афганистана пытается укрепить свой пошатнувшийся авторитет. <http://www.hs.uz>; Лаумулин М. Контртеррористическая операция в Афганистане: опыт политологического анализа. www.kisi.kz; Сикоев Р.

Неясные контуры будущего. // «Азия и Африка сегодня». №7. –2002; Акимбеков С. Афганский узел и проблемы безопасности Центральной Азии. – М.: 2003.; Даймонд Т. Потенциальные Доноры Реконструкции Афганистана собираются В Вашингтоне. <http://www.hs.uz>.

⁷ Ю.В. Ганковский. Национальный вопрос и национальные движения в Пакистане. Москва 1967.

⁸ Olaf Karoe. The Pathans – Karachi: Oxford University Press 2006

⁹ К.К.Aziz. Studies in history and politics – Lahore: Maktaba jaded press 2002

Fundamentalism in Central Asia” kitobida “tolibonlar” harakati tarixi batafsil yoritilgan. Shuningdek kitobda Pokiston, Afgʻoniston va Markaziy Osiyo hududidagi diniy ekstrimistik harakatlar ham tahlil qilingan¹⁰.

Qirgʻiziston-Rossiya Slavyan Universiteti tadqiqotchisi A.Knyazev oʻz monografiyasida Afgʻonistondagi muxolif kuchlarning va Afgʻoniston muammosini hal qilish boʻyicha rasmiy shaxslarning OAVga bergan intervyulari, hujjatlar va manbaalarni tahlil qilgan¹¹.

L.Aristov yozgan asarida afgʻon xalqining 70-80- yillardagi yashash sharoiti, davlatning ularga koʻrsatgan ijtimoiy koʻmaklari va eng muhimi rus-afgʻon urushi haqida maʼlumot berilgan¹².

N.Shilo tahliliy maʼlumotnomasida 2001 yil 11 sentyabr voqealaridan keyin Afgʻonistondagi harbiy-siyosiy holat, tashqi kuchlarning (NATO) aralashuvi va bunga Rossiyaning pozitsiyasi aks ettirilgan¹³.

Mavzu doirasida oʻrganilgan asarlar, maqolalar, ilmiy va tahliliy ishlarda Afgʻonistondagi siyosiy holatning bugungi bosqichiga bagʻishlangan. Mazkur tadqiqotda esa, Afgʻonistondagi ichki vaziyatgaga tashqi kuchlar aralashuvining tarixi va unga Oʻzbekistonning munosabati, shuningdek mintaqada barqarorlikni saqlashga qaratilgan tashabbuslari oʻrganib chiqiladi.

Tadqiqotda qoʻllanilgan metodikaning tavsifi. I. A. Karimovning tarixni oʻrganishda aniq va real voqealarga tayanish kerak, degan fikrlari asosida mavzu ilmiy-metodologik meyorlar doirasida yoritishga harakat qilindi. Bu borada Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov asarlaridagi nazariy yondashuvlar ishning metodologik asosi qilib olindi. Xususan ”Oʻzbekiston XXI asr boʻsagʻasida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari”, ”Tinchlik va xavfsizligimiz oʻz kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va

¹⁰ Ahmed Rashid TALIBAN Militant Islam, Oil and Fundamentalism in Central Asia. – London.: Yale University Press 2000.

¹¹ Князев А. А. Афганский конфликт и радикальный ислам в Центральной Азии Бишкек "Илим" 2001;

¹² Аристова Л. Б. Социальная инфраструктура Афганистана (система здравоохранения и просвещения в конце 70-х – сер. 80-х годов). Сборник – Афганистан: история, экономика, культура. – М.: 1989.

¹³ Шило Н. Обстановка в Афганистане: военно-политическая ситуация и трансформация политического курса страны МГИМО (У) МИД России, Октябрь 2008;

qat'iy irodamizga bog'liq" kabi asarlaridan, geosiyosiy nazariyadagi kuchlar va manfaatlar balansiga oid konsepsiyalar, harbiy aralashuv va intervensiyaga taalluqli bo'lgan xalqaro-huquqiy shartnomalar, mahalliy va xorijiy ekspertlarning ilmiy ishlari hamda O'zbekiston Respublikasining bu boradagi pozitsiyasi va tashabbuslari tashkil etadi. Bundan tashqari O'zbekistonda mustaqillik yillari chop etilgan ilmiy asarlar hamda davriy matbuot nashrlaridan ham keng foydalanildi. Tadqiqot tarixiy manbalar va adabiyotlar asosida obektivlik, tarixiylik, ilmiylik va zamonaviylik tamoyillariga rioya qilgan holda amalga oshirildi. Tadqiqot ishida hujjatlar tahlili, qiyosiy-tarixiy va tuzilmaviy- funksional tahlil uslublaridan foydalanildi. Shuningdek, tadqiqotda tizimli tahlil uslubini qo'llash Afg'onistonga tashqi aralashuv muammosini umumiy va xususiy jihatlarini o'rganishga yordam berdi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalaridan Toshkent davlat sharqshunoslik instituti o'quv dasturlari doirasida o'qitilayotgan fanlarga doir tegishli ma'ruzalar matnlari tayyorlashda va Afg'oniston tarixini o'rganishda qo'llanma sifatida xizmat qilishi mumkin.

Ish tuzilmasining tavsifi. Mazkur tadqiqot ishi uch bob, olti paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. DAVLATLARNING MINTAQAVIY TIZIMIDA AFG‘ONISTONNING O‘RNI

1.2. G‘arb davlatlari va Rossiyaning Afg‘oniston hududida geosiyosiy manfaatlari to‘qnashuvi

Afg‘oniston Islom Respublikasi Osiyo qit‘asining janubi-g‘arbida joylashgan davlat bo‘lib, mintaqada muhim geosiyosiy mavqeni egallaydi.

«Afg‘oniston» degan nomni XIII asrdan XV asrgacha bo‘lgan qo‘lyozma manbalarda tez-tez uchratish mumkin. Jumladan, unga oid ilk ma‘lumotlar miloddan avvalgi VI asrga – Eron Ahomaniylar imperiyasi tarkibiga kiritilgan davrga taalluqlidir. Miloddan avvalgi 330 yilda Afg‘oniston Aleksandr Makedonskiy tomonidan zabt etilgan bo‘lib, undan so‘ng yunon, hind, eron, arab xalifaligi, g‘aznaviylar, chingizlar, temuriylar, buyuk mo‘g‘ullar, safaviylar va Nodirshoh Afshorlar tarkibida bo‘lgan. Afg‘oniston xalqlarining taqdiri qadim-qadimdan O‘rta Osiyo, Eron, Pokiston va Shimoliy Hindiston xalqlari tarixi bilan uzviy bog‘langandir¹⁴.

XVIII asrning o‘rtalariga kelib, xalqaro vaziyat afg‘onlarning davlat tuzishi uchun qulay imkoniyatni vujudga keltirdi. Abdoliy (Durrioni) qabilasining boshlig‘i Ahmadshoh 1747 yilda mamlakat tarixida birinchi bor mustaqil afg‘on davlatiga asos soldi (1773 yilgacha hukmronlik qildi) va tinimsiz olib borgan jangovar harakatlari natijasida pushtunlar yashaydigan Amudaryoning chap qirg‘og‘i, Xuroson, Siston, Sind, Balujiston, Kashmir, Panjob, Sirhind kabi hududlar kirgan Durrioniylar davlati barpo etildi. 1773 yil Ahmadshoh vafot etgach uning taxt vorislari-o‘g‘li Temur va nevarasi Zamon hukmronligi davrida afg‘on davlatining tushkunlikka yuz tutishi boshlandi.

Aynan XIX asrning boshida o‘zaro urushlar va dehqonlar qo‘zg‘olonlari natijasida Afg‘oniston davlati ancha zaiflashdi. Bu paytda mamlakatni Ahmadshohning nevaralaridan biri – Shujoulmulk boshqarar edi. Shu davrda mamlakatga chet elliklar kirib kela boshladilar, ingliz-rus raqobati ham mamlakat

¹⁴ Таннер С. «Афганистан: история войн от Алексаедра Македонского до падения «Талибан»» /Пер. с английского С. М. Саксина. – М.: «Эксмо», 2004. –С. 31-169.

taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsata boshladi.

Ta'kidlash jizki, XIX asrdan boshlab Afg'onistonning keyingi ichki va tashqi hayoti xorijiy davlatlarning harbiy arlashuvi bilan xarakterlanadi. Afg'oniston ichki ishlariga tashqi harbiy aralashuvning sabablari va uning subyektlarini turli xil ekanligini hisobga olgan holda shartli ravishda uch bosqichga ajratish mumkin. Ya'ni, birinchi bosqich XIX asr; ikkinchi bosqich XX asr oxirlari; uchinchi bosqich XXI asr boshi. Mazkur har bir bosqich «Katta o'yin» konsepsiyasining ham davriy bosqichlari hisoblanib, ular o'z ishtirokchilariga, munosabatlardagi ustuvor masalalarga va geosiyosiy borliq muhitiga ko'ra bir-biridan farqlanadi.

Jumladan, «Katta o'yin» atamasi (konsepsiya) nisbatan aniq va keng qamrovli tushuncha. U bugungi Hindiston orqali kontinental borliq - Yevrosiyoga yo'l ochish davomida, aniqrog'i, aynan Markaziy Osiyo uzra Rossiya va Buyuk Britaniya o'rtasidagi geosiyosiy «o'yin» orqali yuzaga kelgan. Bu to'qnashuv tarixga R.Kipling iborasi bilan «Katta o'yin» nomi bilan kirgan¹⁵.

Mazkur «o'yin»ning obyekti Markaziy Osiyo bo'lsada, Afg'oniston jang maydonining markaziga aylanib qoldi. Xususan, afg'onshunos olim V.Korgun «Afg'oniston – bu Markaziy Osiyoning bosh nervidir» deb bejiz aytmagan. O'z o'rnida geosiyosiy jarayonlar buning isbotini ko'rsatmoqda.

Alohida ta'kidlash kerakki, Buyuk Britaniya Rossiyaning asta-sekin janubga siljib, Markaziy Osiyo xonliklarini birin-ketin bosib olish orqali, oxir-oqibatda Hindiston chegaralariga chiqishidan qo'rqqar edi. Bu holda orqada bo'ysundirilgan yerlarga va Rossiya imperiyasining markazi bilan quruqlik bo'ylab aloqaga ega rus qo'shini ingliz ekspeditsion qo'shinlari oldida ustunlikka ega bo'lardi. «Britaniya tojining durdonasi» bo'lgan Hindiston xavf ostida qolardi¹⁶.

Jumladan, 1800 yil so'ngida rus podshohi Pavel I Napoleonga maktub yo'llab, Angliyaga qarshi urush boshlash niyatini ma'lum qildi. Napoleon bunga javoban o'zining Hindistonga O'rta Osiyo orqali quruqlikdan o'tish rejalarini taklif qildi.

¹⁵ Камша В. «Большая игра» между львом и орлом // «Евразия» март 2008. - С 6-13.

Сафоев С. Марказий Осиёдаги геосиёсат. –Т.: «ПАТЕНТ ПРЕСС», 2005. –С.78.

Постников А. Схватка на «Крыше мира». –М., 2001. С. 50-51.

¹⁶ Сафоев С. Марказий Осиёдаги геосиёсат. –Т.: «ПАТЕНТ ПРЕСС», 2005. –С.78.

Bu rejaga ko'ra fransuz-rus qo'shinlari Afg'oniston tuprog'idan o'tib, Hindistonga yurish qilishlari kerak edi¹⁷.

Ammo 1801 yil Peterburgdagi davlat to'ntarishi natijasida rus podshosi Pavel I o'ldirildi va uning o'rniga o'g'li Aleksandr I taxtga o'tirdi. Bu voqealar Napoleonning Hindistonga yurishini orqaga surdi. Aleksandr I va Napoleonning Tilzitdagi uchrashuvidan keyin bu masala yana ko'tarib chiqilib, 1808 yilda Napoleon Eronga general Gordonni yubordi. Bundan hadiksiragan inglizlar 1809 yili Afg'onistonga Elfinston boshchiligida maxsus missiya yubordi va shu yili 17 iyunda ingliz va afg'on hukumatlari Napoleonga qarshi qaratilgan «Doimiy tinchlik va do'stlik to'g'risida»gi shartnoma imzoladilar. Bu o'ziga xos bitimni tasdiqlagan afg'on hukmdori Shujoulmulk keyinchalik tarix taqozosi bilan mamlakatdan quvildi va «Ost-ind» kompaniyasidan panohtopdi.

Bu davrda afg'on taxti uchun kurash boshlanib ketdi va ular orasidan Do'stmuhammadxon o'z irodasi, tadbirkorligi va jasurligi bilan shuhrat qozondi. Kobul amiri Do'stmuhammadxon (1826-1863) uzoq kurashlardan so'ng 1826 yili Qobulni qo'lga kiritdi va shu yili afg'on amiri tojini kiydi.

Ingliz mustamlakachilari Do'stmuhammadxon davlatiga qarshi sikxlarni, so'ngra eronliklarni gijgijladi. Lekin shunga qaramay, Do'stmuhammadxon afg'on yerlarining katta qismini o'z amirligiga qo'shib olishga muvaffaq bo'ldi.

Shu tariqa Buyuk Britaniya va Afg'oniston o'rtasidagi ziddiyatlar birinchi ingliz-afg'on (1838-1842) urushini keltirib chiqardi. Inglizlar mazkur harbiy harakatlarni olib borishidan maqsad amir Do'stmuhammadning o'rniga o'z «odamlari» Shujoulmulkni taxtga ko'tarib, Afg'onistonni shu yo'l bilan to'la qaram qilib olish edi.

Inglizlarning bosqinchilik harakatlari amir Do'stmuhammadni tashvishga soldi va u bunga qarshi zarba berishda Rossiya va Erondan yordam olishga umid bog'lab, ular bilan diplomatik aloqalar o'rnatdi. Biroq Rossiya Yaqin Sharq masalalari bilan band bo'lganligi bois Afg'oniston masalasida Angliyaga yon bosdi va Afg'oniston bilan diplomatik aloqalar o'rnatishga monelik qildi.

¹⁷ Постников А. Схватка на «Крыше мира». –М., 2001. С. 50-51.

Shunday bo'lsada, birinchi ingliz-afg'on urushida Angliya harbiy jihatdan ancha ustun ekanligiga qaramay, muvaffaqiyat qozona olmadi. Chunki afg'onlar ingliz bosqinchilariga qarshi milliy mustaqillik, umumxalq urushini olib borayotgan edilar. Urush natijalariga ko'ra, 70 mingdan ortiq ingliz va afg'on askarlari qirilib ketdi. Pirovardida, Angliya Afg'oniston bilan sulh bitimi imzolashga va bu davlatning milliy mustaqilligini tan olishga majbur bo'ldi.

Bir oz vaqt o'tgach Rossiyaning janubga tomon harbiy harakatlari – 1865 yil ruslarning Toshkent va Samarqandni bosib olishi, Amudaryo qirg'oqlariga chiqishi hamda Kobuldagi diplomatik faolligi britaniyaliklarni sharmandali mag'lubiyat haqida unutib, 1878-1880 yillarda davom etgan ikkinchi ingliz-afg'on urushini boshlashga majbur qildi. Ammo bu safar ham ularning 40 ming kishilik qo'shini muvaffaqiyatsizlikka uchradi va 1881 yilda chekinishga majbur bo'ldi. Mazkur urushdan so'ng Afg'oniston o'z ichki siyosatini mustaqil amalga oshirsada, tashqi siyosati Buyuk Britaniya nazorati ostida edi. 1883 yilda inglizlar yangi urush ochish xavfi ostida afg'on amiri Abdurahmonni Afg'onistonning Britaniya Hindistoni bilan yangi chegara o'rnatilishini aniqlab beruvchi - "Dyurand¹⁸ chizig'i" deb atalmish bitimni imzolashga majbur qildilar. Shu bois Britaniya Hindistoni tarkibiga sharqiy pushtun qabilalari kiritilib, bu bitim hozirgacha Afg'oniston tomonidan tasdiqlanmagan va Pokiston bilan jiddiy nizolarga sabab bo'lib kelmoqda.

Rossiyaning janubga yurishi esa, 1884 yil mashhur Panjex voqeasi ro'y bergunga qadar davom etdi. O'shanda rus qo'shinlari Marvni bosib olgach, birinchi marta afg'on qurolli kuchlari bilan to'qnashdi. Ikki buyuk davlat o'rtasida bevosita to'qnashuvning oldini olish uchun zudlik bilan Ingliz-Rus Chegara Komissiyasi ta'sis etildi. Bu Komissiya Amudaryo bo'ylab chegara chizig'ini qayd etdi. Mazkur voqeadan e'tiboran Afg'oniston Buyuk Britaniya va Rossiya o'rtasida bufer davlatga aylanib qoldi. Mohiyatan har ikkala imperiya o'z maqsadlariga yetgandek edi. Keyinchalik, 1907 yilda taraflar Afg'oniston Buyuk Britaniya

¹⁸ M.Dyurand – Afg'oniston va Britaniya Hindistoni o'rtasidagi chegarani demarkatsiya qilish bo'yicha Britaniya missiyasining boshlig'i.

nazorati ostidagi hudud ekanligi, u mavjud chegaralarni tan olishi va Rossiyaning Markaziy Osiyodagi ishlariga aralashmasligi haqidagi Konvensiyani imzoladilar. Rossiya uchun esa savdo huquqlari berildi, xolos. «Katta o‘yin»ning klassik davri shu tariqa yakunlandi.

Afg‘oniston XX asr boshida ishlab chiqarish sanoati yo‘q qoloq davlat bo‘lib qolaverdi. Soliqlar pul bilan emas, mahsulot sifatida olinardi. Og‘ir sharoitga qaramay, Afg‘oniston tashqi dunyodan uzilib qolgani yo‘q. Afg‘onistonda respublikachilik harakati paydo bo‘ldi. Bu harakat tarafdorlari «Yosh afg‘onlar» deb ataldi. Ular maktab-maorif, madaniyat, fan, texnika tarmoqlarini rivojlantirish g‘oyalarini ilgari surdilar. Ular amirlik hokimiyati bilan barobar konstitutsiya ham bo‘lishini talab qildilar. Mahsulot solig‘ini bekor qilish, ichki boj to‘lovlarini yo‘qotish, qabilalar tengligiga erishish va ko‘p masalalarda ilg‘or qarashlarni ifoda etdilar.

1918 yil iyulda sovet hukumati Afg‘onistonni Buyuk Britaniya ta’siridan batamom holos etish uchun ozodlik harakati sodir etishga undaydi, biroq amir Habibullaxon bunga yo‘l qo‘ymaydi. Chunki u Angliya bilan yaqinlashish tarafdori bo‘lgan. 1919 yil unga suiqasd qilinib, hokimiyat tepasiga uning o‘g‘li Omonullaxon keladi. Islohotlarning butun umidi ham Omonulloxonga qaratildi. Chunki, u «yosh afg‘onlar» ruhida tarbiyalangan edi. Uning olib borgan siyosatini tahlil qilganda aytish mumkinki, tashqi siyosatda u sovetlar bilan yaqin aloqa olib boradi. Inglizlar bilan aksincha bo‘lib, hattoki ularning munosabatlari yomonlashib uchinchi ingliz-afg‘on urushini (1919 yil 3 may – 8 avgust) keltirib chiqaradi. Bu urushning kelib chiqishiga asosiy sabab inglizlarning Janubiy-g‘arbiy chegara viloyatlaridan Afg‘oniston tomonga qilgan hujumlari va razvedka harakatlari bilan birga «Dyurand chizig‘i»dagi muammolardir. Uch oy davom etgan mazkur urushda inglizlar havo zarbalarida qo‘li baland kelsada, Hindistonda boshlangan milliy-ozodlik harakatlari inglizlarning afg‘on amiri bilan kelishuv olib borishiga majbur qildi. Shu tariqa 1919 yil 8 avgustda Afg‘oniston amiri Omonullaxon va Britaniya Hindistonining vitse-qiroli lord Chelmsford Ravilpindida uchrashadi. Shu vaqtdan buyon Afg‘oniston ichki va tashqi siyosatida to‘liq mustaqil davlat

deb e'lon qilinadi¹⁹.

Qayd etish joizki, 1929 yilda sovetlar tomonidan Afg'oniston ichki ishlariga harbiy aralashuv amalga oshiriladi. Omonullaxon akasi Inoyatillaxon foydasiga taxtdan voz kechadi va uning besh kunlik hukmronligidan so'ng hokimiyatga Bachai Saqo keladi. Bunga javoban Omonullaxon sovetlar bilan yashirincha kelishishga harakat qiladi. Unga ko'ra, ruslar Afg'onistonning Moskvadagi elchisi G'ulom Nabixon atrofida afg'on qochoqlari va sovet ekspeditsion kuchlaridan iborat qo'shin tashkil etiladi. Mazkur bo'linma sovetlar tomonidan qurollantirilib (4000 dona miltiq va 200 ta pulemyot), harbiy tayyorgarlikdan o'tkaziladi. G'. Nabixon va sovet harbiy qo'mondonlaridan V. Primakov boshliq qo'shin dastlab Mozori-Sharifni keyin Balx, Shibirg'on va Toshqo'rg'on shaharlarini ishg'ol qiladi. Omonullaxon esa o'z qilmishidan qo'rqib Afg'onistondan qochib ketadi. Hokimiyatga Bachai Saqo kelib inglizlar bilan hamkorlik qilishga harakat qiladi va sovetlarni Afg'oniston ichki ishlariga aralashishda ayblab nota yo'llaydi. Birlashgan qo'shinlar yurishni davom ettirsada, ular general Muhammad Nodir Shoh qarshiligiga uchraydi. U Kobulni egallab, Bachai Saqoni qatl etadi va mamlakat taxtini egallaydi²⁰. Sovetlar esa, amalga oshirgan harbiy harakatlari natijasida ko'zlagan maqsadga erisha olmaydi.

Muhammad Nodir Shoh amirlikni tugatib, shohlikni qaror toptiradi. Mamlakatda qabila, millat va elatlar orasida tinchlik o'rnatib, ijtimoiy-iqtisodiy islohatlarni amalga oshiradi. Biroq u 1933 yilda suiqasd qurboni bo'ldi va hokimiyat tepasiga uning o'g'li Zohir Shoh keladi. U qirq yil mobaynida davlatni mu'tadil boshqaradi. Afg'onistonning xalqaro munosabatlari faollashib, hatto 1934 yili Millatlar Ligasiga a'zo bo'ladi. Shuningdek, 1939 yili Afg'oniston o'zining betaraflik siyosatini e'lon qilishi munosabati tufayli Ikkinchi jahon urushiga tortilmadi.

Ta'kidlash kerakki, 1945 yil 5 martda Buyuk Britaniyaning sobiq premyer-

¹⁹ Таннер С. «Афганистан: история войн от Алекседра Македонского до падения «Талибан»» /Пер. с английского С. М. Саксина. – М.: «Эксмо», 2004. –С. 285-287.

²⁰ Хотамов Ғ. «Ёвузликка қарши турмаган уни ёқлаган бўлади: Фактлар, талқинлар, муносабатлар». –Т.: «Маънавият», 2002. – 38-40 б.

ministri U.Churchill Fulton universitetida (AQSH) soʻzlagan nutqida «Sovuq urush» boshlanganini eʼlon qilgan edi²¹. Mazkur «urush» raqiblari bir tomonda AQSH boshchiligidagi NATO bloki boʻlsa, ikkinchi tomondan SSSR yetakchiligidagi Varshava shartnomasi tashkiloti edi.

«Sovuq urush» davrida Afgʻoniston joylashgan mintaqaning Cobiq SSSR bilan AQSH oʻrtasini ajratib turuvchi hudud sifatidagi geosiyosiy konstruksiyasi Sovet Ittifoqi manfaatlariga toʻliq mos kelardi. Shu bois sovet rahbariyati oʻzining mamlakatda harbiy jihatdan hozir boʻlishini kuchaytirish bilan birga, Afgʻonistonni iqtisodiy qaram qilib qoʻyishga intildi. Xususan, Afgʻoniston 1954 yilda 3,5 mln. AQSH dollari miqdorida sovet kreditini oldi va 1955 yilda Moskva Muhammad Zohirshohga 100 mln. dollarlik qarz berdi. Bundan tashqari, sovet mutaxassislari mamlakatdagi Salang davoni orqali SSSR bilan tutashtiradigan bosh transport magistralini qurdi. Shuningdek, Mozori-Sharif, Bogʻrom va Shindon shaharlarida zamonaviy aerodromlar barpo etildi²².

Ayrim gʻarb siyosatshunoslari Ikkinchi jahon urushidan keyin AQSHning Afgʻoniston boʻyicha olib borgan siyosatini baholab, uning sovetlar hatti-harakatlariga befarqlik bilan, hotirjam qaraganligini va Afgʻonistonda Moskvaning raqibi boʻlishi niyati mutlaqo boʻlmaganligini taʼkidlashadi²³. Biroq «Sovuq urush» kuchayib borgan sari AQSHning Afgʻonistonga nisbatan siyosati, eng avvalo, uning harbiy-strategik ahvoli, hududi SSSRga yaqinligi bilan belgilana boshlandi²⁴.

Mazkur jarayonlarning rivojlanib borishi, oʻz navbatida «Katta oʻyin»ning ikkinchi toʻlqinining ibtidosi boʻldi hamda SSSR va AQSH kuchli raqibga aylandi.

AQSH Afgʻonistonga dastlab «Morrison-Nadsen» firmasi bilan kirib keldi va afgʻon hukumati bilan irrigatsiya obyektlarini qurish boʻyicha shartnoma tuzdi. AQSH mazkur shartnomani nomaʼlum vaqtgacha choʻzib borib oʻzini mintaqada

²¹ Hidoyatov G. A. Jahon tarixi: Umumtaʼlim maktablarining 11-sinf oʻquvchilari uchun darslik. II qism (1945-2002 y.y.): Eng yangi tarix. –T.: «Sharq», 2002. – 8 b.

²² Gʻoyibnazarov Sh. Xalqaro terrorizm: ildizi, omillari va manbai. –T.: «Oʻzbekiston», 2009. – 175-176 b.

²³ Pulladan I. Afghanistan end the U.S.: The Critical Years. «The Middle East Journal», vol. 5, № 2, p. 187; Amsturz B. Afghanistan: The First Five Years of Soviet Occupation. Wash., 1986, p/ 29, 49.

²⁴ Gʻoyibnazarov Sh. Xalqaro terrorizm: ildizi, omillari va manbai. –T.: «Oʻzbekiston», 2009. – 176 b.

mavjud bo'lishini ta'minlash bilan birga Afg'oniston hukumatini moliyaviy jihatdan qaram qilib qo'ydi. Shuningdek, AQSH o'sha vaqtda «pushtunlar muammosi»ning kelib chiqishiga o'z «hissasini» qo'shdi²⁵.

Shunday qilib, eng yangi tarix davrida Afg'oniston o'zining qulay strategik holati tufayli jahon geosiyosiy xaritasida alohida o'rinni egalladi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrlarda u ko'plab mamlakatlar, shu jumladan SSSR va AQSHning siyosiy, mafkuraviy va savdo-iqtisodiy manfaatlari doirasiga tobora tortila boshladi. Mamlakat aslida ikki buyuk davlat to'qnashadigan maydonga aylanib qoldi. Ularning Afg'onistonga qiziqishi ta'sir sohasini taqsimlashga talluqli bo'lib, bu, birinchi navbatda, mintaqaviy va, pirovard natijada global sovet-amerika raqobatchiligi bilan bog'liq edi²⁶.

XX asrning 60-yillarida mamlakatda ijtimoiy harakatlar va siyosiy guruhlarining faoliyati jonlana boshladi.

Bu davrda mamlakatdagi ruhoniylar sovet namunisi bo'yicha amalga oshirilayotgan o'zgarishlarga qarshi chiqib, juma namozlarida ularga qarshi tashviqot ishlari boshlanib ketadi. Bunga javoban ularning ko'pchiligi mamlakatdan qatag'on qilinadi. Shu bois keksa din arboblari hukumatning bunday jozolaridan yurak oldirib qo'yadi. Endi tashabbus yoshlar qo'lga o'tadi va arab davlatlaridan ayrim radikal kuchlar ta'siri ostida ko'plab ekstremistik guruhlar tuzila boshlandi.

Kobul universiteti bunday faoliyatlarning markaziga aylandi. Xususan, Burhoniddin Rabboniy, Abdurasul Sayyof, Muhammad Umar, Gulbiddin Hikmatyor, Sayfiddin Nasratyor va Habib Rahmonlar ushbu harakat «yadrosini» tashkil qildi. Keyinchalik Kobul universitetida «Musulmon yoshlari» maxfiy uyushmasi tashkil etildi. Mazkur uyushma 1970 yillarda mamlakatning barcha viloyatlarida fundamentalistik yacheykalar tuzib, hattoki o'z saflariga qurolli kuchlar saflaridan zobitlarni yollashdi. «Musulmon yoshlari» harakatining prezidenti etib Burhoniddin Rabboniy e'lon qilindi. Siyosiy hokimiyatni qo'lga

²⁵ Темирханов Я. Восточные пуштуны. –М.: Наука, 1987. –С. 160.

²⁶ Туляганова Н. У. Афганский фактор в современных международных отношениях в Центральной Азии. –Т.: «Фан», 2004, – С. 24.

olish maqsadida 1968-1973 yillarda mamlakatda 2000 dan ziyod mitinglar o'tkazdi.

Ichki siyosiy keskinlik kuchayishi oqibatida 1973 yil 17 iyulda Muhammad Dovud rahbarligida armiya ofitserlari tomonidan amalga oshirilgan harbiy to'ntarish mamlakatda monarxiyaga barham berib, Afg'onistonni respublika deb e'lon qilinishiga olib keldi.

Dovud Afg'oniston infratuzilmasini rivojlantirish uchun SSSR yordamiga qanoat qilmay, Pokiston, Turkiya, Eron (o'sha davrda AQSHning vositachisi) va Saudiya Arabistoni vositachiligida G'arb davlatlaridan iqtisodiy yordam ola boshladi.

Bunday holat SSSRning manfaatlariga zid keldi. Chunki SSSR 1966-1976 yillarda 700 mln. AQSH dollar sarflagandi²⁷. 70-yillarning o'rtalirga kelib, Afg'onistonda Sovet Ittifoqi ko'magida 80 ga yaqin obyekt ishga tushirilib, ularning tovar aylanishining deyarli 40 foizi SSSR hissasiga to'g'ri kelgan²⁸. Shu bois, M.Dovud olib borayotgan siyosat SSSRga yoqmadi.

Ammo M.Dovudning ichki siyosatidagi xatolar uning 1978 yili 27 aprel kuni navbatdagi to'ntarish hamda uning o'ldirilishiga olib keldi.

Sobiq Sovet Ittifoqi tomonidan «Aprel inqilobi» deb talqin etilgan, aslida esa qurolli to'ntarishni kichik piyodalar otryadi bir nechta tank va uchta samolyotning madadi bilan Afg'oniston Xalq Demokratik Partiyasi amalga oshirgan edi. Afg'oniston demokratik respublika – ADR deb e'lon qilinib, uning oliy organi Inqilobiy Kengash, raisi etib AXDP Markaziy Qo'mitasining Bosh kotibi Nur Muhammad Taraqqiy tayinlandi. SSSR yangi hukmatni 30 apreldayoq tan oldi. Mazkur yangi siyosiy tuzum Sovet Ittifoqiga moslashib mamlakatda sotsialistik jamiyat qurish dasturini e'lon qildi.

Afg'on inqilobi ovoza bo'lishi bilanoq g'arblik ayrim siyosatchilar «to'ntarish tashabbuskorlari rejasidan Moskva xabardor bo'lganligi» haqida gap yurita boshlashdi²⁹. Ya'ni Sovet Ittifoqini bu voqealarni tayyorlashda va bevosita

²⁷ Арунова М. Р. Афганистан: правда против лжи//Международная жизнь, 1985, № 12. – С. 135.

²⁸ Современная Азия. Справочник. – М.: 1977. – С. 163.

²⁹ ²⁹ Anthony Arnold. Afghanistan: The Soviet Invasion in Perspective///Stanford: Hoover Institution Press. 1981, p/68; Herrman Rechard K. Soviet Behavior in Algional Conflicts. Old Question, new strategies and importal Itssons//

ishtirok etishda ayblashdi.

Bu vaqtga kelib xalqaro vaziyat ham murakkablashib borayotgan edi. Xususan, Ikkinchi jahon urushidan so'ng geostrategik raqobatda Buyuk Britaniya o'rnini Qo'shma Shtatlar egalladi. Ikki qutbli qarama-qarshilik taraflari jahonning eng muhim mintaqalaridan bir-birini siqib chiqarish va bu yerda o'z ta'sirini o'rnatishga harakat qildilar. Tabiiyki, bu ziddiyat Yaqin va O'rta Sharqning uglevodorodli xom ashyoga boy va strategik jihatdan muhim hududlarini, shuningdek ularga qo'shni mintaqalarni ham chetlab o'tmadi. 1979-1989 yillarda Afg'oniston uchun kurash «Katta o'yin» ikkinchi bosqichining cho'qqisi bo'ldi. Bu kurashga ikkala blok ham juda kata resurslarni tashladi³⁰.

Shunday bir vaziyatda Afg'oniston-Pokiston chegara hududlarida «yangicha hukumatga» qarshi kuchlar tashkillashtira boshlandi. Xususan, Afg'oniston qarshilik kuchlariga AQSH, Eron, Pokiston va boshqa mamlakatlar harbiy maslahatchilari tayyorlov markazlarida ko'mak berdi.

1979 yilning iyulidan noyabrigacha Pokistonda 30 mingdan ziyod afg'on bor bo'lib, yil oxiriga borib ularning soni 100 mingdan ortib ketdi³¹. Shuningdek, Zbigneв Bjezinskiyning fransuz jurnali *Nouvel Oobservateur*ga bergan intervyusida qayd etilishicha, «AQSH MRB³² ning mujohidlarga yordami rasmiy manbaalarda 1980 yilda rus qo'shinlari kiritilgandan so'ng berilgan. Aslida bunday ko'mak berishni biz rus harbiylari Afg'onistonga kiritilishidan olti oy oldin boshlagan edik va bu maxfiy operatsiya ajoyib fikr bo'lgandi»³³. Mujohidlar tomonidan AXDP³⁴ faollari, ofitserlar, sovet mutaxassislari va ularning oila a'zolari o'ldirila boshlandi.

Holbuki, bu vaqtda AXDPning oliy rahbariyatida hokimiyat uchun kurash avj olib, 1979 yil 16 sentyabrda yana bir to'ntarish natijasida davlat boshqaruvi Bosh vazir Hafizulla Amin qo'liga o'tdi va oktyabr oyida Taraqqiy «inqilobga qilgan

world police, vol 44, № 1, 1992.

³⁰ Сафоев С. Марказий Осиёдаги геёсийёсат. –Т.: «ПАТЕНТ ПРЕСС», 2005. – 79 б.

³¹ Ғойибназаров Ш. Халқаро терроризм: илдири, омиллари ва манбаи. –Т.: «Ўзбекистон», 2009. – 182 б.

³² AQSH MRB – Amerika Qo'shma Shtatlari Markaziy razvedka boshqarmasi

³³ *Nouvel Oobservateur*. № 1732, 1999 йил 15 январь.

³⁴ AXDP – Afg'oniston xalq demokratik partiyasi

xoinligi uchun» o'ldirildi. Sovet maxsus ximatlari H.Aminni MRBning agenti deb tahmin qilib, jismonan yo'q qildi.

Shunday qilib mamlakatdagi mana shu kabi beqarorliklarning avj olishi va AQSHning zimdan aralashuvi bois 1979 yilning 25 dekabrda boshlab sovet qo'shinlarining cheklangan kontingenti (SQCHK) – 40 - armiyaning harbiy qism va bo'linmalari Afg'onistonga kiritildi, yangidan tuzilgan Inqilobiy Kengashning raisi etib, 1978 yilning sentyabridan Moskvada quvg'inda bo'lgan Babrak Kormal tayinlandi. Bu harbiy aralashuvning o'ziga xos ko'rinishi sifatida namoyon bo'ldi. 1980 yilning yanvarida BMT sovet qo'shinlarini Afg'onistondan olib chiqib ketish lozimligi borasida rezolyutsiya qabul qildi, Sovet Ittifoqi agressor deb e'lon qilindi va u dunyoda yakkalanib qoldi.

Bevosita AQSH, G'arbning ba'zi davlatlari, Xitoy, Pokiston va Eron tomonidan Afg'onistondagi yangi hokimiyat, uning homiysi bo'lgan Sovet Ittifoqiga qarshi faol siyosiy, harbiy tadbirlar avj oldi. Qo'shni Eron va Pokiston hududida bu mamlakatlar maxsus xizmatlari shafe'ligida afg'on harbiy muxolifat kuchlari safini to'ldirish maqsadida jangarilarni tayyorlaydigan 100 dan ziyod ta'lim markaz va lagerlari tuzilib, ularda har yili 50 mingdan ortiq qarshilik jangarilari tayyorlandi³⁵. Afg'on urushining dastlabki bosqichida, 1978 yildan 1981 yil o'rtalarigacha mujohidlar rus, nemis va ingliz vintovkalari va ov miltiqlari bilan qurollangan bo'lsa, keyinchalik ular yetarlicha zamonaviy qurollarga ega bo'la boshladi. Bu bevosita chet elning yordami evaziga edi. Xususan, ingliz tadqiqotchisi Galeotti mujohidlar olgan yordamni baholab, 1984 yilgacha 4400 mln. dollar, 1985 yilda – 250 mln. dollar, 1986 yilda – 470 mln. dollar, 1987 yil – 630 mln. dollar, 1988 yilda esa 40 mln. dollar madad olgan³⁶. Bularning barchasini ortida geosiyosiy manfaatlar yotardi. Shu bois mazkur davr «Katta o'yin»ning ikkinchi to'liqini deb baholanadi.

Mujohidlar urushlar davomida hukumat va sovet harbiy bo'linmalariga qarshi ommaviy terror harakatlari bilan javob qaytardi. Bu esa koalitsion kuchlarning

³⁵ Азия и Африка сегодня. – 1986, № 4. – С. 17.

³⁶ Galeotti mark/ The Soviet Union's Last Wor/ - London, 1995/ -p/18/

sillasini quritdi. Shuningdek, jangarilar O'zbekiston va Tojikiston chegaralaridagi hududlarga hujumlar uyushtirib turishdi.

Shunday qilib bu «o'yin»da buyuk davlatlardan biri (SSSR) o'z geosiyosiy ta'sirini kuchaytirish uchun, boshqasi (AQSH) esa bunga yo'l qo'ymaslik uchun kurash olib bordilar. G'arb davlatlari va AQSHning sovet qo'shinlariga qarshi diniy ekstremizmni rivojlantirdi. Mazkur holat o'z natijasini berib, sovet harbiy kampaniyasining mag'lubiyati bilan tugadi.

1988 yil 14 aprelda Jenevada Sovet Ittifoqi, AQSH, Afg'oniston va Pokiston vakillari tomonidan afg'on muammosini siyosiy hal qilish borasida bitim imzolandi. Uning asosida 1988 yil 15 mayda Afg'onistondagi SQCHKning harbiy qism va bo'linmalarini olib chiqib ketish boshlandi va 1989 yilning 15 fevralida oxirgi sovet soldati Afg'onistonni tark etdi³⁷. O'n yilgi urush davomida sovet harbiy xizmatchilaridan 14433 nafari halok bo'ldi, 54 ming nafari yaralandi va 298 nafari bedarak yo'qoldi³⁸.

Afg'onistonda bundan keyingi ro'y bergan siyosiy jarayonlar, xususan, ichki siyosiy (etnik, diniy) konfliktlar natijasida oxir-oqibat hokimiyat tepasiga kelgan «Tolibon» harakati mamlakatni yangi geosiyosiy «o'yinlar»ning jang maydoniga aylantirib qo'ydi. Boshqacha aytganda tashqi harbiy aralashuv uchun qulay sharoitni vujudga keltirdi. O'zining 7 (1994-2001 y.y.) yillik hukmronlik davrida toliblar mamlakatni yirik gumanitar jar yoqasiga olib borishdi, Afg'oniston siyosiy va iqtisodiy boshboshdoqlik girdobiga tortildi va ochlik hamda kasallik iskanjasida qoldi. Ularning eng katta xatolari XXI asr boshida mamlakatni o'z siyosiy amallari orqali «Xulafoye Roshidin» davriga qaytarish, «asl» islom hukmron bo'lgan davlat tuzish edi. Bu harakatlar jahon hamjamiyatining nafratini uyg'otdi³⁹.

2001 yil 11 sentyabrda Afg'onistonda panoh topgan terroristlarning AQSHning Nyu Yorkdagi Xalqaro savdo markazi va Pentagonga nisbatan amalga oshirgan xurujlari tufayli terrorizmga qarshi urush AQSH va uning ittifoqchilari tomonidan 2001 yilning 7 oktyabrda kontrterror operatsiyasi sifatida boshlandi.

³⁷ Спольников В.Н. Афганистан: исламская оппозиция. -С. 132-180.

³⁸ Шумов С., Андреев А. История Афганистана. – М.: «Крафт-Традиция-Евролинц», 2002. – С. 99.

³⁹ Масутов Т. Афганские дневники. – Алматы. «РОНД», 2004. -С.16.

Hozirgi vaqtda siyosatchilarning ta'kidlashicha, mazkur harbiy aralashuv yoki geosiyosiy o'yinlar «Katta o'yin»ning uchinchi to'ldirini bo'lib, u «Yangi katta o'yin» deb atalmoqda.

Ayni vaqtda Afg'onistonda NATO shafeligida Xavfsizlikka ko'maklashuvchi xalqaro kuchlar (XKXX – ISAF) harbiy harakatlarni olib bormoqda va Afg'oniston ichki ishlarini tartibga solish ishlariga yordamlashmoqda. ISAF tarkibida AQSHning ittifoqdoshlari va hamkorlari hisoblangan 48 davlatga tegishli bo'lgan 150 mingdan ortiqroq harbiylardan iboratdir.

Ta'kidlash joizki, Afg'onistondagi antiterroristik operatsiyaning dastlabki bosqichida Markaziy Osiyo o'z tarixida birinchi marta raqobat obyektiga emas, ko'p tarafdin, balki uzoq muddatli hamkorlik maydoniga aylanmoqda. «Katta o'yin» tugagandek va bir tomonning g'alabasi ikkinchi tomon manfaatiga zid kelmaydigan holat, ya'ni «non-zero-sum-game» davri boshlangandek bo'lib tuyuldi. Biroq, terrorizmga qarshi urush cho'zilgani sari ayrim mamlakatlarning manfaatlari o'rtasida ziddiyatlar namoyon bo'la boshladi. Ular Markaziy Osiyoda o'z ta'sirini o'rnatish uchun o'zaro kurash olib borayotgani ayon bo'lib qoldi⁴⁰.

Oldingi davrlardan farqli o'laroq, mintaqa uchun geosiyosiy kurashning hozirgi bosqichi bir qancha o'ziga xos fundamental xususiyatlarga ega. Bu kurashga oldingidan ancha ko'proq davlatlar qo'shilganki, shuning o'ziyoq qarama-qarshilikning murakkab, ko'p yo'nalishli shakl-shamoyilini namoyon etadi. Bunda o'xshash yondashuvli mamlakatlar guruhlarini, masalan, AQSH va Yevropa Ittifoqi bir tomondan va Shanxay Hamkorlik Tashkiloti davlatlarini ikkinchi tomondan kuzatilmoqda.

Ta'kidlash kerakki, Markaziy Osiyodagi yangi «Katta o'yin» ishtirokchilari orasida o'ta tajovuzkor kuchlar – diniy radikalizm, xalqaro terrorizm va narkobiznes paydo bo'ldi. Ular havoyi fantom, virtual xavf va shunchaki yovuzlik timsoli emas. Bu kuchlar aniq kun tartibi, tarmoqlangan tashkiliy tuzilmaga va uncha-muncha davlat bellasha olmaydigan qudratli moliyaviy salohiyatga ega. Ular Markaziy Osiyodagi jarayonlarda ishtirok etayotgan davlatlar orasida ziddiyat

⁴⁰ Сафоев С. Марказий Осиёдаги геосиёсат. –Т.: «ПАТЕНТ ПРЕСС», 2005. –С.79.

mumkin qadar kuchayishidan manfaatdordirlar.

1.2 Pokiston, AQSh va mintaqa davlatlarining Afg'onistonga nisbatan siyosati tarixi

Bugungi kunda Afg'onistondagi siyosiy vaziyat jahon hamjamiyati bilan o'zaro munosabatlariga, milliy davlatchilikning shakllanishiga, davlat va Afg'onistondagi turli ijtimoiy-siyosiy va harbiy-siyosiy kuchlarning o'zaro munosabatlari jarayoniga yoki umuman davlat boshqaruviga alohida ta'sir ko'rsatuvchi tashqi va ichki omillar asosida shakllanmoqda. Tashqi omillar deganda mamlakat tashqarisidagi kuchlarning Afg'onistonga ichki siyosiy jarayonlarga ta'siri tushuniladi.

Afg'onistonning ahamiyatini mamlakatning geosiyosiy joylashganligi bilan, ya'ni so'ngi 150 yil mobaynida yetakchi mamlakatlar manfaatlari to'qnashganligi bilan ifodalash mumkin. XIX asrning ikkinchi yarmida «Katta o'yin» («Great game») nomi bilan boshlangan va XX asrda ham davom etgan mazkur geosiyosiy jarayonlar XXI asr boshida mutlaqo boshqa maqsad va vazifalar, o'yin ishtirokchilarining holati o'zgacha bo'lgan «Yangi katta o'yin» («New Great game») nomi bilan davom ettirildi.

Tashqi omillar haqida to'xtalib o'tganda Pokiston, AQSH, Eron, Hindiston, NATO va SHHT⁴¹ omillarini alohida ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Pokiston omili:

Pokiston Islom Respublikasi (PIR) va Hindiston o'rtasidagi qarama-qarshilik Islomobodning e'tiborini shimolga, ya'ni Afg'oniston va Markaziy Osiyo davlatlariga qaratishga majbur qilmoqda. Pokiston azaldan afg'on rasmiy hukumati bilan do'stona munosabatlar o'rnatishga harakat qilib kelgan. 1980-90 yillardagi Afg'onistonda sodir bo'lgan voqealar, Pokistondagi mojarolarning, shuningdek terrorchilik va jangovar harakatlarning ortishi mintaqaning vaziyatini o'zgartirib yubordi.

⁴¹ SHHT – Shan'fy Hamkorlik Tashkiloti

AIRdagi jarayonlarga ta'sir etuvchi tashqi omillar faoliyatini tahlil qilishda Pokiston o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Jumladan Afg'onistonning Pokiston bilan eng katta chegaraga ega bo'lib, chegara hududida esa bir xil millat, ya'ni pushtunlar, belujiylar yashaydi. Tarixga e'tibor beradigan bo'lsak, Pokiston Afg'onistonda vaziyat beqaror bo'lishidan manfaatdor bo'lib kelgan. Chunki, Pokistonning Belujiston viloyatida taxminan 8,0 mln. belujlar hamda Federal boshqaruvdagi qabilalar hududida yashayotgan 4 mln. Atrofidagi pushtunlarning separatistik harakatlari hozirgacha mavjuddir. Hozirga kelib Pokiston Afg'onistondagi vaziyatning beqarorligi Islomobod uchun zararli ekanligini anglab yetgan. Buni bir qator misollarda ko'rishimiz mumkin. Xususan, Afg'onistondagi vaziyatning salbiy tomonga og'ishi natijasida Pokistondagi terroristik hurujlar sonining ortishi, Belujiston okrugi ma'muriyati boshlig'i Kalat Mirsulaymon Daud 2009 yil 11 avgustni Belujiston mustaqilligi kuni sifatida e'lon qilishi bunga yorqin misol bo'ladi.

Shuning uchun Pokiston va Afg'oniston o'zaro munosabatlarining rivojlanishi murakkab hamda beqaror darajada kechmoqda. Shunday bo'lsada, ular o'rtasidagi hamkorlik dinamikasi davlatlararo normativ aktlarda namoyon bo'lib, shu bilan birga chegara, qochoqlar va hududiy masalalar bo'yicha muammolar borligini ko'rish mumkin.

2005-2008 yillarda hamkorlikning asosiy yo'nalishlarini belgilab beruvchi bir qator davlatlararo shartnomalar imzolangan. Jumladan, «AIR va PIR tranzit yuklarini tashish to'g'risidagi» kelishuv, «AIR va PIR terrorizmga qarshi kurashishda hamkorlik to'g'risidagi» memorandum, «AIR va PIR o'rtasida o'zaro ishonchni mustahkamlash bo'yicha uch tomonlama qo'shma ishchi guruhini tuzish to'g'risidagi» shartnomalar imzolangan.

AIR hamda PIR munosabatlarida Federal boshqaruvdagi qabilalar hududi (FBQH) bilan bog'liq bo'lgan muammolar saqlanib turibdi. Bu masalalarga pushtun omili, Afg'oniston-Pokiston chegarasi statusi, afg'on qochoqlari va transchegaraviy terrorizm kiradi.

Xususan, mazkur mamlakatlar tashqi siyosiy strategiyalarini ishlab chiqishda pushtunlar masalasi doim kun tartibida birinchi o'rinda turgan.

Ta'kidlash kerakki, FBQH yashovchi 4 mln. aholining 90% ni pushtunlar tashkil etadi⁴². Pushtunlarning umumiy soni 38 mln. kishini tashkil etib, ulardan 12,5 mln. Afg'oniston hududida, 25 mln. Pokistonda istiqomat qiladi⁴³.

Ikki davlatda yashovchi pushtunlarni birlashtiruvchi yagona «Buyuk Pushtuniston» davlatini qurishga intilishlar FBQHni notinch joyligicha saqlanib qolishiga sabab bo'lmoqda.

Shu bilan birga Afg'oniston va Pokiston munosabatlarida davlat chegaralarini belgilab olishda muammolar mavjud. Hozirgi vaqtda Britaniya Hindistoni va Afg'oniston tomonidan o'rnatilgan «Dyurand chizig'i» deb nomlanuvchi chegara Pokiston va Afg'onistonni bo'lib turadi.

Bu chegara to'g'risidagi kelishuv 1893 yil 12 noyabrda Qobul shahrida Afg'on amiri A.Rahmon va Britaniya Hindistoni vakili M.Dyurand tomonidan imzolangan.

Uning qonuniyligi masalasi ikki tomonning tortishuviga sabab bo'lib kelmoqda. Xususan, 1949 yilda afg'on Loyi Jirg'asi Dyurand chizig'ini noqonuniy deb e'lon qilgan⁴⁴. Afg'oniston hukumati «Pushtuniston kuni»ni milliy bayram deb e'lon qilib, bu qarorni qo'llab quvvatladi. 2003 yil 31 avgustda bu bayramni nishonlanishi ikki tomonlama munosabatlarda afg'on- pokiston chegarasi yana birinchi darajali ishga aylandi. Mazkur yilning iyulida chegara tumanlarida Afg'oniston va Pokiston xavfsizlik kuchlari o'rtasida qurolli to'qnashuvlar bo'lib o'tdi. Bu ish Qobuldagi Pokiston elchixonasida tintuv o'tkazishgacha yetib bordi⁴⁵.

2007 yil may oyida Islomobodning Afg'oniston chegarasida to'siq tizimini o'rnatish va mina maydonini qurishga harakati ikki tomon chegaralarning qurolli to'qnashuvi, juda o'tkir mojaroga olib keldi. Pokiston tomoni bu chora-

⁴² Силаев А. О территории племен федерального управления Пакистана. <http://www/iimes.ru/rus/stat/2008/23-10-08.html>

⁴³ Паничкин Ю. Образование Пакистана и пуштунский вопрос. – М.: Научная книга, 2005. – С. 43.

⁴⁴ Sammon R. Mullas and maliks: understanding the roots of conflict Pakistan's Federally administrated tribal areas. University of Pennsylvania. 2008

⁴⁵ Mahmood T. The Durand line: South Asia's next trouble spot. –Monterey.: Naval Postgraduate School, 2005

tadbirlarni transchegaraviy terrorizmni to'xtatish va «Tolibon» jangarilari harakatini bartaraf etishga yordam beradi deb hisoblamoqda. O'z navbatida afg'on hukumati birinchi o'rinda Afg'oniston va Pokiston chegarasida uzil-kesil demarkatsiya o'tkazishni talab qilgan. Biroq, chegaraning ikki tomonida ham davlatlar o'z chegaraviy nazorat qismlariga ega.

Bundan tashqari, PIR hududida katta miqdordagi afg'on qochoqlarining joylashganligi, mamlakat ichki xavfsizligiga, ayniqsa FBQHga jiddiy ta'sir ko'rsatyapdi. Qochoqlarning ishtiroki mintaqada jamoaviy munosabatlarning transformatsiyalashuviga va aholining iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotida aniq muammolarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

Mavjud qochoqlarga mamlakat byudjetidan qo'shimcha harajatlar qilinib, kontrabanda, ishsizlarning oshishiga va boshqa iqtisodiy muammolarning paydo bo'lishi kuzatilmoqda. Pokistonlik ekspertlar fikricha, Islomobod qochoqlarni saqlash uchun har kuni 500 ming AQSH doll. atrofida mablag' sarflaydi, shuningdek, 1986 yil 175000 pokistonlik fuqaro qochoqlar bilan ishlashda band bo'lgan (ta'lim sohasida 46, sog'liqni saqlash va b.)⁴⁶. Shu bilan bir vaqtda, qochoqlar ishlari bo'yicha BMT Oliy Boshqaruv komissarligi va donor davlatlar Pokistonga asta-sekin yordamni qisqartirishmoqda: 1980 yillar boshida 109 mln. AQSH doll. tashkil qilgan bo'lsa, hozirda bu 4 mln.doll.ga teng⁴⁷.

2006 yil oktyabr 2007 yil aprelda o'tkazilgan aholini ro'yhatga olish natijalarga ko'ra, PIRda umumiy qochoqlar soni 2,153 mln. kishi, shuningdek, FBQHda ularning soni 1,5mln.ga yaqin, ya'ni aholining 30%ga yaqinini tashkil etgan. Bu hududda deyarli 20 yildan beri qochoqlarning 80%i yashaydilar, ularning 56%i 18 yoshdan kichik va bu yoshlarning 45%i shu yerda tug'ilganlar.

Ta'kidlash kerakki, qochoqlarning 70% dan ko'prog'i savodsiz va asosan malakasiz ishchi sifatida faqat 20% doimiy ish o'rniga ega. Ular arzon ishchi kuchi hisoblanishgan va hududda ishsizlar sonining oshishiga sabab bo'ldi, natijada,

⁴⁶ Хан Н. Пакистан и афганский кризис (1978-1988 гг.). Дис. на соискание уч. ст. канд. ист. наук. –Т.: 1997

⁴⁷ UNHCR. Searching for solutions: 25 Years of UNHCR – Pakistan cooperation on Afghan Refugees. Islamabad Pakistan. June 2005.; Afghan refugees not responsibility of Pakistan alone: Fehmida. 24.07.2008.<http://dailymailnews.com/200807/24/news/dmcitypage07.html>

FBQHda yashovchi aholisi orasida 1980-1990 yillarda mehnatkashlar migratsiyasi kuzatildi, asosan, neft ishlab chiqaruvchi mamlakatlar- Fors qo'ltig'i davlatlariga. Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, migrantlar pul ko'chirishi yiliga 2 mlrd.ga yaqin AQSH doll.ni tashkil etgan.

Shu bilan birga, pokistonlik ekspertlar fikricha, narkotik kontrabandasida afg'on qochoqlari faol ishtirok etadilar. Shuningdek, BMTning narkotiklar va jinoyatchilikka qarshi kurash boshqarmasi direktori Antonio Mariya Kosti fikricha, Afg'onistonda ishlab chiqarilgan opiumning 80%ga yaqini Pokiston va Eron orqali eksport qilinadi.

Bundan tashqari, toza ichimlik suvining yetishmasligi, qo'y va chorva mollar uchun yaylov, shuningdek, taom tayyorlash uchun o'tin, uy-joylarni isitish, FBQH uchun doim muhim muammo bo'lib kelgan. Bunday qochoqlarning qo'y va chorva mollar bilan ko'chishi vaziyatni yanada og'irlashtirgan. Hozirgi vaqtda o'rmonlarning, yaylovlarning qisqarishi atrof-muhitni vayron bo'lishiga xavf tug'dirmoqda.

Aytish joizki, Pokistondagi pushtun qabilalarining ijtimoiy hayotida afg'on qochoqlarining ta'sirida bir qator o'zgarishlar sodir bo'ldi, ya'ni mulla- yangi boshqaruv elitasi shakllanishiga, shuningdek, jamiyatda keski chora-tadbirlarni amalga oshirishga - islom rolining kuchayishiga, sunniylar va shialar qarama-qarshiligining oshishiga olib keldi. Xususan, chegaraning ikki tamonida pushtunlar yashashadi, AQSH Kongressining tadqiqot xizmati ma'lumotlariga muvofiq, ular qochoqlar orasida 81%ni tashkil etadi⁴⁸.

Ekspert Silayev A. ta'kidlashicha, Pokistondagi 80% dan ortiq afg'on qochoqlar o'z vatanlariga qaytishni xohlashmaydilar. Chunki ular o'zlari moslashgan joyni tashlab, yashash sharoiti qiyin bo'lgan tarixiy vatanlariga borishdan ko'ra PIRda qolishni ma'qul ko'radilar⁴⁹.

⁴⁸ Afghan Refugees: Current Status and Future Prospects. CRS report for Congress. 26.01.2007

⁴⁹ Силаев А. Афганские беженцы в Пакистане. <http://www.iimes.ru/rus/stat/2007/20-07-07.html>

Yuqorida keltirib o'tilganlardan tashqari, ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlar terrorizm muammosi bo'yicha ham keskinlashayotganligini ko'rish mumkin.

Qayd qilmoq kerakki, 2006 yil sentyabrda davlat rahbarlarining Vashingtonga tashrifi chog'ida, mintaqada barqarorlik va tinchlikni ta'minlash masalasini qabila liderlari birgalikda muhokama qilish uchun, ikki davlat pushtun qabilalarining Katta jirg'asini hamkorlikda o'tkazish kelishuvi ilgari surilgandi. Ushbu kelishuvga muvofiq, 2007 yil 9-11 avgust kunlari Qobulda Afg'oniston-Pokiston jirg'asi bo'lib o'tdi. Lekin FBQH qabila vakillari, shuningdek Jamiyat Ularo-yelom (Jamiat Ulema- e-Islam) diniy partiyasining nufuzli lideri F.Rahmonning unda qatnashish istagini bildirmaganligi, uning natijasiz xotima topishiga sabab bo'ldi.

Shu bilan birga, Afg'oniston hukumatining terrorizmga qarshi kurashda Islomobod bilan hamkorlik amalga oshishiga ishonchsizlik bilan qarab, uni tez-tez terroristlarni qo'llab-quvvatlashda aybladi. Xususan, Afg'on tomon FBQHdagi terroristik guruhlar va ekstremistlar bilan Pokiston o'rtasida tinchlik kelishuviga bo'lishiga hamisha qarshi edi. Jumladan, AIR tashqi ishlar vaziri R.Spanta 2008 yil 5 iyunda PIR tashqi ishlar vazirligi rahbari M. Kureyshiy bilan uchrashuvda Islomobodning toliblar bilan kelishuvini muhokama qildi. Uning so'zlariga ko'ra, tinchlik kelishuvlaridan so'ng, Afg'onistonda terroristlarning faolligi bir necha bor oshgan⁵⁰.

Umuman olganda, AIR va PIRning ikki tomonlama o'zaro hamkorligining muammolari, asosan FBQH bilan bog'liqligini, deyarli hamma vaqt dolzarbligicha qolayotganligini aytish mumkin. Pushtunlarda afg'on tomoniga nisbatan millatchilik qarashlari va birdamlikni his qilishning saqlanganligi, shuningdek, chegaraning delimitatsiya va demarkatsiya masalalarining yechilmaganligi davlatlar o'rtasida uzoq muddatli muammoligicha qolmoqda. Shu bilan birga, katta miqdordagi afg'on qochoqlari ishtiroki bilan bog'liq bo'lgan, iqtisodiy, siyosiy va

⁵⁰ Глава пакистанского МИД: мы не против переговоров с Хекматияром <http://www.afghanistan.ru/doc/12233.htm>

ijtimoiy muammolar, bundan tashqari ushbu hududda terroristik tashkilotlarning joylashganligi tez-tez mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlarda tortishuvning kuchayishiga sabab bo'lmoqda.

AQSH omili:

Jumladan, AQSH 2001 yil sodir etilgan terroristik aktlardan so'ng, AIRga o'z qo'shinlarini kiritdi va Afg'onistondagi siyosiy jarayonlarga ta'sir etuvchi asosiy tashqi kuchga aylandi. Shuningdek, AQSH Xavfsizlikka ko'maklashuvchi xalqaro kuchlar tomonidan o'tkaziladigan yirik harbiy operatsiyalarda ham yetakchilik qilmoqda. Buni ISAF tomonidan o'tkazilgan «Anakonda», «Axiless», «Mushtarak» va boshqa shu kabi yirik harbiy operatsiyalarda ko'ramiz. Ayni vaqtda amerikalik general A. Makkristal Afg'onistondagi AQSH, ISAF va NATOning harbiy kuchlariga qo'mondonlik qilmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, AQSH J.Bush davrida asosiy e'tiborni harbiy harakatlarga qaratilgan bo'lsa, B.Obama davrida esa nafaqat harbiy balki, muzokara jarayonlariga, Afg'onistonga iqtisodiy yordam berishga hamda korrupsiyaga qarshi kurashishga alohida e'tibor qaratmoqda. AQSH prezidentining 2009 yil 27 marta Afg'oniston bo'yicha qabul qilgan strategiyasida tolibonlar bilan muzokaralar olib borish jarayoniga alohida urg'u berib o'tilgan.

XXI asrga kelib AQSH va AIRning ikki tomonlama munosabatlarida harbiy-texnik, iqtisodiy va korrupsiya sohalarida hamkorlik qilishi ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Avvalo, bu ikki davlat munosabatlariga to'xtalsak, 1800 yillarda yo'lga qo'yilgan bo'lib, 1940 yilda AQSHning Qobuldagi rasmiy elchixonasi o'z faoliyatini boshladi. 1950 yilga kelib AQSH Afg'onistonda avtomobil yo'llari, to'g'onlar va elektr stansiyalari qo'rish bo'yicha iqtisodiy dastur qabul qildi. Sovet qo'shinlari xujumi davrida AQSH Afg'onistonga 3 mlrd. AQSH doll. miqdorida harbiy va iqtisodiy yordam berdi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, so'nggi yillarda davlatlararo munosabatlarda harbiy-texnik sohadagi hamkorlik masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

AIR mudofaa vaziri Abdurahim Vardakning soʻzlariga koʻra, AQSH hukumati 2008 yilda afgʻon milliy armiyasini (AMA) modernizatsiya qilish uchun 3 mlrd. doll., afgʻon milliy politsiyasi tarkibini yaxshilash uchun 1 mlrd. doll. ajratgan. 2008 yili 50 ming oʻq otar qurollar va 4 ming bronetransportyorlar yetkazib berdi.

Hozirgi vaqtda amerika-afgʻon iqtisodiy munosabatlarida Afgʻoniston xalq xoʻjaligini tiklash boʻyicha loyihalarni amalga oshirish asosiy yoʻnalish boʻlib qolmoqda. Afgʻoniston savdo vazirligining maʼlumotiga koʻra, 2007-2008 moliyaviy yilida AIRning tashqi savdo aylanmasi 5,18 mlrd. doll.ni tashkil etgan boʻlib, shundan 536,8 mln. doll. (2006-2007 moliyaviy yilida 450 mln. doll) AQSH hissasiga toʻgʻri kelgan. 2005-2007 yillarda Afgʻoniston va Tojikiston oʻrtasidagi 800 metrlik koʻprik qurilish loyihasi AQSH hukumati tomonidan moliyalashtirildi (37 mln. doll). Bugungi kunda AQSHning 68 ming nafar harbiy xizmatchilari Afgʻonistondagi harbiy operatsiyalarda ishtirok etmoqda. Oq uy boshligʻining 2009 yilning oxirlarida qabul qilgan yangi strategiyasiga binoan Afgʻoniston hududiga 2010 yilning birinchi yarmi qadar yana qoʻshimcha 30 ming nafar harbiy xizmatchini kiritish koʻzda toʻtilgan. Bu tashabbusning amalga oshishi uchun faqat 2009 yilning oʻzidagina 30 mlrd. AQSH doll. talab etiladi. AQSH hukumati 2008 yilda Afgʻonistondagi harbiy kontingentga, afgʻon milliy armiyasini va qurolli kuchlarini rivojlantirish uchun 31 mlrd. doll. miqdorida mablagʻ sarflagan. AQSH Kongressi 2009 yilda Afgʻonistondagi harbiy operatsiyalar uchun 32 mlrd. doll. ajratgan⁵¹.

AQSH hukumati 2001-2008 yillarda Afgʻonistondagi elektr taqsimlovchi tarmoqlar va avtomobil yoʻllari qurilish uchun 2,6 mlrd. doll. ajratdi. Helmand daryosidagi «Kajak» gidroelektrostansiyasini qayta tiklab ishga tushirish ham amerikaliklar tomonidan qoʻllab-quvvatlandi.

Bundan tashqari, 2007 yilda Afgʻoniston energetika va suv resurslari vazirligi bilan Amerikaning «Sutron» korporatsiyasi va «VICC» qurilish kompaniyalari

⁵¹ Борисов Д. США наращивают воинский контингент в Афганистане.
<http://www.rus.ru/2009/11/29/2445509.html>

o'rtasida meteorologiya stansiyasini qurish bo'yicha shartnoma imzolandi. Bu loyiha Jahon banki tomonidan moliyalashtirilgan va hozirda qurilish ishlari boshlab yuborilgan.

Ayni vaqtda AQSH va AIR o'rtasida korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha birgalikda hamkorlik qilish tomonlar uchun manfaatli hisoblanmoqda. 2009 yilda H.Karzay saylovda g'olib chiqqandan so'ng, hukumat oldiga asosiy vazifalardan biri korrupsiyaga qarshi kurashish ekanligini belgilab berdi. Uning so'zlariga ko'ra, korrupsiya Afg'onistonni barqarorlashtirish va rivojlantirish uchun asosiy tahdid hisoblanadi. Bu fikrni rasmiy Vashington ham ta'kidlamogda va uning bu tashabbusini qo'llab-quvvatlamogda.

AIR Ichki ishlar vaziri Hanif Atmarning Qobuldagi matbuot-konfrensiyasida bergan bayonotiga ko'ra, Afg'oniston hukumati yangi, korrupsiyaga qarshi kurashadigan alohida idora tashkil etmoqda. Bu idora o'z lavozimini suiste'mol qilgan afg'on hokimiyatining yuqori mansabdor shaxslari faoliyati ustidan nazorat olib boradi. U o'z faoliyatini amalga oshirishda AQSHning Federal tergov byurosi bilan hamkorlik qiladi⁵².

Umuman olganda, AQSH Afg'onistondagi ichki siyosiy vaziyatga ta'sir etuvchi asosiy tashqi kuch hisoblanadi. Bugungi kunga kelib, amerika-afg'on munosabatlarinnig asosini esa harbiy-texnik sohada afg'on harbiylarini AQSHning moddiy tomondan qo'llab-quvvatlashi, iqtisodiy sohada Afg'oniston xalq xo'jaligini tiklash bo'yicha loyihalarni amalga oshirish va korrupsiyaga qarshi birgalikda kurashish tashkil qilmoqda.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, ikki davlat o'rtasida munosabatlarda harbiy-texnik, iqtisodiy va korrupsiya sohalarida hamkorlikning rivojlanishi Afg'oniston uchun manfaatli hisoblanadi.

Hindiston omili:

Hindiston Afg'onistonga iqtisodiy yordam berib kelmoqda. Masalan, eron – afg'on chegarasidagi «Zaranj – Dilorom» yirik avtomobil yulini qurishda ishtirok

⁵² Новое подразделение по борьбе с коррупцией создается в Афганистане. <http://www.vz.ru/news/2009/11/16/349244.html>

etmoqda. Bu yo‘l afg‘on biznesmenlarining transport imkoniyatini kengaytiradi. Gumanitar, ta‘lim sohalarida ham yordam berib kelmoqda. Bundan tashqari, Afg‘onistondagi siyosiy jarayonlarda ham ishtirok etmoqda. Bugungi kunga kelib AQSH ham Hindistonning Afg‘onistondagi bo‘layotgan jarayonlarda ishtirok etishi tarafdoridir. B.Obamaning 2009 yil 27 martda qabul qilgan strategiyasida ham Hindistonni bu jarayonlarda ishtirok etishga taklif qilgan⁵³.

Eron omili:

SHHTga ko‘zatuvchi bo‘lgan Eronning Afg‘oniston munosabatlariga alohida to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki Eronning afg‘on siyosati o‘zgargan. Oldin Eron Afg‘onistondagi beqarorlikdan manfaatdor bo‘lgan. Bunga ko‘plab misollar keltirish mumkin.

Jumladan, sobiq Sovet Ittifoqining qo‘shinlari Afg‘onistonda bo‘lgan davrda vaziyatni beqarorlashtirib turish maqsadida o‘z hududidan mujohidlarga harbiy lagerlar ajratib bergan va ularni moliyaviy jihatdan qo‘llab turgan. Bunga asosiy sabablardan biri belujiylar omili. Pokistonning Belujiston provinsiyasida taxminan 8,0 mln., Eronning Seyiston va Belujiston provinsiyasida 5 mln. atrofida, Afg‘onistonning Nimruz, Qandahor va Gilmend provinsiyalarida esa 2 mln. ga yaqin belujiylar istiqomat qiladi. Agar Afg‘onistonda vaziyat barqarorlashsa belujiylarning separatistik harakati kuchayishi Eronni tashvishga solib kelgan. Lekin 2001 yil 1 sentyabr voqealaridan so‘ng, AQSH boshchiligidagi xalqaro koalitsion kuchlarning Afg‘oniston hududida qurolli operatsiyalarin amalga oshirishi Eronni yanada tashvishga solib quydi. Chunki Eron antiamerikacha siyosat yuritib kelmoqda. AQSH harbiylarining esa Eron chegarasida joylashishi bu Eronning manfaatiga to‘g‘ri kelmaydi.

Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, bugungi kunga kelib Eron va Afg‘oniston o‘rtasida munosabatlar rivojlanish tendensiyasiga ega. Jumladan, afg‘on importining 10 %i Eron ulushiga to‘g‘ri keladi.

⁵³ Махмудов Р. Перспективы экономического сотрудничества в рамках ШОС и его влияние на региональную стабильность // Материалы международной конференции. – Т.: 2008. - С.275–276

Eron Afg'oniston bilan quyidagi asosiy yo'nalishlarda hamkorlik olib bormoqda⁵⁴ :

- Afg'onistonda tinchlikni saqlash va yangi urushning oldini olish;
- Afg'onistonni qayta tiklash maqsadida eron va afg'on bozorlaridan foydalanish;
- Afg'onistonni qayta tiklash uchun afg'on qochoqlarini o'z mamlakatiga qaytarishga ko'maklashish;
- narkotik moddalar noqonuniy aylanishiga qarshi ko'rash va b.

Shu kungacha Eron AIRni qayta tiklash jarayoniga 250 mln. AQSH doll. miqdorida mablag' ajratgan.

Ta'kidlash kerakki, ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar rivojlanib bormoqda.

2008 yil mart oyidan 2009 yilning mart oyiga qadar bu ikki davlat o'rtasidagi tovar aylanish hajmi 800 mln. AQSH doll.ni tashkil qilgan⁵⁵ .

Eron va Afg'oniston o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarda AIRda energetik va transport loyihalarini amalga oshirish ustivor ahamiyat kasb etmoqda. Ayni vaqtda Mashhad va Hirot yo'nalishidagi temir yo'l qurilishi amalga oshirilmoqda.

Umuman olganda, hozirgi kunga kelib Eron va Afg'oniston o'rtasidagi munosabatlarda iqtisodiy sohada hamkorlik qilish ustivor ahamiyat kasb etmoqda.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Afg'onistondagi siyosiy jarayonlarga mintaqa va dunyodagi yetakchi davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar ta'sir etmoqda. Afg'onistonga qo'shni bo'lgan Eron va Pokiston AIRdagi vaziyatni beqarorlashtirish bo'yicha siyosat olib borgan bo'lsa, bugungi kunga kelib Afg'onistondagi beqaror vaziyat manfaatiga to'g'ri kelmaydi. Shu sababli bu ikki davlat ham afg'on muammosini tartibga solish jarayonida ishtirok etmoqda.

Bundan tashqari bu omillar nafaqat harbiy-siyosiy, balki iqtisodiy jihatdan ham ta'sir etib kelmoqda. Tashqi iqtisodiy omil ta'sirini Afg'oniston

⁵⁴ Куртов А. Безопасность Центральной Азии и роль ОДКБ // Материалы международной конференция «Афганистан и региональная безопасность: пять лет после Талибана». Выпуск III (11-12 декабря 2006 г.). - Бишкек, Душанбе, 2006. - С.263

⁵⁵ Столповский О. Иран и Афганистан: больше, чем соседи. <http://www.easttime.ru/analitic/2/13/698.html>

iqtisodiyotinig tashqi moliyaviy yordamga to'raligicha bog'lanib qolganligida ko'rish mumkin. Afg'onistonga tashqi siyosiy omilning ta'sirini esa H.Karzay hukumati o'zligi bilan ifodalash mumkin.

NATO omili:

Afg'onistonning to'qqiz yillik xalqaro terrorizmga qarshi ko'rashish koalitsiyasi kampaniyasi tarixi shuni ko'rsatmoqdaki, shu kunga qadar AIRda tolibonlar vaxalqaro terroristik tashkilotlarning jangarilariga G'arbning strategiyasi bo'yicha qarshi ko'rishib kelinmoqda.

2001 yil 11 sentyabrda AQSHda sodir etilgan terroristik hurujlardan so'ng, AQSH va Yevropa terrorizm tahdidiga birgalikda ko'rashish uchun birlashishdi. Jumladan, 2002 yil NATOga a'zo davlatlar Vashington shartnomasining 5-moddasiga muvofiq, bir-biriga o'zaro yordam berish maqsadida, sodir etilgan terroristik aktlar nafaqat, AQSHga balki butun G'arbg qilingan tahdid deb qabul qilindi⁵⁶.

2003 yil avgustida NATO Afg'onistonda afg'on hukumatiga yordamberish orqali xavfsizlikni ta'minlash majburiyatini o'z zimmasiga oldi. Masalan, ayni paytda Afg'onistonda AQSHning 68 ming askari hamda NATOga a'zo mamlakatlar va ularning sheriklaridan 37952 ming harbiy xizmatchilar joylashtirilgan⁵⁷. NATO kuchlari mamlakatning taxminan 85 foizini qamrab olgan. Rejaga binoan Afg'onistonda Ittifoqning ustivor yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- mamlakatning barcha hududi ustidan nazorat o'rnatishda afg'on hukumatiga yordam berish;
- NATO ta'siri ostidagi hududlarda afg'on harbiylashgan bo'linmalari bilan hamkorlikda xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan operatsiyalarni o'tkazish;
- afg'on milliy armiyasiga jangovar shayligini ta'minlashda ko'mak berish;

⁵⁶ Ван Х, Куглер Л. Единство Запада и трансатлантическая безопасность перед лицом испытаний // Публикация Центра Дж. Маршала, 2002, № 4. – 2002. - С.5.

⁵⁷ Борисов Д. США наращивают воинский контингент в Афганистане. <http://www.rus.ru/rv.ru/2009/11/29/2445509.html>

- qurollangan jangari toʻdalarini qurolsizlantirish borasidagi afgʻon hukumati loyihalarini qoʻllab-quvvatlash va h.k.

NATO operatsiyasi doirasida besh mintaqaviy qoʻmondonlik tuzilib, alyansga aʻzo mamlakatlarning harbiy boʻlinmalari quyidagi tartibdajoylashgan: «Shimol» - Germaniya, «Gʻarb» - Italiya, «Janub» - Britaniya, «Sharq» - AQSH, «Markaz» - Fransiya.

Shuningdek, Afgʻonistonda jangarilarga qarshi koalitsion kuchlar tomonidan oʻtkazilayotgan harbiy operatsiyalarga NATO qoʻmondonlik qilmoqda.

Bugungi kunga kelib, NATO va Yevropa Ittifoqi (YEI) afgʻon hukumati qoʻshinlariga qurol-yaroq yetkazib berishni rejalashtirmoqda. Shuningdek, NATOning afgʻon harbiy-havo kuchlarini tashkil etish va shakllantirish boʻyicha mavjud boʻlib, unga binoan Afgʻonistonga 300 ta yangi vertoletlar yetkazib beriladi. Dastur doirasida yaqin yillar ichida 100 ta vertolet bilan taʼminlash rejalashtirilmoqda. 2009 yilning yakunida NATO afgʻon milliy armiyasiga 200 ta atrofida BTR yetkazib bergan⁵⁸.

Shuni alohida taʼkidlash kerakki, ayni vaqtda NATOga aʻzo davlatlar oʻrtasida afgʻon muammosi boʻyicha konfliktlar va bahslar kelib chiqmoqda. Asosiy bahslar xavfli hudud hisoblangan janubda davlatlarning qoʻshinlarini joylashtirish masalasi boʻlmoqda. Jumladan, AQSH oʻz ittifoqchilarini Afgʻonistonda qoʻshinlarini sonini ortirishni va ularni janubga joylashtirishga undagan. Fransiya, Germaniya va baʼzi Gʻarbiy Yevropa davlatlari bu undashga eʼtiborsizlik bilan qaragan. Asosiy qarama-qarshilik Germaniya va uning ittifoqchilari oʻrtasida boʻlmoqda. Nemislar oʻz qoʻshinlarini harbiy operatsiyalarda ishtirok etishiga qarshilik bildirmoqda. Ular faqat afgʻon milliy armiyasini shakllantirishda, yoʻllar, maktablar va kasalxonalar qurishda ishtirok etishini taklif qilmoqda. AQSH va Kanada Germaniyaning bu pozitsiyasini qoralamoqda.

⁵⁸ Камалова З. Участие ЕС в процессе восстановления Афганистана // Материалы международной конференции. – Т.: 2008. - С.236.

Umuman olganda, NATO Afgʻonistondagi siyosiy jarayonlarga taʼsir etuvchi asosiy kuch hisoblanadi. Shu oʻrinda aytish joizki, NATOning ichida ham ittifoqchilar oʻrtasida baʼzi bir kelishmovchiliklar kelib chiqmoqda.

SHHT omili:

SHHT doirasida mintaqa barqarorligiga iqtisodiy hamkorlikning taʼsiri haqida gapirganda Afgʻonistondagi vaziyatga toʻxtalmay oʻtish mumkin emas. SHHTga aʼzo davlatlar Afgʻoniston bilan bitta mintaqada joylashgan.

SHHTga aʼzo davlatlar bu mamlakatdagi vaziyat barqarorligidan manfaatdor, chunki AIRdagi vaziyat tashkilotning xavfsizlik va iqtisodiy manfaatlariga bevosita taʼsir qiladi. Shu oʻrinda taʼkidlash kerakki, SHHTga aʼzo va koʻzatuvchi davlatlar Qobul bilan savdo-iqtisodiy rivojlantirishda asosiy tayanch boʻladi.

SHHTga aʼzo va koʻzatuvchi davlatlar Afgʻoniston iqtisodini rivojlantirishga yordam berishda birinchi navbatda afgʻon aholisini ish bilan taʼminlashga alohida eʼtibor berishi kerak boʻladi. Shuni hisobga olish kerakki, afgʻon aholisining ishsizligi va kam daromad topishi tolibonlar va «Al-Qoida» terroristik tashkilotiga qoʻshilib ketishiga, shuningdek, narkotik bilan shugʻullanishiga asosiy sabab boʻlmoqda.

Shuni alohida taʼkidlash kerakki, Shanhay Hamkorlik tashkiloti (SHHT) doirasida tashkil etilgan «SHHT+Afgʻoniston» aloqa guruhinnig ham vazifasi AIRdagi vaziyatni boshqarib borishga qaratilmoqda.

Jumladan, bu aloqa guruhi 2005 yil 4 noyabr kuni SHHTning«SHHT+Afgʻoniston» aloqa guruhini tashkil etish toʻgʻrisidagi bayonnomaning imzolanishi bilan tashkil etilgan. Aloqa guruhining asosiy maqsadi va vazifasi mintaqada barqarorlik va xavfsizlik, tinchlikni mustahkamlash boʻyicha hamkorlikni kengaytirish hamda oʻzaro ishonch, doʻstlik va hamkorlikni kuchaytirish. Bu guruhning takliflari juda yaxshi ishlab chiqilgan va ikki tomonning ham oʻzaro manfaatlarini amalga oshirish boʻyicha tavsiyalar berilgan. Ekspertlarning fikriga koʻra aloqa guruhi mintaqa davlatlari oʻrtasida hamkorlikni rivojlantirish, tinchlik va barqarorlikni taʼminlash boʻyicha muhim tarixiy qadam boʻlgan. Qirgʻizistonning Issiq-Kul viloyatida «Markaziy Osiyoda geosiyosat va

xavfsizlik, SHHT va Afg'oniston» deb nomlangan halqaro konferensiyada ham Afg'oniston Prezidenti Hamid Karzay o'z nutqida AQSH va boshqa barcha g'arb davlatlarining Afg'onistondagi faoliyati muvaffaqiyatsiz bulayotganligi sababli SHHTga a'zo davlatlar Afg'onistonda faol ishtirok etishi zarurligini ta'kidlab o'tgan.

Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Dmitriy Medvedev 2009 yil 27 mart kuni Moskvada SHHTning Afg'oniston bo'yicha bo'lib o'tgan konferensiyasida bir necha yil moboynida «SHHT+Afg'oniston» aloqa guruhi afg'on chegaralarida umumiy tahdidlarga qarshi kurashish bo'yicha Afg'oniston bilan hamkorligi rivojlanib borayotganligini ta'kidlab o'tgan.

Bundan tashqari, SHHTga a'zo va ko'zatuvchi ba'zi davlatlarning Afg'onistonga ko'rsatayotgan quyidagi yordamlarini ajratib ko'rsatish mumkin⁵⁹ :

Jumladan, O'zbekiston Afg'onistonning shimoliy provinsiyalariga elektr energiya yetkazib beradigan asosiy davlatdir. Hozirgi kunga kelib chegara hududida «Hayraton» va «Surxon» podstantsiyalarini qurib elektr energiya yetkazib berish hajmini yanada oshirdi. O'zbekiston hududi orqali turli noharbiy yuklar tranzit qilinmoqda. Shuningdek 2009 yilda qurilishi boshlangan «Termiz – Hayraton – Mozori Sharif – Hirot» yo'nalishida temir yo'li qurilishi (2004-2015 yy. ga mo'ljallangan) davom etmoqda. Ayni vaqtda mazkur loyiha «Hayraton – Mozori Sharif» yo'nalishida O'zbekiston tomoni Osiyo taraqqiyot banki tomonidan ajratilgan 165 mln. AQSH. doll. miqdoridagi grant asosida qurilish ishlarini boshlab yuborgan. Ushbu qurilish ishlari 2011 yilning iyun oyida tugatilishi rejalashtirilgan. Termiz– Hayraton – Mozori Sharif –Hirot temir yo'lining ishga tushishini ham AIRdagi vaziyatni tartibga solishdagi vositalardan biri deb hisoblasa maqsadga muvofiq bo'ladi⁶⁰ .

Qozog'iston «Qunduz – Talukon» avtomobil yo'lini tiklash loyihasiga 2 mln. AQSH doll. miqdorida qaytmaydigan moliyaviy yordam bergan. Shuningdek,

⁵⁹ Махмудов Р. Перспективы экономического сотрудничества в рамках ШОС и его влияние на региональную стабильность // Материалы международной конференции. – Т.: 2008. - С.275–276

⁶⁰ Узбекистан построит железную дорогу в Афганистане. <http://www.mytashkent.uz/2009/10/05/uzbekistan-postroit-zheleznuyu-dorogu-v-afganistane>

Xavfsizlikka ko‘maklashuvchi xalqaro kuchlar tarkibida nokombatantlari faoliyat yuritmoqda⁶¹.

Xitoy Afg‘onistonga oziq – ovqat mahsulotlarini gumanitar yordam sifatida berib kelmoqda (2009 yilda 4,4 ming tonna don mahsuloti). Xitoy hukumati 2002 yilda afg‘on hukumatiga urushdan keyingi tiklash jarayonlari uchun 150 mln. doll. miqdorida mablag‘ ajratish to‘g‘risida qaror qabul qilgandi. Shuningdek, ayni vaqtda Xitoy kompaniyalari Afg‘oniston iqtisodiyotiga yirik investitsiya kiritmoqda. Jumladan, Xitoyning «China Metallurgical Group» kompaniyasi Aynakda joylashgan Yevroosiyoda mis zaxirasi bo‘yicha ikkinchi o‘rinda turadigan loyihani tender asosida yutib olgan. Xajigakdagi temir rudalar qazib olish bo‘yicha loyihalarida ham Xitoyning bir nechta kompaniyalari ishtirok etmoqda⁶².

1-bob bo‘yicha xulosalar. Xulosa sifatida quyidagilarni alohida ajratib ko‘rsatish mumkin:

Birinchidan, yuqoridagi harbiy aralashuvning uchala bosqichida ham «Katta o‘yin»ning raqiblari bir tomondan bevosita harbiy harakatlarni olib borgan bo‘lsa, boshqasi unga qarshi afg‘on qarshilik kuchlariga yordam ko‘satgan.

Ikkinchidan, Afg‘onistonda harbiy harakatlar olib borgan buyuk davlatlarning hech biri g‘alaba qozona olmagan. Shu bois, afg‘onshunos olimlar «Afg‘oniston – imperiyalar qabristoni» deb bejizga aytmagan.

Uchinchidan, Afg‘oniston qadim tarixdan bir qancha yirik imperiyalarning bosqinchilik obyekti bo‘lib kelganligi uning geostrategik hudud ekanligidan dalolat beradi. Buni ayni vaqtda dunyoda gegemonlikka intilayotgan davlatlarning harbiy bazalarining mavjud ekanligi bilan ham isbotlash mumkin. Hozirgi vaqtda Markaziy Osiyo o‘z tarixida birinchi bor har xil mo‘ljalli mamlakatlarning harbiy kuchlari bir-biridan xavfli yaqinlikda joylashgan zonaga aylandi. Bu holat mintaqa atrofida bloklar qarama-qarshiligi vujudga kelishiga zamin hozirlaydiki, bu mintaqa uchun juda xavflidir.

⁶¹ Махмудов Р. Перспективы экономического сотрудничества в рамках ШОС и его влияние на региональную стабильность // Материалы международной конференции. – Т.: 2008. - С.275–276

⁶² Ўша жойда

To'rtinchidan, ilgari Markaziy Osiyo xalqlari davlatlar o'rtasidagi geosiyosiy bellashuvning o'ziga xos «sovrini», passiv subyektlari hisoblangan bo'lsa, bugungi kunda ular strategik jarayonlarning faol ishtirokchilariga aylanmoqda. Xususan, o'zbekistonlik ekspert Rustam Mahmudovning ta'kidlashicha, «Afg'oniston yaqin kelajakda «Katta o'yinning» o'qi sifatida AQSH va NATO hamda Rossiya, Markaziy Osiyo davlatlari, Pokiston, Eronning Yevroosiyoga oid siyosatida juda muhim rol o'ynaydi»⁶³.

Beshinchidan, Afg'onistonda hozirgi vaqtgacha davom etayotgan «Katta o'yin»ning «sahnasi» bo'lgan harbiy harakatlar tahlilining ko'rsatishicha, urushning yakun topishi yaqin kelajakda yuz bermaydi. Shu o'rinda ingliz adibi va sayyohi R. Kiplingning «Qachonki hamma o'lsa, faqat shundagina Katta o'yin tugaydi, undan oldin emas» degan fikrini qayd etish joiz.

Umuman olganda, SHHTning Afg'onistondagi jarayonlarga aralashishini rasmiy hukumat ham qo'llab-quvvatlamogda. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Afg'onistondagi siyosiy jarayonlarga mintaq va dunyodagi yetakchi davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar ta'sir etmoqda. Afg'onistonga qo'shni bo'lgan Eron va Pokiston AIRdagi vaziyat beqarorlashtirish bo'yicha siyosat olib borgan bo'lsa, bugungikunga kelib afg'onistondagi beqaror vaziyat manfaatiga to'g'ri kelmaydi. Shu sababli bu ikkidavlat ham afg'on muammosini tartibga solish jarayonida ishtirok etmoqda.

Bundan tashqari bu omillar nafaqat harbiy – siyosiy balki iqtisodiy jihatdan ham ta'sir etib kelmoqda. Tashqi iqtisodiy omil ta'sirini Afg'oniston iqtisodiyotining tashqi moliyaviy yordamga to'laligicha bog'lanib qolganligida ko'rish mumkin. Afg'onistonga tashqi siyosiy omilining ta'sirini esa H.Karzay hukumati o'zligi bilan ifodalash mumkin.

⁶³ Махмудов Р. «Большая игра» в сердце Центральной Евразии: новый виток конкуренции // Центральная Азия и Кавказ, 2009, N 3. С.66.

II BOB. ICHKI VA TASHQI OMILLARNING AFG‘ONISTON IJTIMOIY - SIYOSIY HAYOTIGA TA’SIRI

2.1 XX asr oxiri XXI asr boshida Pokistonning Afg‘onistondagi ichki siyosiy vaziyatga ta’siri

Afg‘onistondagi siyosiy vaziyatni barqarorlashtirish mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq O‘zbekiston tashqi siyosati oldida turgan eng muhim masalalar sirasiga kiradi. U nafaqat O‘zbekiston milliy xavfsizligiga, balki Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik va barqarorlikka bevosita daxl soluvchi xalqaro munosabatlar tizimidagi eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Shu bois, Afg‘onistondagi ichki siyosiy muammolarning kelib chiqish sababini va unga tashqi kuchlar aralashuvi yo‘li bilan hal qilish shart-sharoitlarini tadqiq qilish muhim hisoblanadi.

Sovet qo‘shinlari mag‘lubiyatga uchrab, 1988 yilning 15 mayidan harbiy qism va bo‘linmalari olib chiqib ketila boshlandi va 1989 yilning 15 fevralida oxirgi soldati Afg‘onistonni tark etdi. Sovet-afg‘on urushi natijasida 19000 sovet askarlari va behisob afg‘on askarlari va tinch aholi qurbon bo‘ldi. Afg‘onistonda davom etgan 10 yillik urush mamlakat iqtisodiyotiga ulkan zarar yetkazdi. Yuzlab qishloqlar, 2 ming maktab vayron etildi, o‘nlab elektrostansiyalar buzib tashlandi, o‘nlab sanoat korxonalari faoliyati to‘xtab qoldi. Bundan tashqari, bu urush SSSRdagi iqtisodiy va siyosiy inqirozning jadallashishiga, SSSRning parchalanishiga va kommunistik rejimning barbod bo‘lishiga ham sabab bo‘ldi. Eng ayanchlisi, o‘sha davrda mamlakat aholisining qariyb choragini tashkil etgan 5 million afg‘on qo‘shni Pokiston hududiga, 1,5 millioni – Eronga qochib ketdi. Bu yerda yosh afg‘onlardan mujohidlar guruhlar tuzildi. Ular amerikalik mutaxassislar tomonidan zamonaviy qurollarni ishlatishga o‘rgatildi.

Mamlakatda yangi vaziyat yuzaga keldi. Sovet Ittifoqining parchalanishi hamda 1980-yillarning oxiri va 1990-yillarning boshida dunyo siyosiy manzarasining keskin o‘zgarishi sharoitida chet el ko‘magidan batamom bebhira qolgan sovetparast Najibulloh hokimiyati 1992 yilning apreligacha Afg‘onistonni

boshqara oldi, xolos. Yangi vaziyatning farqi shunda ediki, SSSR mavjudligi davrida Afg'oniston yagona davlat tuzilmasini tashkil etgan bo'lsa, endi u mahalliy harbiy-siyosiy guruhlar nazorat qilayotgan ta'sir zonalariga bo'linib ketgan edi.

Ta'kidlash kerakki, sovet qo'shinlarining olib chiqib ketilgandan so'ng Afg'onistonda tinchlik o'rnatilmadi va harbiy harakatlarni yanada kuchayishiga turtki bo'ldi. Shuningdek, ikki buyuk davlatning (AQSH, Rossiya) ham Afg'onistondagi kurashi tugamadi. Endi u sovetparastlik kayfiyatidagi prezident Muhammad Najibullohning 130 mingga yaqin qo'shini bilan AQSH va Pokiston qo'llab-quvvatlayotgan 150 ming kishidan iborat 7 muxolifatchi guruh o'rtasidagi jangovar harakatlar tarzida «Katta o'yin» davom etdi. Mazkur voqeadan so'ng mujohidlarning Jalolobod, Xost, Qandahor, Kobul va Salangda hujumga o'tganliklarini ko'rish mumkin. Hukumat qo'shinlari ushbu hujumlarni qaytarib, ayrim hollarda qarshi hujumlarni amalga oshirdi.

Najibulloh hukumatining harbiy harakatlarda passivligi, muammoni kuch bilan hal qilishga ishonch, armiya orasida muxolifatning buzg'unchilik faoliyatini olib borishi, tumanlardagi ahvolning, birinchi navbatda, iqtisodiy holatning yaxshilanishiga nisbatan umidning yo'qolishi oxir-oqibat Najibulloh rejimining qulashiga olib keldi. Buning asosiy sabablaridan biri, Moskva va Vashington o'rtasida imzolangan shartnomaga ko'ra 1992 yil 1 yanvardan Afg'oniston hukumatiga qurol-yarog' yetkazib berish to'xtatilishi bo'lgan. Chunki Najibullohda sovet yordami yagona manbaa hisoblangan. Shu bilan birga, Pokiston, Saudiya Arabistoni va boshqa ayrim davlatlar esa mujohidlarga qurol-yarog' yetkazib berishni davom ettirardi.

1992 yilning bahoriga kelib BMT tomonidan afg'on muammosini bartaraf etish bo'yicha reja ishlab chiqilib, unga ko'ra, Afg'oniston Respublikasi prezidenti va uning hukumati a'zolarining iste'foga chiqishi, eng muhim vazifasi umumiy demokratik saylovlar tashkil etish va o'tkazish bo'lgan muvaqqat betaraf hukumati tuzilishi nazarda tutilgan⁶⁴. Aynan shu davrda Pokiston va Erondan 1979 yildan

⁶⁴ Масутов Т. Афганские дневники. Алматы. 2004. – С. 14.

beri Afg'onistondagi hokimiyatga qarshi qurolli kurash olib borgan – «Yettilar Ittifoqiga» birlashgan mujohidlar mamlakat siyosiy sahnasiga kirib kelishdi⁶⁵.

Shunday qilib 1991 yil 16 aprel kuni Najibulloh muvaqqat hukumatga hokimiyatni topshirdi va 28 aprel kuni Afg'oniston Milliy qutqaruv fronti yetakchisi S. Mojaddadiy boshchiligidagi Peshavarda shakllangan mujohidlar muvaqqat kengashi vakillari Kobulga yetib keldilar. Ushbu kengash mamlakat qonuniy hukumati funksiyalarini o'z zimmasiga oldi. Mamlakat yangi rasmiy nom bilan – Afg'oniston Islom Davlati deb atala boshlandi va uni darhol Pokiston, Eron, Saudiya Arabistoni va boshqa davlatlar tan oldilar. 1992 yil dekabr oyi so'ngida Xalq vakillari vakolatli kengashi delegatlarining ovoz berish yakunlariga ko'ra, etnik tojik bo'lgan, Afg'oniston Islom jamiyati yetakchisi Burxonuddin Rabboniy Afg'oniston Islom Davlati prezidentligiga saylandi. Bosh vazir Gulbiddin Hikmatyor, Mudofaa vaziri etib esa Ahmad Shoh Mas'ud tayinlandilar. Shunday bo'lsada, mamlakatdagi vaziyat barqarorlashmay, 1993 yilning oxiri va 1994 yilning boshida Afg'oniston ijtimoiy-siyosiy va harbiy vaziyati uchun yana bir fojiali sinovni olib keldi. 40 ming militsioner ko'ngilli askarlarga ega bo'lgan General Abdurashid Do'stum G. Hikmatyor bilan birlashib Afg'oniston prezidenti B. Rabboniyni ag'darishga urinishdi. Bu hodisa Afg'oniston islom harakati (AIH), Afg'onistonni qutqarish islom ittifoqi (AQII), Afg'oniston islom birligi partiyasi (AIBP, Xaliliy qanoti)dan iborat hukumat koalitsiya kuchlariga mamlakat shimolidagi Afg'oniston milliy islom harakati (AMIH), Afg'oniston islom partiyasi (Hikmatyor) hamda janubda kuch to'playotgan «Tolibon» harakatiga qarshi chiqishiga zamin yaratib berdi va afg'onlar o'rtasidagi nizoni yangi bosqichga ko'tardi.

Shu o'rinda ta'kaidlash joizki, 1993 yil boshida Afg'onistonda yuzaga kelgan siyosiy vaziyat Rossiya va Markaziy Osiyo mamlakatlari uchungina manfaatli bo'lmay, u manfaatlari to'qnash kelayotgan boshqa tomonlarni ham qoniqtirardi.

Birinchidan, Afg'onistondagi ichki siyosiy kurashda Do'stum va Rabboniy-

⁶⁵ Гушер А. Афганский капкан // Азия и Африка сегодня. 2009. №1. – С. 9.

Mas'udning soxta davlat tuzilmalari MDH janubiy chegaralarini Afg'onistondagi urush tazyiqidan muhofaza qiluvchi bufer rolini o'ynardi⁶⁶.

Ikkinchidan, Najibulloh rejimi qulagan paytda pushtun dala qo'mondonlarining ko'pchiligi o'z qabilasi yoki hududi doirasida yagona afg'on davlati uchun kurashishdan ko'ra, to'liq mustaqillikni afzal ko'rishdi. Rossiyalik muallif I.Ye.Katkov o'z asarida pokistonlik tadqiqotchi Ahmadning: «Lashkarni jangga undovchi omil hokimiyat uchun uzoq davom etadigan kurash bilan bog'liq biron-bir boshqaruvni o'rnatish emas, balki to'qnashuvda ishtirok etib dong taratish edi. Shu bois shiddatli hujumdan keyin lashkar parokanda bo'lishi muqarrar», - degan fikrini keltiradi⁶⁷.

Uchinchidan, 90-yillar boshida AQSH afg'on mojarolari bilan qiziqmay qo'ydi. Bu, «sovuq urush»da erishilgan g'alaba va SSSR parchalanganidan keyin Afg'onistondagi mojarolar global siyosiy va mafkuraviy kurash xususiyatiga ega bo'lmay qolgani bilan bog'liq edi⁶⁸.

Shuningdek, Afg'onistondagi boshboshdoqlik Eron uchun ham foydali edi. Chunki bu holat hoziriy shialari jumlasidan bo'lgan eronparast tashkilotlarning muxtoriyatini ta'minlardi. Bu holat Afg'onistondagi vaziyatga Tehronning ta'sirini saqlab qolish va «islom inqilobini» eksport qilishga imkoniyat yaratar edi. Xususan, Afg'onistonda eronparast «Hizbi Vahdat» partiyasiga mansub hoziriy shialari 1992 yilda tog'li Hazoriyjatda Bomiyon viloyatini va mamlakat poytaxti Kobul hududining bir qismini nazorat qilayotgan edi⁶⁹.

Ammo Pokiston uchun 90-yillar boshlarida Afg'onistondagi fuqarolar urushi uning geosiyosiy ahvolining barcha ijobiy jihatlarini yo'qqa chiqardi. Pokiston G'arbning Afg'onistonni sovetlar tomonidan bosib olinishiga qarshi tayanchi sifatida barcha afzalliklaridan foydalanib keldi. Xususan, iqtisodiy va zamonaviy harbiy texnikani yetkazib berishda va umuman Pokiston armiyasining qo'llab-

⁶⁶ Туляганова Н.У. Афганский фактор в современных международных отношениях в Центральной Азии. – Т.: Фан, 2004. – С. 46.

⁶⁷ Катков И.И. Социальные аспекты племенной структуры пуштунов // Афганистан: история, экономика, культура. - М.: Наука, 1989. - С. 45.

⁶⁸ America and Muslim Middle East, Queen-Stown, 1998.

⁶⁹ Гойибназаров Ш. Халқаро терроризм: илдири, омиллари ва манбаи. –Т.: «Ўзбекистон», 2009. – Б. 194.

quvvatlanishida, shuningdek, mujohidlarga va millionlab afg'on qochoqlariga harbiy hamda moddiy yordamning taqsimlanishi rasmiy Islomobod nazoratida edi. Pokiston ko'proq Afg'onistondagi urush davrida AQSHning strategik ittifoqchisi sifatidagi maqomi tufayli o'zining mintaqadagi azaliy dushmani – Hindiston bilan kuchini tenglashtirib kelgan edi⁷⁰.

Bu davrga kelib esa, Pokiston oldida mamlakat yaxlitligini saqlab qolish masalasi ham ko'ndalang bo'lib qoldi. Ma'lumki, 1893 yil Afg'oniston va Britaniya Hindistoni o'rtasida imzolangan shartnomaga ko'ra, pushtunlarning etnik xududi afg'on-pokiston chegarasi – «Dyurand chizig'i» bilan ikki qismga bo'lib quyilgan edi. Natijada Pokistonda pushtunlar Afg'onistonga qaraganda ko'pchilikni tashkil etib qolgandi. Pushtunlar yashaydigan butun hududga da'vogar Afg'oniston hukumati «Dyurand chizig'i»ni hech qachon tan olmagan⁷¹. Shuning uchun Pokiston doimo pushtunlarning birlashuviga yo'l qo'ymaslikka harakat qilib kelgan.

Shuningdek, Pokiston mujohidlarning ham Afg'onistonni bo'lib olishiga qarshi edi. Buning asosiy sababi esa Sovet Ittifoqi parchalangach, Pokistonning Markaziy Osiyodagi yosh mamlakatlar bilan iqtisodiy hamkorlikni yo'lga qo'yish imkoniyati yaratilganidadir. Bu davrda yosh mustaqil davlatlar o'z yoqilg'i-energetika resurslarini import qilish uchun yangi transport yo'laklariga muhtoj bo'lib, Pokiston esa ularga Arabiston dengizi va Hind okeaniga chiqish imkoniyatini yaratishga tayyorligini bildirdi. Buning uchun Islomobodda Pokiston va Markaziy Osiyo temir yo'li tarmog'ini yaratish rejasi, shuningdek, Pokistonga turkman nefti hamda gazini yetkazib berish uchun quvur o'tkazish loyihasi ishlab chiqildi⁷².

Bu rejalar muvaffaqiyatli amalga oshirilsa, rasmiy Islomobod iqtisodiy va siyosiy manfaat topardi, chunki Pokiston transport kommunikatsiyalarining

⁷⁰ Игнатенко А. Исламский радикализм как побочный эффект «холодной войны» // Интернет: http://www.niiss.ru/misc_ignb.shtml

⁷¹ Zvyagelskaya Irina. Russia's designs in Central Asia // The News International. Май 8, 1996.

⁷² Banuazizi Ali and Myron Weiner. The New Geopolitics of Central Asia and its Borderlands. – Bloomington: Indiana University Press. – London I.B. Tauris, 1994.

barchasi uning hududidan o'tganligi sababli Markaziy Osiyoning barcha asosiy transport yo'laklarining to'liq «egasi»ga aylanardi. Shu bois, 90-yillarning o'rtalarida bo'lib tashlangan Afg'oniston «Pokiston orzusi» yo'lidagi yagona jiddiy to'siq bo'lib turardi.

Buni bartaraf qilish uchun Pokiston Afg'onistondagi tarqoqlikni hal etishi va hokimiyat tepasiga Islomobodga qaram bo'lgan hukumatning kelishini ta'minlashi lozim bo'lgan. Ko'p yillik urushdan so'ng bunday vazifani faqat harbiy kuch bilan amalga oshirish mumkin bo'lgan. Lekin, Afg'onistondagi 1992-1994 yillardagi harbiy-siyosiy vaziyat tufayli buni amalga oshirib bo'lmasdi. Afg'onistonning bo'lib tashlangani va fuqarolar urushi oqibatida davlat institutlari buzilib ketgani mavjud harbiy-siyosiy guruhlardan birini shunchaki kuchaytirib mamlakat birligini tiklash imkonini bermasligi ma'lum bo'lgan⁷³.

Pokiston mazkur davrda Markaziy Osiyodagi davlatlar bilan munosabatlarni keskinlashtirib qo'yishni o'ylab, o'z armiyasini to'g'ridan-to'g'ri harbiy aralashuviga ham yo'l qo'yib bo'lmagan. Chunki, rejalashtirilayotgan quvur o'tkazgich Pokistonni aynan shu davlatlar bilan bog'lardi².

Shunday kilib, Afg'onistondagi sharoit Pokiston manfaatlari uchun mos ravishda rivojlanishi uchun mamlakatda harbiy salohiyati mavjud barcha afg'on guruhlarining birgalikdagi imkoniyatidan ham ortiq bo'lgan mutlaqo yangi kuch tashkil qilish lozim bo'ladi. Shunday bir vaqtda «Tolibon» harakati mana shunday kuch bo'lib chiqdi. «Tolibon» otryadlari 1994 yilda Qandahor shahrini bosib olganda bu harakat ilk bor tilga olinib boshlagan bo'lsa-da, bu paytda «Tolibon» deyarli 10 yillik tarixga ega edi.

Xususan, toliblar harakat sifatida 70-yillarning boshida yuzaga kelgan edi. Dastavval toliblar deganda asosan Pokistonning pushtunlar yashaydigan hududlarida (Pokistonning Shimoli-G'arbiy viloyati va Balujiston) joylashgan madrasalar talabalari tushunilardi. Afg'oniston- Pokiston chegara rayonlarida madrasalar afg'on qochoqlarini va mujohidlarni tayyorlash uchun maxsus ochilgan

⁷³ Тураджаев В., Миронов Л. Нефтью можно и захлебнуться // Азия и Африка сегодня. 1997. № 7. – С. 9.

bo‘lib, ularning aksariyati Pokiston razvedkasi tomonidan Afg‘onstondan olib kelingan, ota-onasiz qolgan va pushtun hisoblangan o‘g‘il bolalar edi. Ular Peshovar yaqinidagi lagerlarda harbiy tayyorgarlikdan o‘tkazilib, «kofirlarga qarshi harbiy harakatlardan iborat bo‘lgan»³ jihodni olib borishga o‘rgatilardi. Bular yuzaga kelayotgan «Tolibon» harakatining negizini tashkil qilardi.

Shuningdek, Pokiston qurolli kuchlari bosh shtabining sobiq rahbari general Mirzo Aslam Bekning e‘tirof etishicha, toliblarni maxsus tayyorgarlikdan o‘tkazadigan bunday madrasalar tizimi Pokiston va AQSH tomonidan «mujohidlarning jangovar ruhini qo‘llab-quvvatlash uchun afg‘on-pokiston chegarasi bo‘ylab diniy-mafkuraviy kamar» sifatida tuzilgan⁷⁴. Bu madrasalarda 90-yillar boshiga kelib 80 mingdan ziyod afg‘on «murosasizlari» o‘qitilgandi⁷⁵.

«Tolibon» harakatining bir qancha rahbarlari AQSH tomonidan SSSRga qarshi uyushtirilgan «jihod»da ishtirok etishgan bo‘lsa-da, bu harakat mujohidlarning birlashmasi hisoblanmagan. Ular Pokistonning Shimoli-Sharqiy viloyatida afg‘on qochoqlari lagerlarida tayyorgarlikdan o‘tgan bo‘lib, 1980-yillardagi janglarda ishtirok etmagan.

1990-yillarda fuqarolar urushining qaytadan boshlanishi Pokistondagi 3 mln. afg‘on qochoqlarining vataniga qaytish imkoniyatini bermadi. «Tolibon» harakati asosan ana shu qochoqlardan tuzilgan bo‘lib, ularning aksariyati qochoqlar lagerlarida tug‘ilib, voyaga yetishgandi. «Tolibon» muammosi bilan shug‘ullangan mualliflardan biri Axmad Rashid o‘sha davrdagi ahvolni quyidagicha tavsiflaydi: «Bu yigitlar men 1980-yillarda bilgan mujohidlar – o‘z qabila va urug‘i haqida batafsil hikoya qilishga qodir, tashlab kelgan xo‘jaliklari va vodiysini qumsab eslaydigan hamda afg‘onlar tarixidan afsona va rivoyatlar aytib bera oladigan erkaklardan o‘zgacha dunyo edi. Bu yigitlar o‘z vatanini tinchlik vaqtida hech qachon ko‘rmaganlar, Afg‘onistonni bosqinchilarga qarshi yoki o‘z ichidagilarga qarshi urush holatidan boshqa sharoitda ko‘rmaganlar avlodidan hisoblanardi... Ular hech qanday ildizga va ishga ega bo‘lmagan, behalovat, iqtisodiy jihatdan

⁷⁴ Празаускас А. От Российской империи к Союзу СССР // Вестник Евразии, 1996, № 1(2). – С. 127

⁷⁵ Гойибназаров Ш. Халқаро терроризм: илдири, омиллари ва манбаи. – Т.: «Ўзбекистон», 2009. – Б. 198

benavo, o‘zligini zaif anglaydigan aynan urush yetimlari edi...»⁷⁶.

Shu bilan birga, «Tolibon» harakati shunchaki hukumatlar va sarmoya manfaatlari mahsuli emasdi. Bu yangi harakat 1994 yilda ikki omil natijasida vujudga kelgan:

Birinchidan, jangga kirishga tayyor askarlarni yaratgan ijtimoiy va siyosiy ilojsizlik oqibati o‘laroq;

Ikkinchidan, Pokiston, Saudiya Arabistoni va AQSHdan berilgan tashqi moliyaviy, qurol-yarog‘ yordamida va ular yuborgan maslahatchilar xizmati o‘laroq to‘satdan paydo bo‘ldi, jadal rivojlandi hamda harbiy muvaffaqiyatlarga erishdi.

1994 yilda mazkur harakat siyosiy rahbariyatiga asosan afg‘on jamiyatining an‘anaviy elitasi tizimiga kirmaydigan kishilardan to‘plangan. Jumladan, siyosiy rahbar – Muhammad Umar Oxunzoda u ilgari mujohidlarning dala qo‘mondonlaridan biri hisblangan va harakat asoschilaridan yana biri Abdurahmon bo‘lib, u sovetlar mamlakatga kirib kelganda Pokistondan panoh topadi. Bundan tashqari, «Tolibon» rahbarlari orasida sovet qo‘mondonligidagi razvedkachi bo‘linmaning mas‘ul xodimi bo‘lgan Shoh Sarvar, maxfiy kommunistlar politsiyasi departamentining sobiq amaldori Muhammad Akbar, General Muhammad Jiloniy bor edi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, afg‘on jamiyatida turli sabablarga ko‘ra barqaror aloqalarga ega bo‘lmagan kishilardan tuzilgan «Tolibon» harakati Pokistonning qo‘llab-quvvatlashi bilan Afg‘onistonda tartib o‘rnatish, uning parchalanishini bartaraf qilish va Markaziy Osiyo mintaqasiga transport yo‘lagini ochish vazifasini bajara olishini taxmin qilish mumkin bo‘lgan. Bunda Pokiston siyosatining asosiy maqsadlariga sodiq bo‘lib qolish rasmiy Islomobod uchun muhim edi⁷⁷.

Shu davrdan boshlab, «Tolibon» harakati o‘zini oddiy kishilarga qilinayotgan yovuzlikni bartaraf etishga otlangan diniy «hushyorlik qo‘mitasi» sifatida

⁷⁶ Ахмед Рашид. Талибан: ислам, нефть и новая большая игра в Центральной Азии. - IB Tauris, 2000 – С. 30.

⁷⁷ Monde Diplomatique. 1997, Janvier.

ko'rsatib, ularga mafkuraviy ta'sir ko'rsatgan. «Oddiy qishloq mullalari tomonidan ularning onglariga singdirilgan, xaloskor porso islomga bo'lgan oddiy ishonch ular umid bog'lashi mumkin bo'lgan va hayotlariga qandaydir ma'no baxsh etgan yagona tayanch edi, - deb yozgandi tadqiqotchilardan biri oddiy toliblar haqida. Hech narsaga tayyor bo'lmagan, hatto ajdodlarining qishloq xo'jaligini yuritish, chorvachilik yoki kasb-hunar singari an'anaviy mashg'ulotlaridan ham bexabar bo'lgan bu kishilar Afg'onistonning lyumpen-proletariati edi»⁷⁸. «Tolibon» harakatining mafkurasi ana shu qatlamni ko'zda tutib rivojlantirilgan g'oyalar qorishmasi hisoblangan.

Aslida «Sof islom» g'oyalariga asoslangan «Tolibon»ning dasturi Benazir Bxutto (1994 yilda Pokistonning bosh vaziri) davrida tugatib shakllantirilgan edi. U o'z davrida, harakat AQSH, Britaniya, Saudiya Arabistoni va Pokistonning keng ko'lamdagi harbiy va moliyaviy madadi bilan ta'minlanib kelganligini e'tirof etgandi. Aynan shundan keyin toliblar mujohidlarning jangari (dala) qo'mondonlari orasida talash bo'layotgan Afg'onistonga kirish va shimol tomon zafarli yurish qilishga muvaffaq bo'lishgandi.

Ta'kidlash joizki, «Tolibon» harakati afg'on siyosiy sahnasida paydo bo'lishining rasmiy sababi xam ma'lum. «Pokistonlik yirik biznesmenlardan biri, Pokistonning sobiq prezidenti Asif Ali Zardori (Benazir Bxuttoning turmush o'rtog'i) Markaziy Osiyoga Afg'oniston orqali birinchi sinov karvonini yubordi va bu karvon afg'on mujohidlari tomonidan talon-toroj kilindi»⁷⁹. Shundan keyin tez orada, 1994 yilda «Tolibon» harakati otryadlari mujohidlarning asosan etnik pushtun bo'lgan ko'p sonli mustaqil jangari qo'mondonlari nazoratidagi janubiy mintaqalariga hujumni uyushtirib, Qandahor shahrini va aholisi asosan pushtunlardan iborat bo'lgan janubiy viloyatlarning katta qismini egallashga muvofiq bo'ladi.

Toliblar mamlakatga kirib kelgandan so'ng «vahhobiylar» deb nomlanadigan «sof islom» tarafdorlari musulmon jamiyatini dunyoviy va diniy boshqarishni

⁷⁸ Ахмед Рашид. Талибан: ислам, нефть и новая большая игра в Центральной Азии. – С. 32.

⁷⁹ Афганский узел. Национальная служба новостей. 10 октября 1996. – С. 2.

qo'shib olib borishga qarshi chiqib, birinchi navbatda odatiy musulmon jamiyatining an'anaviy elitasiga qarshi kurasha boshlashdi. Jumladan, 1995 yil 12 martda toliblar tomonidan hazoriy shialari partiyasi «Hizbi Vahdat» rahbari Abdulla Ali Mozoriy o'ldirildi. Kobul egallangach, 1996 yil 26 sentyabrda mamlakatning sobiq prezidenti Najibulloh osib o'ldirildi.

«Tolibon» harakatining harbiy muvaffaqiyati bu harakatning chet ellik valine'matlari borligining ifodasi edi. Kuchlarning ko'p yillik muvozanati hukm surib kelayotgan va fuqarolar urushi davom etayotgan sharoitda barcha harbiy resurslar yaxshi ma'lum bo'lib, qo'shimcha imkoniyatlar mamlakatdan tashqaridagina kelishi mumkin edi. Ayni mahalda «Tolibon» harakati bir yildan ham oz muddat ichida yaxshi uyushgan, tanklar, artilleriya bilan ta'minlangan, havodan madad oladigan va janubiy hamda g'arbiy Afg'onistonning ko'plab viloyatlarini nazorat qiladigan 20 mingdan ziyod jangchini maydonga chiqarishi mumkin bo'lgan harbiylashgan guruhga aylandi.

Afg'onshunos olim Martin Evene qayd etganidek: «Asosan sobiq partizanlardan hamda noprofession talabalardan tuzilgan kuch bo'lgan «Tolibon» o'z harakatining deyarli boshidan namoyish etgan darajada mahorat va uyushqoqlik bilan xarakat qilishi mumkinligiga aql bovar qilmaydi. Uning a'zolari orasida, shubhasiz, afg'on qurolli kuchlarining sobiq vakillari bo'lsa-da, ularning hujumkor operatsiyalari tezlik va ustalik bilan olib borilganligi, shuningdek, ularning aloqa vositalari, havodan bomba tashlash va artilleriya otishmalarini sifatli bajarishi ular Pokiston harbiylari oldida, yoki, hech bo'lmasa, ularning professional madadi uchun qarzdordirlar, degan xulosaga muqarrar olib keladi»⁸⁰. Keyinchalik MDHning janubiy chegaralarida toliblar tomonidan Shimoliy uyushmaga qarshi olib borilgan janglarda panjobiy tilda so'zlashuvchi yuzlab pokistonliklar – muntazam piyoda qo'shinlar askarlari qatnashishgan.

Bundan tashqari, Saudiya Arabistoni ham «Tolibon» harakatini moliyaviy va moddiy jihatdan doimiy ravishda qo'llab-quvvatlab kelgan. «Tolibon» Qandahor

⁸⁰ Мартин Эвене. Афганистан: новая история. – Cuzzon, 2001. – С. 182-183.

ustidan nazorat oʻrnatganidan keyin razvedka boshligʻi Mavlono Fazl ur-Rahmon Saudiya Arabistoni va Fors koʻrfazi davlatlari podshohlar xonadoni aʼzolarini «ovlash»ni tashkil qila boshlagan. 1996 yil oʻrtalariga kelib Saudiya Arabistoni «Tolibon» hujumlarini qoʻllabquvvatlash uchun Kobulga pul, transport vositalari hamda yonilgʻi yubora boshladi.

Shunchaki qaraganda, Saudiyaning «Delta Oil» neft kompaniyasi quvur oʻtkazgichning taxminiy loyihasida «Unocal» kompaniyasining sherigi boʻlib, uning qurilishi uchun «Tolibon» harakatining gʻalabasi juda ham zarur edi.

Shunday qilib «Tolibon» harakati, dastlab Qandahorni va pushtunlar koʻproq boʻlgan janubiy viloyatlarini qoʻlga kiritdi. Biroq toliblar Kobulga hujum qilish oʻrniga, asosiy zarbani shimoli-gʻarbiy yoʻnalishga, turkman-afgʻon chegarasi tomonga qaratishdi. Chunki toliblar Kobul ostonalarida Ahmad Shoh Masʼud armiyasining qarshiligiga duch kelishgan. Lekin asosiy sabab boshqa boʻlib, «toliblar Qandahor – Hirot yoʻlidan, yaʼni Pokistonni Markaziy Osiyo bilan bogʻlashi kerak boʻlgan asosiy magistral yoʻlining afgʻonistonga qarashli qismidan oʻtishgan. Qizigʻi shundaki, 1994 yil yozida Turkmanistonning Kushka shahridan Pokistonning Chaman shahrigacha temir yoʻl qurilishi loyihasi maʼqullangandi. Bu shoxobcha Afgʻonistonning gʻarbiy viloyatlaridan Hirot va Qandahor orqali oʻtishi lozim edi. Bir muncha vaqtdan soʻng bu yerda toliblar paydo boʻlishdi»⁸¹.

1994 yilga kelib «Tolibon»lar Hirot shahrini bosib olib, Afgʻonistonning Turkmaniston bilan chegarasiga chiqib olishdi. Shunday qilib, 1995 yildayoq Markaziy Osiyo mintaqasiga transport yoʻlagini ochishdan iborat geosiyosiy vazifaning birinchi bosqichi bajarildi. Oʻshanda Turkmaniston hukumati «Unocal» kompaniyasiga turkmaniston-Afgʻoniston chegarasidan Pokistondagi Moʻlton shahrigacha gaz quvuri qurish uchun konsorsium tuzish huquqini berdi.

Shu paytda, Pokiston rejasi boʻyicha harakatlanayotgan «Tolibon» harakati endi mustaqil harakatlana boshladi va shu bois Pokiston – «Tolibon» koalitsiyasi inqirozga uchradi. Bundan tashqari, toliblar Afgʻonistondagi etnik oʻzbeklarning

⁸¹ Москаленко В. Пакистан – курс на Центральную Азию // Восток/ Oriens. 1996, №15. – С. 84.

general Abdurashid Do'stum boshchiligidagi «Jumbish-Milliy» (Afg'oniston milliy islom hapakati), etnik tojiklarning Burhoniddin Rabboniy va Ahmad Shoh Mas'ud boshchiligidagi «Afg'oniston islom jamiyati» va xazoriy shialarining Muhammad Haliliy rahbarligidagi «Hizbi Vaxdat»i (Afg'oniston islom birligi partiyasi) kabi siyosiy tashkilotlar qarshiligiga uchrab, Afg'oniston ichkarisiga kirib borishini vaqtincha to'xtatdi.

Ta'kidlash joizki, Markaziy Osiyo davlatlari chegaralarida «Tolibon» harakati paydo bo'lishidan ular ko'radigan ziyon yangi transport yo'lagini ochishdan keladigan foydadan ancha ziyod edi. Shu bois, Afg'onistonda keyinchalik boshlangan ichki kurashda Markaziy Osiyodagi besh davlat va Rossiya toliblarga karshi koalitsiya shakllanishining asosi bo'lgan etnik ozchilikning ittifoqchisi bo'lib chiqishdi.

1995 yilda «Tolibon» harakati – mamlakatning janubiy hamda janubi-g'arbiy viloyatlarini, shu jumladan Qandahor va Hirot shaharlarini, hazoriy shialari – tog'li Hazoriyjatdagi Bomiyon viloyatini general Do'stum harakati – shimoldagi olti viloyatni, Rabboniyning «Afg'oniston hukumati» – mamlakat poytaxti Kobulni va Tojikistonga yondosh shimoli-sharqiy viloyatlarni nazorat qilishardi. Bundan tashqari, toliblarga muxolafatda bo'lgan pushtun jangari qo'mondonlari Afg'onistonning janubidagi yirik Jalolobod shahrini egallab turishardi.

Bundan ko'rinib turibdiki, rasmiy Islomobod o'z geosiyosiy maqsadlarini amalga oshirish imkoniyatiga erishgan edi. Toliblarning Turkmaniston va Afg'oniston chegarasiga chiqishi Markaziy Osiyodan Pokistonga gaz quvuri va aloqa yo'llari qurilishini boshlash imkonini yaratib bergandi. Zero, mumkin bulgan yo'nalishlarning barchasi endi faqat «Tolibon» harakati nazorat qilayotgan Kushka – Hirot – Qandahor – Pokiston yo'nalishi bo'yichagina o'ta olardi. «Tolibon» harakatiga muxolifatda bo'lgan kuchlar tomonidan nazorat qilinayotgan hududlar rejalashtirilayotgan asosiy transport yo'laklaridan chetda qolardi, shu bois ularni qo'lga kiritish g'oyasi Pokiston uchun zarur emasdi. Bundan tashqari, Afg'onistonning parchalanganligi Markaziy Osiyo davlatlari xavfsizlik tizimi

uchun favqulodda muhim va o'sha paytdagi mavjud darajada saqlanib qolishi lozim edi.

Shunday bir vaqtda, toliblar o'z manfaatlari Pokiston ma'muriyatining keng ovoza qilinmaydigan maqsadlari bilan qisman mos kelganidan foydalanib, valime'matlar «izn bergan» doiradan va AQSH strategiyasida ular uchun ko'zda tutilgan rejadan tashqari chiqishga urinib ko'rishdi. Toliblar Buxorogacha borish, Farg'onada «Islom xalifaligi»ni barpo etish haqida jar sola boshlashdi, pushtun ekstremistlarining qurolli guruhlarini Kashmirga va Xitoyning Shinjon muxtoriyatiga yuborishga ko'maklashishdi. Ta'kidlash kerakki, o'shanda toliblar yirik kuchga aylanib ulgurgandi. Xususan, «1995 yil fevral oyi oxiri – mart oyi boshida «Tolibon» harakati otryadlaridagilar soni 25 mingga yetdi va ularning qo'lida faqat o'qotar qurollar emas, balki og'ir qurol-aslaha, shu jumladan, 150 ta zirxli texnika, 10 ta samolyot bor edi»⁸². 1996 yil sentyabrda Kobul bosib olingach, «Tolibon» harakati tuzilmalarida «30-40 ming kishi, 200 ta zirxli texnika, artilleriya, 15 ta Mig-21 samolyoti hamda 10 ga yaqin Mi-8 vertolyotlariga ega edi»⁸³. Biroq, mazkur qurollangan holat toliblarning pushtunlar istiqomat qiladigan mintaqalarni nazorat qilish va Mas'ud armiyasining Kobuldan janubdagi mudofaa pozitsiyalarini yorib o'tish uchun yetishmasdi.

Afg'onistonda yana geosiyosiy muvozanat yuzaga keldi: toliblar butun Afg'oniston hududini nazoratga olishi uchun qo'shimcha resurslar talab qilinardi. Pokiston esa, Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatni buzmaslik uchun, toliblarga hal qiluvchi ustunlikka erishishda ko'maklashmoqchi emasdi. Pokiston yordam berishni to'xtatganligi bois, tolibon rahbarlari boshqa moliyalashtirish manbaini izlay boshlashdi. O'shanda «Tolibon» yangi daromad manbai – narkobiznesni topdi.

Jumladan, 90-yillar boshida Afg'oniston ko'knori yetishtiruvchi va jahon bozoriga qoradori (afyun) va heroin yetkazib beruvchi asosiy mintaq bo'lib qoldi. Giyohvand moddalarni ishlab chiqaruvchilar va tashuvchilar daromadining 30-35

⁸² Ганковский Ю. В бой вступают талибы // Азия и Африка сегодня. 1995, № 7 – С. 33.

⁸³ Давыдов Л. Афганистан. Талибы стремятся к власти // Азия и Африка сегодня. 1997, №7 - С. 46.

foizi «Tolibon» harakati byudjetiga kelib tushardi. Aynan shu mablagʻ Afgʻoniston ichidagi muxolifat bilan kurashni moliyalashtirish va xalqaro terrorchilik harakatini kengaytirishning asosiy daromad manbai boʻlib qoldi.

Ana shunday tendensiyalar davom etayotgan bir vaqtda, afgʻon sahnasining asosiy ishtirokchilaridan biri sifatida Usoma bin Laden keldi. U yaratgan jahon terrorchilik tashkilotlari tarmogʻi bu paytga kelib barcha rivojlangan mamlakatlardagi jinoiy, terrorchi va separatchi guruhlar bilan barqaror aloqa oʻrnatgandi. Natijada «Al-Qoida» geroin tayyorlaydigan va uni isteʼmol qiladigan geografik jihatdan tarqoq hududlarni tutashtiruvchi koʻprik boʻlish imkoniga ega boʻldi. «Tolibon» harakati uchun giyoxvand moddalar savdosini oʻzini moliyalashtirishning ishonchli manbaiga aylantirishi uchun aynan shu narsa yetishmay turgandi.

«Tolibon» harakati bilan «Al-Qoida»ning hamkorligi narkobiznes masalalari bilangina cheklanmadi. Usoma bin Laden guruhi aʼzolari sovet qoʻshinlariga qarshi kurash yillarida Afgʻoniston hududida hamda Pokistonning shimoli-gʻarbiy viloyatlarida barpo etilgan bazalar va mashq lagerlaridan ham foydalanishdi. «Al-Qoida»ning Afgʻoniston hududida taʼlim olgan jangarilari, tabiiyki, toliblarning jangovar operatsiyalarida ham ishtirok etishgan.

Shunday vaziyatda Afgʻoniston turli xil xalqaro jinoiy tuzilmalar islom radikallari va ular bilan jips hamkorlik qilayotgan narkoguruhlar uchun qoʻnimgoh hududga aylanib qoldi⁸⁴.

Xususan, 1997 yillarda Afgʻonistonda boʻlgan janglarda bir qator islom ekstremistik tashkilotlaridan madrasalar talabalari va jangarilar jumlasidan boʻlgan 10 ming nafardan ziyod «koʻngillilar», shuningdek ayrim arab davlatlaridan Afgʻonistonda oʻrnashib olgan Usoma bin Ladenga boʻysunuvchi 500 dan ziyod jangarilar toliblar tomonida harakat qildi. 1998 yilga borib toliblar mamlakatning markaziy va shimoliy viloyatlarida nazorat oʻrnatdi. 1999 yil boshiga kelib «Tolibon» harakati Afgʻoniston hududining 80 foizga yaqinini, shu jumladan,

⁸⁴ Каранг: Требин М.Н. Терроризм в XXI веке. – Минск: Харвест, 2003.

aholisining ko'pchiligi o'zbeklar va xazoriylar bo'lgan viloyatlarni ham nazorat ostiga olgandi. «Tolibon» harakati Afg'onistonni musulmon qonunlari va shariat ahkomlari orqali boshqardilar. 1997 yil oktyabr oyida mamlakat mulla Umar amirligida «Afg'oniston Islom Amirligi», deb e'lon qilinadi va uni faqat 3 ta mamlakat, ya'ni Pokiston, Saudiya Arabistoni va Quvayt tan oladilar⁸⁵.

Toliblar Afg'onistonni kengko'lamdagi gumanitar halokat jori yoqasiga olib kelib qo'yishdi va aholining uchdan bir qismi mamlakatni tark etdi. Afg'oniston giyohvand moddalar ishlab chiqaradigan yirik hududga hamda xalqaro terrorizmni qo'llab-quvvatlovchi markazga aylanib qoldi. Mamlakatda «Al-Qoida» xalqaro terroristik tashkilotini tuzishga Ben Ladenga imkon yaratib berildi. Ben Laden va uning tashkiloti bilan «Islom harakati», «Sharqiy Turkiston islom harakati» (uyg'urlar) a'zolari hamda chechen jangarilari ham yaqin aloqada bo'lishdi.

«Tolibon» harakati 7 yillik hukmronligi davrida Afg'onistonni siyosiy va iqtisodiy boshboshdoqlik girdobiga tortib, ochlik hamda kasallik iskanjasida qoldirdi. Ularning eng katta xatolari XXI asr boshida mamlakatni o'z siyosiy amallari orqali «Xulafoye Roshidin» davriga qaytarish, «asl» islom hukmron bo'lgan davlat tuzish edi. Bu harakatlar jahon hamjamiyatining nafratini uyg'otdi⁸⁶.

Shunday qilib, 1998 yilning avgustida Nayrobi va Dorussalom shaharlaridagi AQSH elchixonalarida teraktlar sodir etildi. Terrorchilik harakati ortida Afg'onistonda joylashgan «Al-Qoida» tashkiloti turgani aniqlagach, 20 avgust kuni AQSH harbiy kuchlari bu mamlakatdagi Usoma ben Ladenga karashli terrorchilarning oltita qarorgohiga qanotli raketalarda zarba berilib, natijada 16 nafar terrorchi o'ldirilgan⁸⁷.

2001 yil 11 sentyabrda AQSHda sodir bo'lgan terroristik xurujlar Afg'oniston va butun jahon siyosatini tubdan o'zgartirib yubordi. Ushbu fojeali voqealar

⁸⁵ Искандаров К. Талибан: факторы возрождения и перспективы мира и региональной безопасности // Материалы международной конференции «Афганистан и региональная безопасность: пять лет после Талибана». Выпуск III (11-12 декабря 2006 г.). - Бишкек, Душанбе, 2006. - С. 45.

⁸⁶ Масутов Т. Афганские дневники. – Алматы. – 2004. – С. 16.

⁸⁷ Hotamov G'. Yovuzlikka qarshi turmagan uni yoqlagan bo'ladi: Faktlar, talqinlar, munosabatlar. – T.: Ma'naviyat, 2002. – B. 27.

Usama bin Laden va uning «Al-Qoida» xalqaro terroristik tashkiloti nazdidagi xalqaro terrorizm nafaqat AQSHga, balki butun g'arbga tahdid solishi mumkinligini ko'rsatib berdi. Biroq, bu voqealarning eng jiddiy oqibatlari Afg'onistonda 10 yildan buyon davom etayotgan yirik harbiy kampaniyaning boshlanishiga olib keldi.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov mazkur davrda Afg'onistonda yuzaga kelgan vaziyatni baholab, quyidagilarni aytgandi: «Afg'oniston bugungi kunda jinoiy harakatlar maydoniga, xalqaro terrorchilik va ekstremizm o'chog'iga, giyohvand moddalar yetishtiriladigan asosiy o'lkaga aylanib qoldi. Vaziyat borgan sari keskinlashmoqda, harbiy harakatlarning mintaqadagi boshqa mamlakatlarga ham yoyilishi xavfi tobora kuchaymoqda.

Bugungi kunda afg'on mojarosini faqat mahalliy va mintaqaviy miqyosdagi tanglik deb o'ylagan odam mutlaqo xato qiladi. Bu masala Afg'onistondan olisda joylashgan boshqa hududlar va xalqlarning ham tinchligi, osoyishtaligiga tahdid soladigan ulkan miqyosdagi muammoga aylanib bormoqda.

Bugun hammamizga bir haqiqat tobora ayon bo'lmoqda. Ya'ni Afg'onistonda 20 yildan ortiq davom etib kelayotgan urushning oxiri ko'rinmayotganiga, jafokash afg'on zaminida tinchlik o'rnatilmayotganiga bu yerda dunyodagi kuchli va katta imkoniyatlarga ega bo'lgan davlatlarning strategik va geopolitik manfaatlari to'qnashayotgani sabab ekani tobora aniq bo'lmoqda. Ehtimol, shuning uchun ham, afg'on muammosini yechish bilan bog'lik ishlar ko'plab muhokamalaru turli sanksiyalar e'lon qilishdan nariga o'tmayapti»⁸⁸.

2.2 XXI asr boshida Pokiston va G'arb davlatlarining Afg'onistonda tinchlik va havfsizlik o'rnatilishiga munosabati

Hozirgi kunda Janubiy Osiyodagi siyosiy jarayonlar o'ziga xos ko'rinishga ega bo'lib, bunda mintaqaning etakchi davlatlaridan biri – Pokiston Islom

⁸⁸ Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-tom. – T.: O'zbekiston, 1999. – B. 93-94.

Respublikasi(PIR)ning tashqi siyosati va uning ustuvor yo'nalishi sifatida Afg'oniston Islom Respublikasi (AIR) omili muhim o'rin tutadi.

Bugungi kunda ham Afg'oniston va Pokiston chegaralarining qonuniyligi masalasi tomonlarning tortishuviga sabab bo'lib kelmoqda.

2001 yil 11 sentyabr voqealaridan keyin Pokistonning "afg'on siyosati" o'zgardi va Afg'onistondagi xalqaro terrorchilikka qarshi operatsiyada ishtirok eta boshladi. Pokiston va AQSH maxsus xizmatlari "Al – Qoida" a'zolarini topish va "Tolibon" harakatini oldini olish borasida hamkorlik qila boshladilar.

Bugungi kunda ushbu davlatlar o'rtasidagi munosabatlar bir qator ikki tomonlama hujjatlarga tayanib amalga oshirilib kelinmoqda.

Xususan, AIR va PIR hamkorligi mintaqada tinchlik, xavfsizlik va rivojlanishni ta'minlash yuzasidan imzolangan "Yaxshi qo'shnichilik to'g'risida"gi Qobul deklaratsiyasi (2002 yil), "Pokiston Islom Respublikasi va Afg'oniston Islom Respublikasi o'rtasida tranzit qatnovi to'g'risida"gi kelishuv (2005 yil), "Pokiston Islom Respublikasi va Afg'oniston Islom Respublikasi o'rtasida ishonchni mustahkamlash choralarini amalga oshirish uchun ishchi guruhini tuzish to'g'risida"gi shartnoma (2007 yil), "Ikki tomonlama hamkorlik yo'nalishlari to'g'risida"gi qo'shma deklaratsiya (2009 yil), "Islomobod deklaratsiyasi" (2009 yil 13-14 may kunlari Islomobodda bo'lib o'tgan xalqaro konferensiyasi yakunlari bo'yicha imzolangan) asosida rivojlanib bormoqda.

Bugungi kunda Afg'onistonda aksilterror operatsiyalar boshlangandan buyon «Tolibon» harakati va boshqa ekstremistik guruhlarining jangarilariga qarshi Xavfsizlikka ko'maklashuvchi xalqaro kuchlar (ing. International Security Assistance Force – ISAF (XKXK)) mintaqaviy qo'mondonliklar doirasida harbiy harakatlar olib bormoqda. Xususan, BMT Xavfsizlik Kengashi 2001 yil oktyabrdagi Bonn kelishuvi asosida 2001 yil 20 dekabrda 1386-sonli qarori bilan ISAF – ittifoqdosh va hamkor mamlakatlar sifatida ko'pmillatli harbiy kontingenti

tashkil etildi⁸⁹. ISAF tarkibida dastlab NATOga a'zo 17 ta davlatga tegishli 4 ming harbiy xizmatchi mavjud edi. Bugungi kunda ISAF qo'shinlari amerikalik general Devid Petreus qo'mondonligida 48 mamlakatga tegishli bo'lgan 132.203 ming harbiydan iborat⁹⁰.

Ta'kidlash kerakki, AQSH boshchiligidagi ISAF «Tolibon» harakati, «Al-Qoida» va Afg'oniston Islom Partiyasining qurolli tuzilmalariga qarshi amalga oshirgan «Yengilmas ozodlik» harbiy operatsiyasining faol bosqichi 2003 yilda yakunlangach, koalitsion kuchlarga qo'mondonlik NATOga topshirildi⁹¹.

Shuningdek, 2003 yil 9 dekabrda ISAF vakolatlari va vazifalari BMT Xavfsizlik Kengashining qarorlari hamda ISAF va AIR hukumati o'rtasidagi harbiy-texnikaviy kelishuvlarga asosan belgilandi. Ular assida NATO Kengashi AIRda harbiy tadbirlarda ishtirok etayotgan, lekin shimoliy alyans a'zosi bo'lmagan davlatlar bilan ham doimiy ravishda hamkorlik qilib kelmoqda.

ISAFning Afg'onistondagi asosiy vazifalari quyidagilar deb belgilandi:

- mamlakatda xavfsizlikni mustahkamlash bo'yicha Afg'oniston xavfsizlik kuchlari (AXK) bilan hamkorlikda operatsiyalar o'tkazish;
- afg'on hukumatiga hokimiyat vakolatlarini mustahkamlashda ko'maklashish;
- ISAF giyohvand ekinlari maydonlarini yo'qotish yoki ularni qayta ishlash jarayonida ishtirok etmaydi hamda ularni yetishtiruvchilariga qarshi harbiy operatsiyalar olib bormaydi;
- ISAF kuchlari tomonidan doimiy ravishda AIR hududida patrullik nazoratni amalga oshirish;
- noqonuniy qurolli guruhlarini qurolsizlantirishga oid afg'on hukumati dasturlarini amalga oshirishda ko'maklashish;

⁸⁹ Наталья Шило. «Обстановка в Афганистане: военно-политическая ситуация и трансформация политического курса страны». Аналитические записки. –М.: Научно-координационного совета по международным исследованиям МГИМО (У) МИД России, Выпуск 9(38) Октябрь 2008. –С. 4-8.

⁹⁰ www.isaf.nato.int. |title=International Security Assistance Force (ISAF): Key Facts and Figures |format=PDF |date=2011-03-04

⁹¹ «Хавфсизлик йўлида ҳамкорлик» // http://www.nato.int/ebookshop/introduction_to_nato/nato_security_uz.pdf.

- Afg'oniston milliy armiyasi (AMA) va Afg'oniston milliy politsiyasiga (AMP) portlovchi moddalarni aniqlash va yo'q qilish, shuningdek, qo'lbola portlovchi moslamalar (SVU) tayyorlashda foydalanishi mumkin bo'lgan qurilmalarga qarshi kurashishda yordam berish;

- AMA va AMPning yangi qism va bo'linmalaridagi harbiylarni o'qitish va tayyorlashda ko'maklashish;

- Provinsiyalardagi tiklash guruhleri (PTG) ISAFning mamlakatdagi qayta tiklash ishlarini olib borish va unda ishtirok etayotgan gumanitar tashkilotlari xodimlarining xafvsizligini ta'minlash.

Yuqoridagi vazifalarning mohiyati Bonn kelishuvida aniqlangan bo'lib, ular NATOning 2004 yil Istambuldagi⁹² va 2008 yil Buxarestdagi sammitlarida o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganda ham saqlanib qolindi.

Shuningdek, AIRda NATO qo'mondonligidagi xalqaro kuchlarning tinchlikni o'rnatishga qaratilgan faoliyati Shimoliy alyansning «Ko'pmillatli operativ kuchlar» (ing. Combined Joint Task Force – CJTF (KOK)) konsepsiyasida o'z aksini topgan. Ushbu konsepsiya AIRda NATOga a'zo mamlakatlar qurolli kuchlari va unga kirmagan davlatlar harbiy kontingentlari ishtirokidagi turli masshtabdagi harbiy operatsiyalarga tayyorgarlik ko'rish va olib borish faoliyatini tartibga soladi.

Xususan, mazkur konsepsiyaning asosiy tamoyillari quyidagilar hisoblanadi:

- NATO qurolli kuchlari birlashgan qo'mondonligi tarkibidagi KOK boshqaruv organlarining integratsiyasini ta'minlash;

- KOK tarkibiga kirish uchun bo'linmalarni tashkil qilish, tayyorlash va ittifoqning barcha harbiy spektrlariga vazifalarini hal qilish uchun uzoq vaqtga mo'ljallangan doimiy joylashgan punktida tez harakat qilish imkoniyatlarini kengaytirish⁹³.

⁹² Эгерт К.П. НАТО: Между атлантическим прошлым и глобальном будущим. <http://www.inion.ru/product/eurosec/st1vp13.htm>.; <http://www.eurasianet.org/index.shtml> 2004.

⁹³ Клименко С. Концепция НАТО «Многонациональные оперативные силы». // Зарубежное военное обозрение, 2005, № 12. – С. 15.

ISAF dastlabki foliyati Afg'oniston poytaxti Kobul va unga tutashgan hududlar xavfsizligini ta'minlash va shu orqali Muvaqqat hukumat va BMT xodimlarining faoliyat yuritishlarida yordam berish edi. Mamlakat poytaxtida ISAFning shtab-kvartirasi joylashgan bo'lib, mazkur javobgarlik zonasida «Kobul ko'pmillatli brigadasi» rejalashtirish va muvofiqlashtirish faoliyatini amalga oshirmoqda.

Shuni ta'kidlash kerakki, BMT XKning 2003 yilgi №1510– rezolyutsiyasiga muvofiq, NATOning vakolat doirasi Kobul shahri chegarasidan chiqib, asta-sekin butun AIR bo'ylab kengaytirildi. Nazorat avval Shimolga va G'arbga, keyin esa Janubga va nihoyat mamlakatning Sharqiga – Afg'onistonning eng xavfli va vaziyat tez o'zgaruvchan bo'lgan mintaqalariga kengaytirildi⁹⁴. Hozirgi vaqtda ISAF yuqoridagi vazifalarni bajarish maqsadida faoliyatini bir nechta mintaqaviy qumondonliklar asosida olib bormoqda.

Jumladan, 2006 yil 28-29 sentyabrda Sloveniyada NATOning Mudofaa vazirlari kengashi yig'ilishida AIRga qo'shimcha harbiylar kiritishga qaror qilindi va ular mamlakatning oltita janubiy viloyatlariga kiritilishi belgilandi. Shu orqali AIRda ISAF boshqaruvini optimallashtirishga navbatdagi qadam qo'yildi. Xususan, PTGlari soni 9 tadan 15 taga yetkazilib, AIR hududini to'rtta operativ va alohida – markaziy mintaqaga bo'lishga qaror qilindi. Ular: «Markaz», «Janub», «Sharq», «Shimol» va «G'arb» kabi mintaqaviy qo'mondonliklardan iborat edi.

Ta'kidlash joizki, 2010 yilda AIRdagi harbiy-siyosiy vaziyat murakkablashgani bois operatsiyalar olib borishni faollashtirish va optimallashtirish maqsadida mintaqaviy qo'mondonliklar soni ko'paytirildi. Unga ko'ra, AIRdagi eng notinch hudud hisoblangan «Janub» ikkiga ajratilib, «Janub» va «Janubi-G'arb» mintaqaviy qo'mondonliklari tashkil qilindi.

Hozirgi kunda mazkur mintaqaviy qo'mondonliklar tashkiliy jihatdan 6 ta bo'lib, ularning har biriga NATOning yetakchi mamlakatlari harbiylaridan qo'mondonlar tayinlangan. Unga ko'ra: «Markaz» (Turkiya); «Janub» (AQSH);

⁹⁴«Хавфсизлик йўлида ҳамкорлик» // http://www.nato.int/ebookshop/introduction_to_nato/nato_security_uz.pdf.

«Janubi-Gʻarb» (AQSH); «Gʻarb» (Italiya); «Shimol» (Germaniya) va «Sharq» (AQSH).

Ayni vaqtda ushbu mintaqaviy qoʻmondonliklar tarkibida 28 ta PTG mavjud boʻlib, ularda ISAF ishtirokchi mamlakatlarining davlat tuzilmalaridan harbiy boʻlinmalar, politsiyalar va noharbiy boʻlgan shaxslar faoliyat koʻrsatmoqda⁹⁵.

Bundan tashqari, mamlakatning Sari-pul, Samangan va Shibirgʻon viloyatlarida NATOning «suniy yoʻldosh xizmati» tizimi va MozoriSharif shahri yaqinida front ortidagi taʼminot bazasi joylashtirilgan.

ISAF harbiy harakatlari tahlili shuni koʻrsatmoqdaki, koalitsion kuchlarning faoliyati harbiy operatsiyalar olib borish, PTG doirasida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishi borasidagi tadbirlari va AXK tayyorlash kabi tendensiyalar bilan xarakterlanmoqda.

Harbiy operatsiyalar:

Taʼkidlash kerakki, ISAF oʻz vazifalari doirasida 2001 yildan buyon va 2003 yildan keyin NATO qoʻmondonligi ostida «Tolibon» harakati va boshqa noqonuniy qurolli guruhlar otryadlariga qarshi harbiy operatsiyalar oʻtkazib kelmoqda.

ISAF harbiy harakatlarni amalga oshirishi jihatdan shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruh – 2001 yildan buyon «Yengilmas ozodlik» operatsiyasi doirasida Pentagon qoʻmondonligi ostida alohida muhim boʻlgan janubiysharqiy viloyatlarda «Tolibon» harakati otryadlariga va ashaddiy terroristik guruhlariga qarshi kurashib kelayotgan AQSH, Yangi Zellandiya va Avstraliya harbiy boʻlinmalaridan tashkil topgan.

Ikkinchi guruh – bevosita janubiy hududlarda harbiy operatsiyalar olib borayotgan AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada va Gollandiya harbiy kontingentidan iborat.

Uchinchi guruh – AIRdagi nisbatan tinch boʻlgan shimoliy-gʻarbiy qismida harbiy vazifalarni bajarayotgan Ispaniya, Italiya, Germaniya, Fransiya va Turkiya kabi Shimoliy Atlantika ittifoqi mamlakatlarining harbiy kotingentidan iborat. Bu

⁹⁵ <http://www.isaf.nato.int/en/troop-contributing-nations/index.php> . Retrieved 2011-03-04

guruhga, nisbatan yangi a'zolar hisoblanadigan – Chexiya, Polsha, Sloveniya, Latviya, Estoniya va NATO a'zosi bo'lmagan, ammo Shimoliyatlantika hamkorligi dasturi (SEAP) bo'yicha afg'on muammosini hal qilishda ishtirok etayotgan Gruziya, Ukraina va Ozarbayjon harbiylarini ham kiritish mumkin.

Jumladan, AIRdagi harbiy operatsiyalar 2001 yil 7 oktyabrda «Yengilmas ozodlik» operatsiyasi bilan boshlangan edi. Undan so'ng 2001 yil noyabr-dekabr oylarida Kobul va To'ra-Bo'ra kompleksida maxsus harbiy operatsiyalar amalga oshirildi.

Shuningdek, ISAF tomonidan o'tkazilgan yirik operatsiyalardan biri 2002 yil mart oyida AQSH boshchiligida «Al-Qoida» terroristik tashkiloti jangarilariga qarshi amalga oshirilgan «Anakonda» harbiy operatsiyasidir. Birooq, 2003-2005 yillarda harbiy harkatlarning bir muncha kamayganligi kuzatiladi. Buning sababini, PTGning kengayishiga e'tiborning kuchaytirilishi, «Tolibon» harakatining kuch yig'ib olishi va AQSHning 2003 yilda Iroqda harbiy missiya boshlaganligi bilan ham izohlash mumkin. 2003 yilning yanvarida bir marta AQSH harbiylari «Tolibon» harakati va «Hizb-i-Islomi» qurolli guruhlariga qarshi «Mangust» operatsiyasini amalga oshiradi xolos. Bu davrda mamlakat xududida partizanlik urushlari faollashib ketadi va «Tolibon» harakati jangarilari Afg'oniston-Pokiston chegarasidagi nazoratsiz hududlarda o'z tarkibini kengaytirib, jangavor shayligini oshirib boradi.

Shu tufayli 2006 yilda koalitsion kuchlar mamlakat janubida harbiy harakatlarni faollashtirib yubordi. Xususan, 2006 yil avgustda «Tog'ni yorib o'tish», sentyabrda «Meduza» hamda 2006 yil sentyabrdan – 2007 yil yanvar oyigacha «Tog' g'azabi» nomli harbiy operatsiyalari amalga oshiriladi.

Ta'kidlash joizki, 2006 yilda Qandahorda o'tkazilgan «Meduza» operatsiyasi koalitsion kuchlarning dastlabki yirik masshtabdagi operatsiyalaridan biri hisoblanib, unda Buyuk Britaniya, Kanada, Niderlandiya va birinchi bor AIR harbiylari ishtirok etgan. Shu bilan birga, ISAF kuchlari 2007 yilning mart oyida janubdagi Helmand viloyatida «Lastay Kulang» va «Axilles» deb nomlangan navbatdagi yirik masshtabli harbiy operatsiyasini o'tkazdi.

Chunonchi, 2008 yilgi harbiy harakatlarning mohiyatiga ko'ra, «Tolibon» harakatining Pokiston (Vaziriston) hududidan ISAF harbiylariga «qarshi hujumi kuchaygan davr» deb baholash mumkin.

Xususan, 2008 yilning fevralida «Tolibon» harakati ISAFga Pokiston orqali keladigan harbiy yuklar avtokolonnasiga hujum qiladi. Shundan so'ng NATO harbiylariga yuklarni havo yo'li orqali yetkazish bo'yicha yo'lak yaratish uchun Rossiya Federatsiyasi bilan muzokaralar boshlandi. Bu esa, NATOning harajatlarini ko'paytirdi (RF har bir konteyner tranziti uchun 1,800 .doll. oladi.). Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, mazkur yuklar bevosita Markaziy Osiyo davlatlari orqali AIR hududiga kirib boradi .

Shuningdek, Afg'onistonda 2009 yil iyun oyida o'tkazilgan prezident saylovidan oldin AQSH va Buyuk Britaniya harbiylari «Xanjar» nomli navbatdagi yirik masshtabli va avgustda nemis va afg'on harbiylari hamkorlikda Choxar-dara uyezdida toliblarga qarshi «Burgut» nomli operatsiyasini amalga oshirdi.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2010 yilga kelib Afg'onistonda harbiy operatsiyalar olib borish faollashdi.

Xususan, Pentagon AIRdagi harbiy harakatlar uchun 2009 yilda 55,2 mlrd.doll ajratgan bo'lsa, 2010 yilda bu 72,3 mlrd.doll.ni tashkil qilgan. Shu bois, ISAFga 2010 yilda xalqaro kuchlarning barcha uchta guruhida ham operatsiyalar olib borish faollashgan.

Jumladan, AQSH, Buyuk Britaniya, Gollandiya, Kanada va AMA harbiylari ishtirokida 2010 yilning fevral-may oylarida Helmand viloyatida toliblarning ta'sirini kamaytirib, rasmiy hukumatning nazoratini oshirish hamda narkotik moddalar yetishtirish hajmini qisqartirish maqsadida yirik masshtabli «Mushtarak» va avgust oyida Qandahor viloyatida «Qandahordagi hamkorlik» operatsiyalari o'tkazildi. Bundan tashqari 2010 yil sentyabr-oktyabr oylarida Kandahor viloyatining Argandab, Zari va Panjvay uyezdlarida «Ajdarho zarbasi» deb nomlangan maxsus operatsiya amalga oshirildi.

Hozirgi kunga kelib mamlakat janubi eng notinch hududlardan biriga aylanib qolgan. Shu bois 9 yillik urushdan buyon ISAF tomonidan o'tkazilgan eng yirik

operatsiyalardan biri mazkur hududda olib borilib, AQSH prezidenti B.Obamaning 2009 yilning dekabr oyida Afg'onistonga qo'shimcha 30 ming nafar harbiy kiritish to'g'risida bergan bayonotiga ko'ra, kiritilgan harbiylarning asosiy qismi mamlakatning janubiga joylashtirilgan.

Shuningdek, 2010 yilning kuzida mamlakat janubidagi operatsiyalar olib borilayotgan bir vaqtda germaniyalik harbiylar joylashgan «shimol» mintaqaviy qo'mondonligida vaziyat yomonlashgani bois Balx viloyatida koalitsiya va afg'on harbiylari ishtirokida «Navruz» nomli yirik masshtabli harbiy operatsiya boshlandi. Ta'kidlash joizki, ayni vaqtda Bog'lon, Juzjon, Sari-Pul va Qunduz viloyatlarida AMA askarlari mazkur operatsiyaning tarkibiga kiruvchi kichik maxsus operatsiyalarni olib borib, ushbu hududlar jangarilardan tozalanmoqda⁹⁶.

Bundan tashqari, AQSH tomonidan «Al-Qoida» va «Tolibon» harakatining rahbar shaxslarini yo'q qilishga qaratilgan uchuvchisiz uchuvchi samolyotlardan foydalanib samarali operatsiyalar o'tkazilib kelinmoqda.

Bugungi kunda ISAF tarkibidagi AQSH, Avstraliya, Buyuk Britaniya, GFR, Ispaniya, Italiya, Kanada, Fransiya va boshqa davlat bo'linmalari harbiy operatsiyalarda yuqori texnologiyali uchuvchisiz uchuvchi samalyotlardan «Tolibon» yekstrimistik harakati va boshqa terroristik guruhlarining jangari qo'mondonlarini yo'q qilish hamda ular harakatiga oid razvedka ma'lumotlarini qo'lga kiritish maqsadida foydalanmoqda.

Jumladan, hozirda AIRda GFR Heron-1, Kanada va Avstraliya «Hermes-450», «Skylark», «Searcher-2» va «Aerostar», Ispaniya «Searcher Mk II-J», Polsha «Aerostar» nomli Isroilning «Israeli Aircraft Industries» (IAI) va «Aeronautics Defense Systems» (ADS) kompaniyalarida ishlab chiqarilgan uchuvchisiz uchuvchi samalyotlardan foydalanayotgan bo'lsa⁹⁷, ASHQ o'zining «Predator»⁹⁸,

⁹⁶ Армия Афганистана расширила территорию проведения войсковой операции «Навруз» на севере страны. // www.afghanistan.ru/doc/19559.html. 21.02.2011.

⁹⁷ «Австралия направит израильские БПЛА в Афганистан, а Бразилия – на Олимпиаду» <http://www.newsru.co.il/arch/world/11dec2009/heron702.html>; «Пилоты люфтваффе отправлены на обучение в Израиль» <http://lenta.ru/news/2010/01/29/bundeswehr/>; «Канада начала использовать израильские БПЛА в Афганистане» <http://army.lv/ru/bespilotniki/699/16860>; «Польские военные в Афганистане получают израильские БПЛА» http://www.newsru.co.il/world/11oct2010/aerostar_108.html.

⁹⁸ «Беспилотником Predator управляет пиратский софт» http://www.infox.ru/hi-tech/weapon/2010/08/18/Northrop_Grumman.phtml

«Reaper» va boshqa nomdagi uchuvchisiz uchuvchi samalyotlarlar yordamida «aniq zarba» nomli operatsiyalar o'tkazib kelmoqda.

Xususan, AQSH HHK Afg'oniston-Pokiston chegaralarida uchuvchisiz uchuvchi samalyotlarlar orqali 2004 yilda 1, 2005 yil-3, 2006 yil-5, 2007 yil-36, 2009 yil-53 hamda 2010 yilning fevral oyigacha 18 marotaba aviazarbalarni amalga oshirgan. Raketa zarbalari natijasida 2006 yil-122, 2007 yil-20, 2008 yil-268 va 2009 yilda 463 nafar jangarilar yo'q qilinganligi aniqlangan⁹⁹.

Ularning 20 nafari jangari qo'mondonlar hisoblanib, shular qatorida mulla Dodulla¹⁰⁰, hamda 2008 yil «Al-Qoida» yetakchilaridan biri Al-Libi va 2009 yil avgustda Vaziristondagi «Pokiston toliblari» lideri Baytulla Masud¹⁰¹ yo'q qilindi. Bundan tashqari, 2010 yilda AIRdagi eng radikal jangari guruhning rahbari hisoblangan Sirojiddin Haqqoniyning ukasi Muhammad Haqqoniy¹⁰² va Pokistonning Shimoliy Vaziriston viloyatidagi pokistonlik toliblar rahnamosi Hakimulla Mehsud yo'q qilindi.

Shuningdek, ISAF tomonidan AIRda harbiy operatsiyalarning samarali o'tkazilishiga to'siq bo'layotgan bir qator omillar kuzatilmoqda.

Birinchidan, ISAF qo'shinlari nazorat-hududlaridagi kamchiliklar. Jumladan, ISAFning sobiq qo'mondoni S.Makkristalning aytishicha, ittifoqchi qo'shinlar maxsus operatsiyalarni o'tkazgandan so'ng kichik hududlardan (uyezdlardan) harbiylarni olib chiqib, asosan yirik shaharlarning xavfsizligini ta'minlashga e'tibor qaratmoqda. ISAF askarlari chiqib ketgan joylarda «Tolibon» yekstrimistik harakati qaytadan o'rnashib olmoqda. Shuning uchun B.Obamaning 2009 yil dekabrda e'lon qilgan Afg'oniston bo'yicha strategiyasida 30 ming harbiy kiritilishini ta'kidlagan edi.

Ikkinchidan, «Tolibon» yekstrimistik harakatining uchinchi davlatlar tomonidan qo'llab-quvvatlanayotganligi. Jumladan, «RAND» amerika tadqiqot

⁹⁹ Берг И.С. «Об использовании бундесвером БПЛА в Афганистане» <http://www.iimes.ru/rus/stat/2010/13-03-.htm>

¹⁰⁰ В Афганистане убит один из лидеров талибов <http://news.mail.ru/society/arc. 7.06.2007;>

¹⁰¹ В Афганистане убит один из полевых командиров. Опубликовано в Независимой Газете от 15.05.2009
Оригинал: <http://www.ng.ru/world.05.15.2009>.

¹⁰² «Пакистанские СМИ: В результате удара БПЛА убит брат Сираджуддина Хаккани» // <http://www.afghanistan.ru>

tashkilotining hisobotida Pokiston hukumati «Tolibon» harakati liderlariga yordam berishni to'xtatmaganligini qayd qilgan. Shuningdek, «Arian-TV» mustaqil televideniyesi ham «Tolibon» yekstrimistik harakatiga nisbatan Pokiston ko'magi saqlanib qolayotganligini bildirgan (buni Buyuk Britaniya tadqiqot markazlari, AQSH va Afg'oniston maxsus xizmatlari va rasmiylari ham tasdiqlamoqda). «Afganistan.ru» rasmiy saytining ma'lumotlariga ko'ra, hozirda Pokistonda 4 mln.dan ortiq tolib 37 ming madrasa va 2 mingdan ziyod jangarilar tayyorlanadigan norasmiy markazlarda o'qitilmoqda.

Uchinchidan, ISAF/NATO qo'shinlariga harbiy va noharbiy yuklarni yetkazib berishda tranzit yo'llarida vujudga kelayotgan muammolar va mamlakatda terroristik aktlarning faollashuvi. Jumladan, BMT bosh kotibi Pan Gi Mun Afg'onistonda sodir etilgan teraktlar soni 2010 yilning to'rt oyi mobaynida 2009 yilning shu davriga nisbatan 94 foizga oshganligini ma'lum qilgan.

To'rtinchidan, harbiy operatsiyalarning ayrim jihatlari targ'ibot va OAV orqali fosh qilib yuborilayotganligi. Bu esa «Tolibon» jangarilari tomonidan preventiv (urushga tayyorlangan dushman hujumining oldini oluvchi) zarbalarning amalga oshirilishiga sabab bo'lmoqda. RF Zamonaviy Afg'onistonni o'rganish markazi eksperti A.Serenkoning fikricha, Qandahordagi «Tolibon» jangarilari o'zlariga moyil aholi orasida obro'sini saqlab qolish maqsadida koalitsion kuchlarga qo'qqisdan zarbalar bermoqda. Bu esa, o'z navbatida, ISAF harbiylari tomonidan amalga oshirilishi rejalashtirilgan maxsus operatsiyalarning barbod bo'lishiga olib kelmoqda.

Mazkur holat yuzasidan koalitsiya qo'mondonlarining fikricha, operatsiyalar o'tkazilishining oldindan e'lon qilinishidan asosiy maqsad toliblarning ushbu hududlarni o'z xohishlari bilan tark etishini ta'minlash orqali rasmiy hukumat nazoratini o'rnatishdan iboratdir.

Beshinchidan, «Tolibon» harakatining moliyaviy jihatdan kuchayishida tashqi kuchlarning o'rni. (AQSH misolida) Jumladan, 2010 yilda AQSH Kongressi Vakillik palatasining Milliy xavfsizlik va tashqi ishlar bo'yicha qo'mita rahbari J.Tirning amerikalik qonunchilarga taqdim etgan hisobotida, dala qo'mondonlari va

«Tolibon» harakati jangarilari «xususiy qo‘riqchilik firmalari» orqali harbiylarga kelayotgan yuklarni qo‘riqlashdan va ularni joylashtirishdan pul ishlab olmoqda. Vashington posti gazetasi ma’lumotlariga ko‘ra, Afg‘onistondagi AQSH harbiylari uchun yuklar Pokiston va Markaziy Osiyo orqali afg‘on transport kompaniyalari tomonidan yetkazib berilmoqda va bu xizmatlarga har yili 2 mlrd. dollar ajratiladi.

Oltinchidan, jangarilarning aksariyati aholi punktlarida harakatlanayotganligi sababli havo zarbalari tufayli tinch aholi orasida qurbonlarning ortib borayotganligi. AQSH Mudofaa vazirligining Kongressga taqdim etgan hisobotiga ko‘ra, 2010 yilning dastlabki to‘rt oyi mobaynida NATO harbiylari tomonidan harbiy harakatlarda ehtiyotsizlik oqibatida o‘ldirilgan tinch aholining soni 90 nafarni tashkil qilib, bu

2009 yilning shu davriga nisbatan 76 foizga o‘sgan. Bundan tashqari, Rossiyaning Yaqin Sharq instituti ma’lumotlariga ko‘ra, 2006 yil-20, 2008 yil-31, 2009 yil-43 hamda 2010 yilning fevraligacha 122 nafar tinch aholi uchuvchisiz uchuvchi samalyotlar zarbalaridan halok bo‘lgan¹⁰³. S.Makkristalning fikriga ko‘ra, ISAF harbiylari tomonidan bitta tinch aholini o‘ldirilishi yana o‘nta yangi dushman ko‘payishiga olib keladi.

Ta’kidlash joizki, tinch aholi orasida qurbonlarning ortib borayotganligi uchun AIR prezidenti H.Karzay joriy yilning 12 martida NATO va AQSH harbiylarini operatsiyalar olib borishni to‘xtatishga chaqirgan. Xususan, mart oyining boshida Kunar viloyatida o‘tkazilgan operatsiyalar vaqtida aviazarbalar natijasida 10 nafar bolalar qurbon bo‘lgan. Bundan tashqari, joriy yilning 10 mart kuni H.Karzayning amakasining o‘g‘li Yor Muhammad Karzay NATO harbiylarining xatosi natijasida o‘ldirildi¹⁰⁴.

Provinsiyalardagi tiklash guruhlar faoliyati:

Bugungi kunda ISAF tarkibidigi 28 ta PTG Afg‘onistonda masjidlarni tamirlash, maktab, tug‘riqxona, shifoxona va suv bilan ta’minlash inshootlarini

¹⁰³ Берг И.С. «Об использовании бундесвером БПЛА в Афганистане» <http://www.iimes.ru/rus/stat/2010/13-0310.htm>

¹⁰⁴ Хамид Карзай потребовал от США прекратить операции в Афганистане. // www.afghanistan.ru/doc/19696.html. 13.03.2011

barpo etish va afg'on politsiyachilarini o'qitish ishlari bilan faol shug'ullanib kelmoqda. Mazkur PTG ayrimlarining faoliyatiga to'xtalib o'tildi.

T'kidlash joizki, Vengriya, Italiya, Ispaniya, Polsha, Turkiya, Chexiya va boshqa koalitsiya davlatlari PTG da «jangarilarga qarshi qurolli kuchdan foydalanmasdan kurashish usuli»da olib bormoqda.

Jumladan, Bog'lon viloyatida 2006 yildan buyon Vengriya rahbarligida

PTG faoliyat yuritayotgan bo'lib, hozirda unda 200 dan ortiq vengriyalik harbiy xizmatchi va maslahatchilar ishlamoqda. 2010 yilda Vengriya ushbu PTG ishlari uchun o'z byudjetidan 2 mln yevro miqdorida mablag' ajratib, gilam ishlab chiqaruvchi to'quvchilik sexi, non va g'isht zavodlarini qurib bitkazdi. Bundan tashqari, Vengriyaga o'qishga jo'natilgan 14 nafar afg'on talabalari to'liq stipendiya bilan ta'minlandi.

Shuningdek, Polsha rahbarligidagi PTG G'azna viloyatidagi 50 ga yaqin loyihalarga homiylik qilib, viloyat markazidagi shifoxonalarga 40 ta koyek va rentgen apparatlarini o'rnatdi hamda viloyatning Sangemasha shahridagi bozorlar zarur dastgohlar bilan ta'minlandi. Bundan tashqari, huquqiy adabiyotlar kutubxonalari tashkil qilinib, turli mavzularda seminar mashg'ulotlari olib borilmoqda.

Shu bilan birga, Turkiya rahbarligidagi PTG Kobuldan g'arbdagi hududlarda, xususan, Vardak viloyatida faoliyat olib bormoqda. Mazkur PTG doirasida Turkiya 20 mlrd. dollardan ortiq investitsiya kiritib, qishloq xo'jaligini rivojlantirish maqsadida toshloq yerlarga ishlov berish, olma, uzum va bug'doy ekish texnikasini rivojlantirishga ko'maklashmoqda. Bundan tashqari mazkur viloyatda qo'l mehnati bilan to'qiladigan «qizil oltin» deb nomlanuvchi ingichki tolali matolarni ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan bo'lib, mazkur matoning bir funti (453,6 gr og'irlik) sifatiga qarab, 500 dan 5000 dollargacha bahoda xorij mamlakatlariga eksport qilinmoqda.

Kobuldan janubda joylashgan Lohar viloyatidagi Chexiyaning PTGdagi harbiy xizmatchilar va noharbiy mutaxassisleri tomonidan 2010 yilda 12000 o'quvchiga mo'ljallangan 77 ta sinfxonalar tamirlandi hamda Xushi tumanida qizlar o'qiydigan

2 maktab ishga tushirildi. Shuningdek, Chexiya AIRda aholini suv bilan ta'minlashga qaratilgan loyihalarga investitsiya ajratib kelmoqda. Xususan, mazkur viloyatdagi suv havzalarini chuqurlashtirish, yer osti suvlaridan foydalanish va Surhob suv omborini tamirlash ishlarini olib bormoqda. Mahalliy maktab direktori Vohob Ahmadzayning aytishicha, Surhob suv omborining tamirlanishi 11000 ming nafar fermerlarning yerlarini suv bilan ta'minlashda qulayliklar yaratadi.

Ta'kidlash kerakki, PTG doirasidagi ishlari Afg'onistondagi tiklash jarayonida muhim ahamiyat kasb etayotganligi e'tirof etilmoqda. Xususan, 2010 yil martda Kobulda bo'lib o'tgan xalqaro konfrinsiyada «PTG so'ngi 18 oy davomida mamlakatdagi muammolarni hal qilishda muhim strategik rol o'ynaganligi» ta'kidlandi. Shuningdek, AQSHning AIRdagi elchisi Mark Sedvillning aytishicha, harbiy operatsiyalar olib borilayotgan vaqtda PTGda aholi bilan hamkorlik qilishga alohida to'xtalib, quyidagi muhim jihatlarni ajratib ko'rsatdi:

Birinchidan, koalitsion kuchlar avvalo jangarilarga qarshi kurashish bo'yicha yangi tashabbuslarni bilishi zarur, bu esa bevosita afg'on xalqi bilan hamkorlik qilish orqali ma'lum bo'ladi.

Ikkinchidan, afg'on xalqiga mamlakat boshqaruvini topshirish uchun davlat boshqaruvi institutlari, qurolli kuchlar va fuqarolik sektorini qurish hamda mustahkamlash kerak.

Uchinchidan, isyonchilik harakati sifatidagi siyosiy konfliktlarni tartibga solish lozim¹⁰⁵.

Afg'oniston xavfsizlik kuchlarini o'qitish va tayyorlash:

Tahlillarga ko'ra, hozirgi vaqtda Afg'onistonda faoliyat olib borayotgan koalitsion kuchlar afg'on xavfsizlik kuchlarini (AMA, AMP va MXB) o'qitish va tayyorlashga muhim ahamiyat qaratmoqda. Bundan asosiy maqsad – 2011 yil iyun oyidan 2014 yilgacha AIRda xavfsizlikni ta'minlashni AXKga bosqichma-bosqich topshirib borishdir.

¹⁰⁵ Перестройка Афганистана – совместный проект. Международное сотрудничество осуществляется с целью реконструкции афганских провинций //per Concordiam. –Германия, 2010. №Том 1, Выпуск 3. –С. 40-43. (Европейский центр исследований по вопросам безопасности имени Джорджа К. Маршалла в ГармишПартенкирхене, Германия.).

Jumladan, 2002 yil dekabrda Germaniyada bo‘lib o‘tgan xalqaro konferensiyada NATO davlatlari AMA sonini 70 mingga yetkazishga qaror qilgan edi. Koalitsion kuchlar 2008 yildan AMA 171,6 mingga va AMP 134 mingga yetkazish vazifasini bajarishga kirishdi.

Xususan, 2011 yil yanvar holatiga ko‘ra AMA 152 mingdan ortiqni tashkil qilib, ular tarkibi 5 ta mintaqaviy armiya korpusi, bitta havo korpusi va Kobulda joylashgan diviziyadan iboratdir¹⁰⁶.

Bugungi kunda AMA shakllantirishda ISAF harbiylari maxsus tayyorlov markazlarini tashkil qilib, afg‘on askarlariga harbiy ta‘lim berib kelmoqda. Ular quyidagilar:

- AIR Mudofaa vazirligi qoshida Afg‘on milliy armiyasining o‘quv qo‘mondonligi (AMAO‘Q). U AMAg ta‘lim berish va tayyorgarlikdan o‘tkazish ishlari bilan shug‘ullanadi. Mazkur harbiy o‘quv yurti tarkibi – Qo‘mondonlik-shtab kolleji, Afg‘oniston Milliy Harbiy bilim yurti va Kobul Harbiy tayyorgarlik Markazidan iborat. Ta‘kidlash kerakki, AMAO‘Q dastlab NATO ko‘magida tashkil qilingan 13 ta maxsus ta‘lim yurtidan iborat edi.

- Afg‘onistonda xavfsizlikni ta‘minlash bo‘yicha birlashgan muvaqqat qo‘mondonligi¹⁰⁷. Uning shtabi Kobulda bo‘lib, ISAF qoshida NATO o‘quv missiyasini amalga oshiradi va rahbariyatida 15 nafar ofitserlar mavjud. Unda AQSHdan 9 nafar, Britaniya va Kanadadan 2 nafardan hamda Italiya va Polshadan 1 nafardan ofitserlar xizmat qiladi. Ayni vaqtda unga general-leytenant Uilyam Kolduell (AQSH) qo‘mondonlik qilmoqda¹⁰⁸. Mazkur organning asosiy vazifasi afg‘on xavfsizlik kuchlarini o‘qitish va rivojlantirishdir.

- Afg‘oniston – NATO mashq o‘tkazish missiyasi¹⁰⁹. Mazkur o‘quv markaz 2009 yil NATO davlatlari uchrashuvida tashkil etilgan edi. Hozirda unga AQSH rahbarlik qilib, AXK shakllantirishda ko‘maklashmoqda.

¹⁰⁶ Численность Афганской национальной армии достигла 152 тысяч человек.//26 января//http://polpred.com/?ns=1&ns_id=285155&PHPSESSID=1vj8rmoflmh6uh1kuecm0t12r4

¹⁰⁷ Combined Security Transition Command - Afghanistan (CSTC-A)

¹⁰⁸ Глава миссии подготовки афганских служб рассказал о ходе выполнения этой задачи. // <http://www.kgcentr.info/?pid=4&cid=7&nid=2129>. 10.10.2010

¹⁰⁹ NATO Training Mission - Afghanistan (NTM-A)

Bundan tashqari, 2011 yilda Qandahorda harbiy o'quv markazini qurish uchun AQSH tomonidan qiymati 160 mln. dollar va shu kabi sakkizta loyihaga umumiy summsi 130 mln. doll. miqdorida mablag' ajratilishi rejalashtirilmoqda. Shu bilan birga, yaqin kelajakda AMAning barcha armiya korpuslari uchun o'quv majmualari qurib berish ham ko'zda tutilmoqda. Ta'kidlash joizki, NATO ma'lumotlariga ko'ra, 2011 yilda AMA infrastrukturasi uchun shimoliy ittifoq mamlakatlari 1 mlrd. doll. ajratishni rejalashtirmoqda.

Shuningdek, U.Kolduellning ta'kidlashicha, NATO davlatlari AIR xavfsizlik tizimi uchun 2003-2010 yillar mobaynida umumiy hajmi 20 mlrd.dollar miqdorida moddiy yordami ko'rsatgan¹¹⁰. Xususan, Jahon qurolyarog' savdocini tahlil qilish markazi ma'lumotlariga ko'ra, ISAF davlatlari tomonidan 2010 yilda AXK uchun 4,7 mlrd. dollardan ortiq mablag'ga AQSHdan qurol-yarog' sotib olgan. Shuningdek, AQSH 2011 yilda harbiy o'quv missiyasi uchun 6,2 mlrd. doll. ajratishini ma'lum qilgan¹¹¹.

Bundan, tashqari, AIR HHK qo'mondoni Muhammad Davron 2016 yilgacha AQSH afg'on HHK uchun 3 mlrd. dollar ajratishni rejalashtirganligini ma'lum qilgan. Qo'mondon mazkur mablag'ning 800 mln. dollari afg'on askarlariga 4 ta harbiy qism qurish uchun, qolgan qismi esa, HHKni qurollantirish, harbiylarning taktik tayyorgarligini oshirish va ularni o'qitish uchun sarflanishini ta'kidlagan.

Mazkur harbiy o'quv missiyada NATO davlatlarining AIRdagi harbiy maslahatchi va instruktorlari AMAni NATO standartlari doirasida tayyorlamoqda.

Jumladan, NATO instruktorlari AMAning harbiy qismlarida batalon darajasigacha tayyorlab, mazkur batalonlarning shaxsiy tarkibi asosan Kobuldagi AQSH rahbarligidagi Harbiy o'quv markazlarida tayyorlanmoqda. Shu kabi chaqiriluvchilarni tayyorlash markazlari Xirof, Mozori-Sharif va Xo'st shaharlarida ham faoliyat yuritmoqda. Barcha chaqiriluvchilarning boshlang'ich tayyorgarligi

¹¹⁰ В.Петров: Печальные "рекорды" НАТО в Афганистане // <http://www.centrasia.ru/newsA.php?st=128936964>. (10.11.2010).

¹¹¹ В 2010 году НАТО и США выделяют \$11,6 млрд на обучение афганских сил // <http://www.afghanistan.ru/doc/19239.html>. 6.01.2011

standart ravishda yetti oylik kursdan iborat bo'lib, undan so'ng serjantlarning imkoniyatiga qarab olti oylik kurslarga jo'natiladi.

Shuningdek, hozirda kichik serjantlar tarkibi Kobuldagi Milliy harbiy akademiyada 4 yil davomida NATO instruktorlari tomonidan tayyorlanmoqda. Hamda ofitserlarni tezlashtirilgan tartibda tayyorlash Buyuk Britaniya qurolli kuchlari dasturlari asosida olti oyda tayyorlanayotgan bo'lsa, katta ofitserlar tarkibi esa Qo'mondonlik shtabi kollejida fransuz mutaxassislari dasturi asosida o'qitilmoqda.

Shu bilan birga, AMAO'Q uzluksiz harbiy ta'lim va murabbiylik tizimini «Murabbiylik va aloqa ekspluatatsiya qo'mondonligi» deb nomlanuvchi instruktorlik guruhlari orqali ta'minlamoqda. Mazkur guruhlarining har biri 11 nafardan 28 nafargacha instruktorlardan tashkil topgan bo'lib, hozirga vaqtda ISAF tarkibidagi mamlakatlardan kelgan 150 dan ortiq instruktorlik guruhlari mavjud va ulardan 76 ta guruh AQSHdan, Italiya va Buyuk Britaniyadan 7 tadan, Avstraliya, Kanada, Fransiya va Germaniyadan 6 tadan, Ruminiya va Turkiyadan 5 tadan va boshqa NATO davlatlar instrktorlaridan tashkil etilgan guruhlar faoliyat ko'rsatmoqda.

NATO ma'lumotlariga ko'ra, 2010 yil dekabr holatida AMAni tayyorlovchi 1,43 ming maslahatchi va 2 ming instrktorlar bir oy davomida taxminan 6 ming afg'on askarini tayyorlab bermoqda.

Ta'kidlash joizki, 2010 yil noyabrda bo'lib o'tgan NATOning Lessabon sammitida AMA va AMP tayyorlash bo'yicha yangi vazifalar ishlab chiqildi. Unga ko'ra, 2011 yilning oktyabr oyigacha AMA 171,6 mingga va AMP 134 mingga yetkazish belgilandi.

Biroq, mazkur vazifalarni amalga oshirishda to'siq bo'layotgan bir qator omillar kuzatilmoqda. Ular quyidagilar:

Birinchidan, harbiy mutaxassislarning yetishmayotganligi. Xususan, U.Kolduellning aytishicha, ayni vaqtda AIRda NATO o'quv missiyasini bajarish uchun taxminan 760 nafar harbiy maslahatchi va instruktorlar yetishmayapti. Bundan tashqari, NATO mutaxassislarning fikricha, AMAning 700 nafar askarini

o'qitish uchun bitta instruktorlik guruhlar zarur bo'ladi. Shu bois, hozirgi vaqtda AIRga 200 ta shunday guruhlar kerak bo'lmoqda.

Ikkinchidan, AMA askarlarining harbiy harakatlarda ishtirok etishidagi kamchiliklar. Jumladan, ekspertlarning baholashicha, 2010 yilning birinchi yarmida AMAning 10 ta shtab, 26 batalon va bir nechta maxsus bo'linmalari mustaqil ravishda jangarilarga qarshi operatsiyalarni bevosita rejalashtirib, amalaga oshirgan bo'lsa, 37 ta bo'linmalar esa ISAF bilan hamkorlikda operatsiyalar olib borgan. Biroq, 25 ta bo'linma birorta harbiy operatsiyalarda ishtirok etmagan.

Uchinchidan, AMA askarlarining savodsizligi. U.Kolduellning ta'kidlashicha, xizmatga chaqiriluvchilarning 80%dan ortig'i o'qish va yozishni bilmydi.

To'rtinchidan, Harbiy xizmatdan qochishning saqlanib qolayotganligi. U.Kolduellning aytishicha, AMAda 9-10 % xizmatdan qochish mavjud.

Ta'kidlash joizki, Afg'onistondan xorijiy harbiy kontingentlarni olib chiqib ketish so'ngi yillarda bahsli masalalardan biri bo'lib qolayotgan edi. Biroq, Shimoliy alyansning Lissabon sammitida NATO davlatlari AXKga mamlakat xavfsizligini ta'minlashni 2011 yilning iyulidan 2014 yilgacha bosqichma-bosqich topshirib, koalitsion qo'shinlarni olib chiqishni mo'ljallagan edi¹¹². Shuningdek, joriy yilning 11 mart kuni Bryusselda ISAF doirasida operatsiyalarda ishtirok etayotgan 48 ta davlatlar Mudofaa vazirlari uchrashib, AIRdan xorijiy harbiy kontingentlarni 2014 yilning oxiriga qadar olib chiqib ketishini rasmiy ravishda e'lon qildi¹¹³. Unga ko'ra, afg'on harbiylariga dastlab 5 mingga yaqin Germaniya harbiylari nazorat qilayotgan «shimol» mintaqaviy qo'mondonligi, xususan, Mozori-Sharifdagi harbiy bazalar topshirilishi rejalashtirilmoqda.

Shunday bo'lsada, so'nggi vaqtlarda AQSH tomonidan «doimiy bazalar» qurish ishlari olib borilmoqda. Xususan, AQSH Mudofaa vazirligi AIRda 2011 yilning iyul oyigacha 3 ta ilg'or operativ bazalar qurishni va ularning har biri uchun 100 mln. dollardan mablag' ajratishni mo'ljallamoqda. Mazkur bazalar: Kobul shimolidagi Shindon uyezdida, Helmand viloyati Kemp-Duayrdagi AQSH harbiy-

¹¹² НАТО отрицает существование графика передачи контроля безопасности афганским силам // 11:51 | 9.11.2010 // <http://www.afghanistan.ru>

¹¹³ НАТО официально объявила об уходе из Афганистана. // <http://www.warandpeace.ru/ru/news/view/56220/>

dengiz kuchlarining bazalari hududida va Balx viloyati Mozori-Sharif shahrida barpo qilinadi¹¹⁴.

2-bob bo'yicha xulosalar

Xullas, Markaziy Osiyo muammolarining ko'plab mamlakatlar manfaatlari bir-biri bilan yo'g'rib ketgan qattiq tuguniga aylangan Afg'oniston bora-bora xalqaro terrorizm va ekstremizm qo'llabquvvatlanadigan markazga aylanib qoldi. Pokiston razvedka tuzilmalari tomonidan vujudga keltirilgan va moliyalashtirilgan «Tolibon» harakati XX asr oxirida qator sabablarga ko'ra «Katta o'yin»da o'zi uchun ajratilgan kichkina rolni «ijro etish»dan bosh tortganda Afg'onistonda ham shu kabi hol ro'y berdi. Pokiston rahbariyatining fuqarolar urushini tugatish, Afg'onistonning parchalanganligini bartaraf etish, hamma uchun manfaatli bo'ladigan yangi transport yo'laklarini ochish singari bir qarashda olijanob niyatlari oxiroqibatda faqat afg'on xalqi va Markaziy Osiyo mintaqasi uchun emas, balki butun jahon uchun keng ko'lamli fojeaga aylandi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib ikkinchi bandga xulosa sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

➤ Afg'onistonda deyarli 10 yildan buyon zamonaviy qurollardan foydalanib, turli msshtabdagi harbiy operatsiyalar o'tkazilayotgan bo'lsada bir qator muammolar kuzatilmoqda. Mazkur muammolar asosan harbiylarning tashkiliy faoliyatidagi kamchiliklar hamda tashqi ta'sirning saqlanib qolayotganligi sababli vujudga kelmoqda. Shunga ko'ra, bu muammolarni saqlanib qolishi toliblar va boshqa jangari guruhlarining yanada faollashuvi, ISAF harbiy harajatlari samarasizligining oshib ketishi va ISAFga nisbatan afg'on xalqi, mamlakat rasmiylari va xalqaro hamjamiyat tomonidan ishonchsizlikni (norozilikni) kuchayishi mumkin;

➤ Bugungi kunda mamlakatda milliy armiyani shakllantirishga qaratilgan tegishli koalitsion kuchlar tomonidan olib borilayotgan kompleks chora-tadbirlar ko'lamining kengligiga qaramay, yaqin istiqbolda AIR xarbiylarining

¹¹⁴ Азими: 2014 год не означает окончание иностранного военного присутствия в Афганистане. // www.afghanistan.ru/doc/19599.html. 25.02.2011.

mamlakat xavfsizligini ta'minlash borasida mustaqil faoliyat yuritishiga erishish murakkabligicha qolaveradi. Bunga milliy armiyaning tayyorgarlik darajasi hamda AQSHning mintaqadagi pozitsiyasini saqlab qolishga urinishi asosiy omil bo'lib xizmat qiladi;

➤ PTGda olib borilayotgan ishlar esa mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil bo'lib, ular faoliyati afg'on xalqi tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Shu bois, AIRdan ISAF harbiylarini olib chiqib ketilgandan so'ng ham PTG noharbiy mutaxassislar faoliyati davom etaveradi;

➤ AIRdan xorijiy harbiy kontingentlarni olib chiqib ketish masalasi rasmiy ravishda 2014 yil deb belgilangandi. Shu bois, dastlab mamlakatning shimol va g'arbidagi harbiy kotingentlar chiqib ketdi. AQSH harbiylarini olib chiqishiga to'xtaladigan bo'lsak, rasmiy Vashingtonning o'tgan yili 30 ming qo'shin kiritilishi va 2011 yildan ularni olib chiqish boshlanishi bir muncha tahlillarni talab qiladi. Ya'ni, buni «qo'shin olib chiqish uchun, qo'shin kiritgan» deb baholash mumkin. AQSH dastlab ko'p miqdorda harbiylarini olib chiqib ketib, OAV «mavzusiga» aylangandan so'ng amerikalik harbiylarning ma'lum qismi mamlakatda qoldiriladi. Holbuki, AIRda AQSHning 3 operativ baza qurayotganligi ham bejizga emas.

III BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING AFG'ONISTON BILAN MUNOSABATLARI TARIXI

3.1 O'zbekiston tashqi siyosatida Afg'oniston muammosi

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng mintaqaviy hamda milliy xavfsizlikni ta'minlash, xususan, Afg'onistondagi ziddiyatlarga barham berish O'zbekistonning ham ichki ham tashqi siyosatida ustuvor yo'lishlardan biri sifatida olib borildi. Bu borada prezident I.Karimov o'z asarida shunday degan edi: - «O'zbekiston respublikamiz bilan chegaradosh mamlakatlardagi harbiy-siyosiy mojarolarni tinch yo'l bilan hal qilishga va ularning oldini olishga qaratilgan harakatlarni, amaliy qadamlarni qo'llab-quvatlab keldi va bundan buyon ham qo'llab-quvatlayveradi. Bu yo'lda mamlakatimiz ham o'z davlat siyosati doirasida, ham xalqaro tashkilotlar mexanizmlaridan foydalangan holda, mavjud imkoniyatlarni aniq maqsadni ko'zlab ishga soladi. Butun milliy strategiyamizning asosiy yo'nalishlaridan biri ana shunday mazmun-mohiyatga ega»¹¹⁵.

So'nggi 30 yil mobaynida bo'lib o'tgan hodisalar Afg'onistonda kuch bilan hech qanday natijaga erishib bo'lmasligini, faqat o'zaro kelishuv natijasida tinchlikni ta'minlash va mamlakatdagi barcha siyosiy kuchlarni qanoatlantiruvchi hokimiyat o'rnatish mumkinligini ko'rsatdi. Shundan kelib chiqib O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosatida mazkur davlatdagi ziddiyatli vaziyatni tinch yo'l bilan bartaraf etish borasidagi masala ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib keldi¹¹⁶. Mintaqaviy hamda milliy xavfsizlikni ta'minlash nuqtai nazaridan O'zbekiston Afg'oniston bilan o'zaro aloqalarini turli sohalarda rivojlantirib kelmoqda. O'z mustaqilligining dastlabki yillaridan O'zbekiston tomoni qo'shni afg'on hukumati bilan yaxshi qo'shnichilik aloqalarini yo'lga qo'yishga intildi. Jumladan, 1992 yilning 13 oktyabrida mamlakatimizga Afg'oniston Prezidenti B.Rabboniy

¹¹⁵ Каримов И. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: «Ўзбекистон», 1997. – Б. 33.

¹¹⁶ Каримов И. За укрепления безопасности и сотрудничества в регионе. Выступление на Ташкентском совещание-семинаре по безопасности и сотрудничеству в Центральной Азии. 15 сентября, 1995г.// По пути созидания:Т.4 -Т.: «Узбекистан», 1996. –С. 35.

boshchiligidagi delegatsiya tashrif buyurib respublikamiz Prezidenti I.Karimov bilan muzokoralar olib borgan edi¹¹⁷. Ushbu muzokoralar yakunida «O‘zbekiston Respublikasi va Afg‘oniston Islom Davlati o‘rtasida diplomatik aloqalarni o‘rnatish to‘g‘risida» Protokol, «O‘zbekistno Respublikasi va Afg‘oniston Islom Davlati o‘rtasidagi hamkorlik to‘g‘risida» Memorandum, shuningdek ikki davlat o‘rtasida havo transporti aloqalarini yo‘lga qo‘yish to‘g‘risidagi hujjatlar imzolangandi. Bu bilan mazkur davrda O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatida qo‘shni Afg‘onistonda barqarorlikni o‘rnatish borasida o‘zaro aloqalar olib borish yangicha ko‘rinish oldi. Mazkur davlat bilan yaqin qo‘shnichilik aloqalarini yo‘lga qo‘yish, uzoq yillar davomidagi urushlar natijasida aziyat chekkan afg‘on xalqiga turli sohalarida yordam ko‘rsatish, mamlakatda barqarorlikni o‘rnatish bo‘yicha boshqa davlatlarga o‘rnak bo‘ladigan siyosat olib borildi. O‘tgan qisqa davr ichida uzilib qolgan aloqalar qayta tiklandi va munosobatlarni tartibga soluvchi bir qator shartnoma va kelishuvlar qabul qilindi. O‘zbekiston tomoni ushbu vaqt ichida Afg‘onistonga tinchlik va barqarorlikni o‘rnatish bo‘yicha o‘zining doimiy ravishdagi tashabbuslari hamda amaliy ko‘magini ko‘rsatib keldi. O‘tgan yillar davomida O‘zbekiston respublikasining Afg‘onistonga nisbatan tashqi siyosiy faoliyatigi nazar soladigan bo‘lsak, bu davrni shartli ravishda uch bosqichga bo‘lib o‘rganish mumkin:

1. Birinchi bosqich 1991-1996 yillar;
2. Ikkinchi bosqich 1996-2001 yillar;
3. Uchinchi bosqich 2001 yildan keyingi davr;

1-bosqich o‘z ichiga mustaqillikning birinchi kunlaridan 1996 yil, ya’ni Afg‘onistonda Tolibon hokimiyati o‘rnatilguncha bo‘lgan yillarni o‘z ichiga qamrab oladi. Ushbu davrda davlatlar o‘rtasidagi hamkorlik aloqalari o‘rnatildi. 1992 yil oktyabr oyidan O‘zbekistonning Afg‘onistonda konsulligi o‘z faoliyatini ko‘rsata boshladi. Uzoq yillik urushlar natijasida ikki davlat o‘rtasidagi uzulib qolgan aloqalar qayta tiklanadi. Sohalararo munosobatlarni tartibga soluvchi ayrim kelishuv va shartnomalar imzolanadi. Umuman bu bosqichda tomonlar o‘rtasidagi

¹¹⁷ Тюриков В., Шагулямов Р. Независимая Республика Узбекистан. -Т.: «Ўзбекистон», 1997. -Б.55.

aloqalarning poydevori shakllanish vaqti sifatida qarashimiz mumkin. Shu yillar ichida O'zbekiston Afg'onistondagi beqaror vaziyatni tinch yo'l bilan bartaraf etishga harakat qildi. O'zbekiston prezidenti I.Karimov 1993 yil BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida bu mamlakatdagi chigal ahvolni bartaraf qilishga birinchi bo'lib jahon jamoatchiligining e'tiborini qaratib, bu masalaning nechog'liq jiddiy ekanini alohida takidlab o'tdi¹¹⁸. BMT Bosh Assambleyasining 1995 yilda bo'lib o'tgan 50-sessiyasida esa davlatimiz rahbari Afg'oniston muammosini bartaraf etish borasida qator amaliy takliflarni ilgari surdi. Xususan, bu davlatga qurol-yaroq kiritishni qat'iy ravishda taqiqlash zarurligini alohida qayt etdi¹¹⁹.

«Tolibon» harakatining o'zaro kurashga qo'shilishi Afg'onistonda yangi vaziyatni vujudga keltirdi. Bu harakatning harbiy kuchlari 1994 yilning kuzida dastlabki muvaffaqiyatga erishdi. 1996 yil 27 sentyabrda ular Qobulni ishg'ol qilib, prezident B.Rabboniy va G.Hikmatyor hukumati ag'darib tashlanganini, mamlakatda shariat qonun-qoidalariga asoslangan «chin islom boshqaruvi» joriy etilganini bildirdi¹²⁰.

1996 yil 10 oktyabrda mamlakat shimolida toliblarga qarshi koalitsiya tuzildi. Xinjon shaxrida harbiy rahbarlar A.R.Do'stim, A.Sh.Ma'sud, A.K.Xaliliy harbiy ittifoq haqida bitim imzoladilar va Oliy mudofaa kengashi (OMK) tuzdilar. OMK shimoldagi 9 viloyatni o'ziga xos hukumati bo'lib, uning qarorgohi Mozori Sharif edi¹²¹.

Bu hukumat avvalgi barcha davlat tuzilmalari o'z faoliyatini ko'rsatishda davom etishini, chet ellardagi diplomatiya va konsullik vakolatxonalari Afg'oniston manfaatlarini himoya qilishini ma'lum qildi. Keyinchalik OMK tarqatilib, uning o'rniga Afg'oniston birlashgan islom najot fronti tuzildi. Front toliblar bilan muzokara o'tkazishga tayyor ekanini bildirdi. Shuningdek, shu yillar ichida

¹¹⁸Жўраев С. Ўзбекистон Республикаси ташқи сиёсати ва дипломатияси. –Т.: «Академия», 2007. –Б.129.

¹¹⁹Каримов И. Бунёдкорлик йўлидан. 4-жилд. Т.: «Ўзбекистон», 1996. –Б. 56-59; Янгича фикрлаш ва ишлаш - давр талаби. 5-жилд. –Т.: «Ўзбекистон», 1997. –Б. 249-252.; Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – провард мақсадимиз. 8-жилд. –Т.: «Ўзбекистон», 2000. –Б. 83-86.; Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё, ҳамкорлик йўли. 11-жилд. –Т.: «Ўзбекистон», 2003. –Б. 222.

¹²⁰Турдиев И. Движения «Талибан» в новейшей истории Афганистана: магистрский диссертация. –Т.: ВШСАП, 2005. –Б.27.

¹²¹Герасимов М. «Кто станет главным миротворцем?». Независимая газета. 1997.05.11. – С.3.

prezident I.Karimov boshqa ko‘plab xalqaro anjumanlarda, turli davlatlar rahbarlari bilan muzokoralarda mintaqa xavfsizligini mustahkamlash, buning uchun eng avvalo, Afg‘oniston mojarosini tinch yo‘l bilan bartaraf etish zarurligini e‘tirof etib keldi. Zero, Afg‘onistondagi urush nafaqat bizga, yoinki mintaqamizga, balki xalqaro xavfsizlikka, xatto insoniyat kelajagiga jiddiy xavf tug‘dirayotganligi sir emas edi. Bu vaqtga kelib mazkur muammo faqatgina qurolli xarakatlar bilangina bog‘liq bo‘lmasdan, balki bu tuproqda ulkan miqdorda narkotik moddalar yetishtirilayotganligi va qurol yaroq kontrabandasi avj olayotgani, terrorchilik va diniy ekstremizm kabi illatlar ildiz otayotganligi ham jahon axlini xaqli ravishda tashvishga solardi.

2-bosqich o‘z ichiga 1997 yil Afg‘onitonda Tolibon hokimiyati o‘rnatilishidan 2001 yil AQSH boshchiligidagi Xavfsizlikka Ko‘maklashuvchi Xalqaro Kuchlarning ushbu davlatga kiritilishiga qadar bo‘lgan vaqtni o‘z ichiga qamrab oldi. Bu davrning o‘ziga xos jihati shundanki, Afg‘onistonda tolibon hokimiyatining o‘rnatilishi natijasida tomonlar o‘rtasidagi aloqalar ma‘lum muddatga to‘xtab qolganini ko‘rishimiz mumkin. «Tolibon» harakati 1996 yilda mamlakat poytaxti Qobulni egallab, hukumat tepasiga kelgach, ikki tomonlama munosabatlar butunlay to‘xtab qoldi. Bunga «Tolibon» harakatining Xalqaro Huquq normalariga muvofiq kelmaydigan bir necha hatti-harakatlari sabab bo‘ldi. «Tolibon» harakatining bevosita bizning Amudaryo sohilidagi chegaralarimizga chiqqani 1998 yilda va undan keyingi yillarda, ayniqsa, tahlikali vaziyat yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. Bu yovuz kuchlar mintaqadagi vaziyatni batamom izdan chiqarish va qo‘shni davlatlar, jumladan, O‘zbekiston hududini ham bosib olishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan edi. Bugun biz shunday deb aytish uchun yetarli ma‘lumotlarga egamiz»¹²².

Afg‘onistonga qo‘shni bo‘lgan boshqa davlatlar qatorida O‘zbekiston tomoniga ham «Tolibon» harakati tahdid sifatida namoyon bo‘ladi va tabiiy ravishda o‘zaro aloqalar tizimiga jiddiy zarar yetqazganligini ko‘rishimiz mumkin.

¹²² Каримов И. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. Асарлар тўплами. 10-жилт. -Т.: «Ўзбекистон», 2002. – Б.130-138.

1998 yilga kelib mamlakatning ayrim shimoliy hududlaridan tashqari barcha qismi Tolibon hukumati nazorati ostiga o'tdi. Ichki ziddiyatlar avj olgan bir vaqtda «Tolibon» harakatining o'zaro kurashga qo'shilishi Afg'onistonda yangi vaziyatni vujudga keltirgan edi. Buning natijasida Afg'onistondagi ahvol yanada murakkablashib bordi. 1997 yil «Tolibon» harakati mamlakatning nomi Afg'oniston amirligi deb o'zgartirilganligini rasmiy e'lon qildi. 1999 yil oxirida «Tolibon» harakati a'zolari mamlakat hududining 80 foizdan ortig'ini nazoratini o'z qo'liga oldilar. Tolibon ma'muriyatini 3 davlat: Pokiston, Saudiya Arobistoni va Birlashgan Arab Amirliklari tan olgan. Jahon hamjamiyati tomonidan esa prezident B.Rabboniy boshchiligidagi Afg'oniston hokimiyati hamon birdan-bir qonuniy hukumat deb tan olinardi ¹²³. BMT yig'ilishlarida ham Rabboniy hukumatidan doimiy vakil qatnashib kelardi. Endilikda davlatda davom etayotgan urush balosi bilan birga, narkotik moddalar va qurol-yaroq kontrabandasi, diniy eksiremizm va fanatizm, terrorchilik xavfi mintaqadagi barcha davlatlar qatorida O'zbekistonga xam jiddiy taxdid solayotgan edi. Iqtisodiy raqobatchilik va etnik kelishmovchilik kabi omillar ham Afg'onistondagi har xil jamoa va qabilalar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni chuqurlashib bordi. So'ngi 20 yil ichida bo'lib o'tgan voqealar Afg'onistonda kuch bilan hech nimaga erishib bo'lmashligini, faqat o'zaro kelishuv natijasida tinchlikka erishish va mamlakatdagi barcha siyosiy kuchlarni qanoatlantiruvchi hokimiyat o'rnatish mumkinligini ko'rsatdi¹²⁴. 1999-2000 yillardan boshlab, bir tomondan, terrorizm xavfi, ikkinchi tomondan – Afg'onistondan kelayotgan kundan-kun o'sib boayotgan narkotik, terroristik va diniy-ekstremistik tushdagi tahdid kuchaya bordi. Bu kabi xavf-xatarlarning namoyon bo'lishi ularga qarshi hamkorlikda muayyan chora ko'rish bo'yicha Markaziy Osiyo davlatlari harakatlarini faollashtirdi. Afg'onistonning yaqin qo'shnilaridan bo'lmish O'zbekiston ana shularni e'tiborga olib, Afg'oniston muammosini tinch bartaraf etishga intilib keldi. Mamlakatda boshqa davlatlarning aralashuvisiz barqarorlikni taminlashning iloji yo'qligini to'g'ri baholagan

¹²³ Акимбеков С. Афганский узел и проблемы безопасности Центральной Азии. – А.: «Таймас», 2005. –С.130.

¹²⁴ Каримов И. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. 10-жилд. – Т.: «Ўзбекистон», 2002. – Б.138.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti 1997 yil Afg'onistonga chegaradosh 6 mamlakat O'zbekiston, Turkmaniston, Eron, Pokiston, Tojikiston, Xitoy hamda AQSH va Rossiya ishtirokida mazkur muammoni bartaraf qilish bo'yicha muloqot o'tkazish tashabbusi bilan chiqdi¹²⁵. Bu tashabbus yuqorida aytib o'tilgan davlatlar tomonidan ijobiy baholanib, tez orada mazkur muammo yuzasidan «6+2» ishchi guruhi tashkil etildi. Uning birinchi uchrashuvi 1997 yili 16 oktyabrda Nyu-Yorkda bo'ldi. Nihoyat, 1999 yil 19 iyulda Toshkentda shu guruhning navbatdagi uchrashuvi o'tkazildi. Unda qatnashchi davlatlar bilan bir qatorda Afg'onistondagi nizolashayotgan tomonlar: «Tolibon» harakati va Afg'oniston Birlashgan fronti vakillari ishtirok etishi katta voqea bo'ldi. Anjuman nihoyasida «Afg'onistondagi mojaroni tinch yo'l bilan bartaraf etishning asosiy tamoyillari to'g'risida» Toshkent Deklaratsiyasi imzolandi. Qabul qilingan Toshkent deklaratsiyasi BMT hujjati maqomini oldi¹²⁶. Xususan, 2000 yil aprelda Toshkentda «Tomonlarning terrorizm, siyosiy va diniy ekstremizm, transmilliy uyushgan jinoyatchilik va boshqa xavfsizlik hamda barqarorlikka qarshi tahdidlarga qarshi kurashishda hamkorlikda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar to'g'risida»gi bitim imzolandi. 2001 yil iyun oyida diniy ekstremizmga qarshi kurashish bo'yicha idoralararo kompleks reja ishlab chiqildi.

Takidlash kerakki, «6+2» guruhining tashkil topishi, uning uchrashuvlarining tashkil etilishi o'z-o'zidan bo'layotgan ish emas edi. U nihoyatda mashaqqatli va og'ir mehnat mahsuli edi. Xususan, bu jarayonda O'zbekiston xukumatining salmoqli hissasi bor edi. Negaki, Afg'onistonda tinchlik va barqarorlik o'rnatilishi mamlakatimiz, qolaversa, butun mintaqa xavfsizligini taminlash uchun sharoit yaratardi. Xavfsizlik va barqarorlik esa taraqqiyotning eng muhim shartidir.

3-bosqich o'z ichiga 2002 yil, ya'ni Afg'onistonga Xavfsizlikka Ko'maklashuvchi Xalqaro Kuchlar kiritilishidan boshlab hozirgi kungacha bo'lgan davrni qamrab olmoqda. Bu davrda AQSH boshchiligidagi antiterror operatsiyasining

¹²⁵ Каримов И. Выступление на внеочередной встрече глав государств-членов ЭКО 13 мая 1997. // По пути безопасности и стабильного развития. Т.6,Т., «Узбекистон», 1997,-С.18-20.

¹²⁶ Материалы Ташкентской встречи группы 6+2 по Афганистану под эгидой ООН. (19-20 июля 1999г.)-Т.: 1999.-С.18.

o'tqazilishi, «Tolibon» harakatiga qaxshatqich zarba berilishi hamda davlat boshqaruvida demokratik saylovlar natijasida yangi xukumatning o'rnatilishi Afg'onistonning O'zbekiston tomoni bilan o'zaro aloqalarning konstruktiv ko'rinish olishiga olib keldi. Bu bosqichning boshlang'ich davrida Afg'oniston hududlarida yashiringan xalqaro terroristik guruhlariga qarshi qaratilgan aksiterror operatsiyasini O'zbekiston tomoni birinchilardan bo'lib qo'llab-quvvatlashini ma'lum qildi hamda Xavfsizlikka Ko'maklashuvchi Xalqaro Kuchlarga noharbiy bo'lgan yuklarni o'z hududidan olib o'tishga ruxsat berdi. O'zbekiston tomoni Afg'oniston tarixida birinchi bor demokratik saylovlar asosida hokimiyatga kelgan H.Karzay boshchiligidagi Afg'onistonning Muvaqqat hukumatini birinchilardan bo'lib tan oldi va hozirgi kunga qadar mazkur hukumatni qo'llab-quvvatlab kelmoqda ¹²⁷. Shubha yo'qki, bu voqealar xavfsizlik borasidagi tomonlararo munosabatlarni qayta rivojlanishi Afg'onistonda tinch hayotni qaror topishi hamda qayta tiklanish jarayoniga bir oz bo'lsada ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Hususan O'zbekiston Respublikasi H.Karzay boshchiligidagi Afg'onistonning Muvaqqat hukumatini yakdillik bilan tan olib va uni to'laligicha qo'llab-quvvatlashini e'lon qildi. Shubha yo'qki, ikki tomonlama munosabatlarni o'rnatilishi uzoq yillik urushlardan charchagan afg'on halqiga bir oz bo'lsada tinch hayotni qaror toptirishda va bu mamlakatni qayta tiklash jarayonining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 3 yanvardagi «O'zbekiston va Afg'oniston O'rtasidagi yaxshi qo'shnihilik va o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish, O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyati qatorida Afg'onistonni qayta tiklash jarayonidagi ishtirokini ta'minlash to'g'risida» Farmoniga asosan mamlakatimiz Afg'onistondagi yuqorida tilga olingan jarayonda faol ishtirok etib kelmoqda ¹²⁸. Ikki davlat rasmiy delegatsiyalarining uchrashuvlarida Afg'oniston muvaqqat hukumati raisi Hamid Karzayning 2002 yil 2-4 mart kunlari mamlakatimizga tashrif buyurishi alohida o'rin tutadi. 2002 yil 4 mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov H.Karzayni qabul qildi

¹²⁷ Каримов И. Узбекистан придает важное значения активизации взаимодействия НАТО с государствами Центральной Азии по вопросам обеспечения безопасности РИА «Новости» 25 ноябрь 2002г.

¹²⁸ Бекарор Афғонистон. «Ўзбекистон овози» рўзномаси. 2002 йил 4 март. №20

va ushbu uchrashuvda O'zbekiston-afg'oniston munosabatlarning ahvoli, ularni rivojlantirish istiqbollari, Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish, mojarodan keyingi davrda mamlakatni qayta tiklash hamda boshqa dolzarb xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga ega masalalar muhokama qilindi.

H. Karzay O'zbekiston Respublikasining izchil va prinsipial siyosati, xususan, 20 yildan ko'proq davom etgan afg'on mojarosini hal etishga jahon hamjamiyatini da'vat etib, ushbu muammoni yechish bo'yicha aniq va muhim tashabbuslar bilan chiqqani uchun O'zbekiston xalqiga va shaxsan Prezident I.Karimovga minnatdorchilik izhor etdi. Bu o'rinda H.Karzay O'zbekiston Respublikasining tashabbusi bilan tuzilgan va Afg'onistonga chegaradosh olti davlat Eron, Pokiston, Xitoy, Turkmaniston, Tojikiston, O'zbekiston hamda Rossiya va AQSH a'zo bo'lgan «6+2» muloqot guruhi afg'on mojarosini hal etishda ijobiy rol o'ynaganligini ta'kidlab o'tdi¹²⁹.

O'zbekiston tomoni Afg'onistondagi xalqaro narkobiznesni jahon hamda mintaqaviy xavfsizlikka tahdid solayotganligini anglagan holda, BMT homiyligida giyohvand moddalarni nazorat qilish va jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha departament dasturlari doirasida giyohvand moddalarni noqonuniy aylanishiga va har qanday shakldagi xalqaro terrorizmga qarshi ekanligini, bu borada xalqaro hamjamiyat bilan yaqin hamkorlik qilishga doim tayyorligini bildirdi¹³⁰. Afg'oniston muvaqqat hukumati raisi H.Karzay afg'on xalqiga insonparvarlik yordami yetkazib berishdagi hamkorligi, sa'y-harakatlari va amaliy tadbirlari, shuningdek Afg'onistonga yordam sifatida berilgan «O'zDEUavto» va «SamKochavto» qo'shma korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan umumiy qiymati 350 ming AQSH dollarigaga teng 18 dona yengil va yuk avtomobillari uchun O'zbekiston tomoniga afg'on xalqi nomidan minnatdorchilik bildirdi. Muzokaralar davomida Afg'onistonni qayta tiklash bo'yicha Bonn va Tokio Xalqaro Konferensiyalarining natijalari yuqori baholandi va afg'on hududida sanoat, qishloq

¹²⁹Ўзбекистон Республикаси ташқи ишлар вазирлигининг Афғонистон Муваққат ҳукумати раиси Ҳамид Карзайнинг Ўзбекистон Республикасига расмий ташрифи якунлари юзасидан қўшма баёноти. Тошкент. 2002 йил 4 март.

¹³⁰Жўраев С. Ўзбекистон Республикаси ташқи сиёсати ва дипломатияси. –Т.: «Академия», 2007. –Б.124-127.

xo‘jaligi, irrigatsiya inshootlarini qurish hamda transport infrastrukturasi qayta tiklash, shuningdek kadrlar va mutaxassislar tayyorlash kabi sohalarda o‘zaro hamkorlikdan ikki tomon ham manfaatdor ekanligi ta’kidlandi va o‘zaro munosabatlarning mustahkam huquqiy asosini yaratishga kelishib olindi¹³¹.

2002 yilning 27 dekabrda Toshkentda O‘zbekiston, Eron va Afg‘oniston davlatlari vakillarining uchrashuvi chog‘ida Doxarun-Hirot-Termiz avtomagistralini qayta tiklashdagi hamkorlik to‘g‘risida Memorandum imzolandi. Bundan tashqari ushbu anjuman doirasida «O‘zavtoyo‘l» Davlat Aksionerlik Kompaniyasi va Afg‘oniston jamoat ishlari Vazirligi O‘rtasida Termiz-Mozori Sharif-Shibirg‘on-Maymana-Hirot avtomobil yo‘lini hamkorlikda qurish to‘g‘risida shartnoma ham imzolandi¹³².

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov boshchiligida mamlakatimiz delegatsiyasining 2003 yil 18 iyunida Eronga rasmiy tashrifi chog‘ida Afg‘oniston orqali o‘tib Eronning Hind okeani portlariga chiquvchi transport yo‘lagini barpo etish borasida ikki davlat rahbarlari bilan muzokaralar o‘tkazildi. Muzokaralar yakunida O‘zbekiston, Afg‘oniston va Eron O‘rtasida « Xalqaro transport yo‘nalishlari to‘g‘risida» Bitim imzolandi.

2003 yil sentyabrda O‘zbekistonga Afg‘oniston Jamoat ishlari vaziri A.Ali boshchiligidagi delegatsiya tashrif buyurdi. Hukumatimiz vakillari bilan bo‘lgan uchrashuv chog‘ida Afg‘onistondagi qayta tiklash ishlari jarayonidagi hamkorlikni kengaytirishning istiqbollari, ayniqsa avtomobil va temir yo‘llari qurilishi bo‘yicha loyihalarni moliyalashtirish masalalari muhokama qilindi. Jumladan, Termiz-Mozori Sharif-Hirot avtomobil magistrali qurilishi sur‘atlarini tezlashtirish hamda Mozori Sharif aeroportini rekonstruksiya qilish masalalari muzokaralar diqqat markazida bo‘ldi¹³³. Transport sohasidagi ikki tomonlama hamkorlikning huquqiy asoslaridan biri bo‘lgan hujjat «O‘zbekiston va Afg‘oniston O‘rtasida transport

¹³¹ Hamkorlik aloqalari rivojlanmoqda. «Turkiston» рўзномаси. 2002 йил 5 март. № 27

¹³² Туляганова Н. «Афганский фактор в современных международных отношениях в Центральной Азии». -Т.: «Фан», 2004. –С. 136.

¹³³ Парамонов В. Узбекский-афганский экономические отношения и их международный контекст: от оценки проблем к поиску решений.//Афганистан и безопасность Центральной Азии. Выпуск 2. Бишкек.: «Илим», 2005. –С.171.

sohasidagi hamkorlik to'g'risida» Memorandum ikki davlat rasmiy vakillari tomonidan 2003 yil 6 noyabrda imzolandi.

2003 yil 8 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Tashqi Ishlar Vaziri S.Safojevning Afg'onistonga rasmiy tashrifi bo'lib o'tdi. Tashrif chog'ida S.Safojev Afg'oniston o'tish Hukumati boshlig'i H.Karzay, hukumat boshlig'ining o'rinbosari X.Arsala, Afg'oniston Tashqi Ishlar Vaziri A.Abdullo va Afg'oniston Transport Vaziri A.Javad bilan uchrashdi. S.Safojev va Afg'oniston Tashqi Ishlar Vaziri A.Abdullo o'rtasidagi uchrashuvi chog'ida 2002 yil 22 dekabrda imzolangan kobil Deklaratsiyasida ko'rsatilgan shartlarga og'ishmay amal qilish muhimligi ta'kidlab o'tildi¹³⁴.

O'zaro uchrashuvlar davomida O'zbekistonning Afg'onistonni qayta tiklash jarayonidagi, xususan Termiz-Mozori Sharif-Hirot avtomobil yo'lini qayta ta'mirlash borasidagi sa'y-harakatlariga yuqori baho berildi. O'zbekiston Respublikasi Tashqi Ishlar Vaziri Afg'oniston hukumati O'zbekiston ilgari surgan transafg'on yo'lagining qurilishini qo'llab-quvvatlaganini va bu borada tegishli hujjatni imzolashga tayyorligini bildirganidan mamnun ekanligini ta'kidlab o'tdi. Tashrif davomida O'zbekiston tomonidan ilgari surilgan Termiz va Mozori Sharifni bog'lovchi Afg'oniston tarixidagi ilk temir yo'l qurilishi masalasi ham muhokama etildi. Ikki tomonlama muzokaralar yakuniga yetgach S.Safojev va Afg'oniston Transport Vaziri A.Javad «O'zbekiston va Afg'oniston Islomiy O'tish Davlati o'rtasida temir yo'l transporti sohasidagi hamkorlik to'g'risida» Bitimni imzoladilar¹³⁵. Ikki qo'shni davlat o'rtasidagi munosabatlarda savdo-iqtisodiy sohadagi hamkorlikning ham muhim ahamiyatga ega ekanligini hisobga olgan holda, ushbu tashrif chog'ida «O'zbekiston va Afg'oniston Islomiy O'tish Davlati o'rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlik to'g'risida»gi Bitim ham imzolandi.

Yuqoridagi ikki hujjatning imzolanishidan ham ko'rinib turibdiki, Afg'oniston tomoni O'zbekistonning Afg'onistonni qayta tiklash jarayonidagi, xususan transport va savdo-iqtisodiy sohalaridagi ishtirokiga katta e'tibor bilan qaramoqda.

¹³⁴ ЎзА – Ўзбекистон Миллий Агентлиги хабари. 2003 йил 1сентябрь. <http://www.UzA.uz>

¹³⁵ « Афғонистон ҳудудига тижорат юкларини транспортировка қилишни ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Вазирлар маҳкамасининг 2002 йил 31 январдаги №41 қарори.

Shuningdek, mamlakatimiz Tashqi Ishlar Vaziri 2003 yil 8 dekabrda Qobulda O'zbekiston Respublikasining Afg'onistondagi elchixonasini ochilish marosimida ham ishtirok etdi. Eslatib o'tish kerakki, O'zbekistonning diplomatik missiyasi Qobulda 2002 yil oxiridan buyon faoliyat yuritgan bo'lsa, mamlakatimizning Afg'onistondagi Bosh Konsulligi Mozori Sharif shahrida joylashgan bo'lib, u 2001 yilning oxiridan buyon faoliyat olib bormoqda¹³⁶. 2004 yil 31 mart - 1 aprelda Berlinda O'tkazilgan Xalqaro Konferensiya doirasida Afg'oniston va unga chegaradosh 6 ta davlat –O'zbekiston, Xitoy, Eron, Pokiston, Tojikiston hamda Turkmaniston o'rtasida «Narkotik moddalarga qarshi kurash bo'yicha Deklaratsiya»ni imzoladilar¹³⁷. Deklaratsiya ishtirokchilari, shu jumladan O'zbekiston ham Afg'oniston bilan chegara xududlarida bufer zonasini yaratishga va narkotik moddalarning tarqalishi (narkotrafik)ga qarshi hamkorlikda kurashishga kelishib oldilar.

2004 yilning 16-17 iyun kunlari Toshkentda Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (SHHT) ga a'zo davlat rahbarlarining navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tdi. SHHT bugungi kunda mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash, terrorizm, ekstremizm, separatizm va narkobiznesga qarshi kurashda alohida pozitsiyaga ega bo'lib, ushbu tashkilotning faoliyatiga boshqa davlatlar qiziqish bilan qaramoqda va uni qo'llab-quvvatlamoqda¹³⁸.

Shu o'rinda shuni aytib o'tish kerakki, Afg'onistonning faol ishtirokisiz mintaqada terrorizm, ekstremizm va narkotik moddalar savdosiga qarshi kurashish yaxshi samara bermasligi ko'pchilikka ma'lum. Buni hisobga olgan holda, davlatimiz rahbari I.Karimov Afg'oniston Prezidenti H.Karzayni ham SHHTning Toshkentdagi yig'ilishiga taklif etdi. Rossiya, Xitoy, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Afg'oniston Prezidentlari va Mongoliya davlat rahbarining vakili ishtirok etgan SHHTning Toshkent sammitida Afg'onistondagi ahvol, qayta

¹³⁶ Хавфсизлик ва барқарорликнинг муҳим омили. «Афғонистонда тинчлик ва барқарорлик» мавзусидаги халқаро конференция материаллари. Тошкент. // Жамият, 2008 йил 2 май. №19

¹³⁷ Сафаев С. «Региональное развитие и постконфликтное восстановление Афганистана» Материалы международной конференции (2004 йил 31 март - 1 апрел, Берлин.)

¹³⁸ Худойбердиев Б. Шанхайская Организация Сотрудничества: к новому качеству отношений // «Безопасность и взаимопонимание в Центральной Азии» материалы международной конференции (16-18 2006г. февраль Москва) –Т.: 2006,-Б.91.

tiklanish jarayonida SHHTga a'zo davlatlarning ishtirokiga oid masalalar batafsil muhokama qilindi¹³⁹. 2005 yil 29 avgust kuni Afg'oniston Islomiy Respublikasi rasmiy delegatsiyasi Tashqi Ishlar Vaziri A.Abdullo boshchiligida mamlakatimizga tashrif buyurdi. A.Abdulloning O'zbekiston Respublikasi Tashqi Ishlar Vaziri S.Safojev bilan bo'lgan uchrashuvi chog'ida Afg'onistondagi qayta tiklanish jarayonining borishi, shu jumladan aholini ish bilan ta'minlash, xalq ta'limi hamda sog'liqni saqlash sohalariga tegishli masalalar muhokama markazida bo'ldi¹⁴⁰. Afg'oniston tashqi siyosat mahkamasi rahbari tiklanish jarayonida xalqaro hamjamiyat qatorida O'zbekiston tomonidan ham ko'rsatilayotgan ko'mak uchun minnatdorchilik izhor etdi.

Afg'oniston rasmiy delegatsiyasining O'zbekiston Respublikasi Bosh Vaziri o'rinbosari – Transport Vaziri R.Yunusov bilan bo'lgan uchrashuvida ikki davlat o'rtasidagi transport kommunikatsiyalari sohasidagi, xususan Termiz-Xayraton-Mozori Sharif temir yo'li loyihasini qurilishidagi ikki tomonlama hamkorlikka doir masalalar muhokama qilindi. Muzokaralar yakunida «O'zbekiston va Afg'oniston Hukumatlari o'rtasida tranzit va transport sohalaridagi hamkorlik to'g'risida» Bitim imzolandi. Shu kuni afg'on rasmiy delegatsiyasi vakillari O'zbekiston Respublikasi Bosh Vaziri o'rinbosari, Iqtisodiyot Vaziri R.Azimov va Tashqi iqtisodiy aloqalar Agentligi Raisi E.G'aniyev bilan uchrashdi va O'zaro savdo-iqtisodiy aloqalarning bugungi kuni hamda istiqbollari borasida fikr almashishdi. Muzokaralar davomida savdo-iqtisodiy sohadagi hamkorlik bo'yicha o'zbek-afg'on hukumatlari qo'shma komissiyasining faoliyatiga doir protokol imzolandi. Tomonlar o'rtasidagi aloqalarda 2006 yil noyabr oyida «O'zbekenergo» DAK hamda Afg'oniston energetika va suv resurslari vazirligi o'rtasida imzolangan «Energetika sohasida hamkorlik to'g'risida» Memorandum alohida ahamiyatga ega. Bu xujjatdan kelib chiqqan holda bugungi kunda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. «O'zbekenergo» DAK boshlig'i B. Teshaboyev fikricha, davlatlar o'rtasida yuqori quvvatli elektr uzatish liniyasi qurilishi yakunlanmaganligi elektroenergiya eksporti hajmini

¹³⁹ Жўраев С. Ўзбекистон Республикаси ташқи сиёсати ва дипломатияси. –Т.: «Академия», 2007. –Б.253-264.

¹⁴⁰ Туляганова Н. «Афганский фактор в современных международных отношениях в Центральной Азии». –Т. «Фан», 2004. –С. 136.

o'shishga to'sqinlik qilmoqda. Hozirda Kobul va Xayraton shaharlari (AIR) oralig'ida (420 km.) yuqori quvvatli elektr uzatish liniyasi barpo etilmoqda (65 foizi tugallangan). U Afg'onistonning 5 ta provinsiyasi hududidan o'tadi va O'zbekiston elektroenergiya tizimiga tutashadi. Shu bois « Xayraton» va «Surxon» podstantsiyalari qurilishi jadallik bilan amalga oshirilmoqda. Loyiha yakunlanishi bilan O'zbekiston tomoni Afg'onistonga 2,6 mlrd.kVt.soat hajmida elektr energiyasi yetkazib berish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ayni kundagi aloqalar rivojiga 2007 yil 18 iyulda Toshkentda bo'lib o'tgan o'zbek-avg'on savdo-iqtisodiy yo'nalish bo'yicha xukumatlararo qo'shma majlisi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu uchrashuvda Afg'oniston savdo va ishlab chiqarish vaziri Muxammad Farxang boshchiligi delegatsiya ishtirok etdi. O'zbekiston tomonidan ushbu sohaga aloqador bo'lgan bir qator vazirlik va qo'mitalar vakillari qatnashdilar.

Shuningdek, temir yo'l qurilish borasida ham bir qancha loyihalar amalga oshirilmoqda. Chunonchi, 2015 yy. mo'ljallangan Termez - Xayraton - Mazari-Sharif temir yo'li qurilishi davom etmoqda. Bu loyixa amaliyotga tadbqiq etishni tezlashtirish borasida 2008 yil 24 dekabr Osiyo Taraqqiyot Banki xomiyligi ostida Afg'oniston Moliya vaziri Anvar Axadi va O'zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalar vaziri Elyor G'aniyev o'rtasida memorandum imzolandi. Ikki davlat mutaxassislaridan tashkil topgan ishchi guruhi tuzilib qilinadigan ishlar bo'yicha kelishib olindi. OTB prezidenti Xarixiko Kurodi so'zlariga ko'ra, bu yo'l mazkur bank tomonidan Markaziy Osiyo hududida qurilishi mo'ljallangan 6 loyixaning biri bo'lib yaqin kunlarda bu loyihalarga nisbatan 5 mld. doll. ajratilib, 2015 yilga qadar mazkur loyihalarga nisbatan qo'shimcha 14 mld. doll. yo'naltirilishi takidlandi. Afg'oniston moliya vaziri fikricha, mazkur yo'lning ishga tushirilishi tomonlar o'rtasidagi aloqalar mustahkamlanishida o'zining ijobiy samarasini beradi.

Umuman olganda mintaqaviy hamda milliy xavfsizlikni ta'minlash borasida O'zbekiston Afg'oniston o'zaro aloqalarining birinchi va ikkinchi bosqichlarida davlatlararo munosabatlar o'zining shakllanish davrida bo'lgan bo'lsa, ayni vaqtdagi uchinchi bosqich Afg'oniston tomonida barqarorlikning ta'minlanishi bilan bog'liq xolda asta-sekinlik bilan rivojlanib bormoqda. Hozirda O'zbekiston

Respublikasi Afgʻoniston bilan bilan oʻzaro munosabatlarni qobul Deklaratsiyasi shartlariga qatʼiy amal qilgan holda amalga oshirmoqda. Jumladan, ikki tomonlama munosabatlarda davlatimizning hech qanday siyosiy maqsadlarni koʻzlamasdan, faqat qoʻshnimizning iqtisodiy-ijtimoiy sohadagi muammolarini bartaraf etish borasidagi yordamlari, madaniy-maʼrifiy sohaning yuksalishi uchun koʻrsatayotgan koʻmaklari diqqatga sazovordir. Buning isboti sifatida Prezidentimiz I.Karimovning quyidagi soʻzlarini keltirish oʻrinli boʻlar edi. «Keyingi paytda Afgʻoniston hududida boʻlayotgan oʻzgarish va jarayonlarni oʻzicha tahlil qiluvchi va ulardan turli-tuman xulosa chiqaruvchilar soni koʻpayib borayotganini tabiiy bir hol sifatida qabul qilishimiz kerak, deb hisoblayman. Lekin, bu voqealar va oʻzgarishlar qaysi tomonga burilishidan qatʼiy nazar, biz oʻzimizning xolisona qarashlarimizda qatʼiy turishimizni hech qachon unutmasligimiz lozim»¹⁴¹.

3.2 Oʻzbekiston Respublikasining Afgʻoniston muammosini hal etish yoʻlidagi faoliyati.

Oʻzbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq qoʻshni Afgʻonistondagi vaziyatni barqarorlashtirishga tashqi siyosatining eng muhim masalalaridan biri sifatida eʼtibor qarata boshladi. Mazkur muammo nafaqat Oʻzbekiston milliy xavfsizligiga, balki Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik va barqarorlikka bevosita daxl soluvchi xalqaro munosabatlar tizimidagi eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizning afgʻon muammosini hal qilishdagi ishtiroki mintaqaviy va global darajada uning yechimini topish boʻyicha bir qancha taklif va tavsiyalarni ilgari surishda namoyon boʻlmoqda. Xususan, Oʻzbekistoning Afgʻonistonda barqarorlikni taʼminlash borasidagi tashabbuslarini davr nuqtai nazardan 3 ta bosqichga ajratish mumkin¹⁴²:

Birinchi bosqich (1991-1996 yillar) – Afgʻonistondagi vaziyatni tartibga solish boʻyicha Oʻzbekistonning asosiy yondashuvlari boʻlib, mazkur davrda

¹⁴¹ И.А.Каримов. Асарлар тўплами. 10-том. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. Тошкент. «Ўзбекистон» нашриёти. 2003 йил. 136-б.

¹⁴² Акмалов Ш. Национальная стратегия Республики Узбекистан в вопросах мирного урегулирования афганского конфликта. Т.: «Тошкент ислом университети», 2009. – С.12.

mamlakatimiz rahbari Afgʻoniston va Tojikistonda sodir boʻlayotgan konfliktlarga asosiy eʼtiborni qaratdi. Bundan tashqari, ushbu bosqichda davlatimiz rahbari BMT ¹⁴³, YEXHT ¹⁴⁴ va boshqa xalqaro tashkilotlar tribunallarida soʻzlagan nutqlarida hamda NATO va Yevropa Ittifoqiga aʼzo mamlakatlar rahbarlari bilan rasmiy uchrashuvlarda¹⁴⁵ afgʻon muammosini tartibga solish boʻyicha bir necha bor jahon hamjamiyatining eʼtiborini qaratishini taʼkidladi.

Ikkinchi bosqich (1997-2001 yillar) – afgʻon inqirozining yechimini topish boʻyicha Oʻzbekiston rahbariyatining koʻp tomonlama tashabbuslarining amalga oshishi boʻlib, mazkur davrda Oʻzbekiston tashabbuslari jahon hamjamiyati tomonidan maʼqullanib, ularni amalga oshirish boʻyicha bir qator tadbirlar olib borildi. Xususan, 1997 yil Oʻzbekiston rahbariyati tashabbusi bilan Afgʻoniston bilan chegaradosh boʻlgan 6 ta davlat – Eron, Xitoy, Pokiston, Tojikiston, Turkmaniston, Oʻzbekiston, shuningdek, AQSH va Rossiya davlatlari ishtirokida «6+2» muloqot guruhi tashkil etildi¹⁴⁶. Shuningdek, Oʻzbekiston tashabbusi bilan 1999 yilda Toshkentda BMT vakillari hamda AIRdagi bir-biriga qarama-qarshi boʻlgan tomonlar – Shimoliy alyans (Birlashgan front) va « Tolibon» harakati vakillari ishtirokida muzokara oʻtkazildi. Uchrashuvda «Afgʻonistonda konfliktni tartibga solishning asosiy tamoyillari toʻgʻrisida»gi Toshkent Deklaratsiyasi qabul qilinib, unda Afgʻonistonda urush harakatlarni toʻxtatish, mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotini rivojlantirishga eʼtibor qaratishga alohida eʼtibor qaratildi. Oʻzbekiston rahbariyati bularni bosqichma-bosqich olib borish zarurligini taʼkidladi ¹⁴⁷. Qayd etish lozimki, «6+2» muloqot guruhi BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy vakillaridan AQSH va Rossiyaning ishtiroki bois, afgʻon konfliktini tartibga solishda samarali faoliyat koʻrsatdi. Bundan tashqari, davlatimiz rahbari mazkur davrda jahon hamjamiyatini Afgʻonistondan boʻladigan tahdidlar

¹⁴³ 1993 yil 28 sentyabr – BMT Boʻsh Assambleyasining 48- va 1995 yil 24 oktyabr – BMT Boʻsh Assambleyasining 50-sessiyalarida

¹⁴⁴ 1994 yil dekabr – EXXТнинг Будапешт саммитида

¹⁴⁵ 1996 yil 23 июнь – Флоренцияда ЕИга аъзо мамлакатларнинг давлат ва ҳукумат бошликлари билан бўлиб ўтган ва 1996 yil 14 ноябрь – Ўзбекистон Республикаси Президенти И.Каримов ЕИ Комиссияси ва НАТО раҳбарлари билан учрашувларда

¹⁴⁶ Ташкентская встреча группы «6+2» по Афганистану под эгидой ООН. Пресс-релиз. Ташкент-1999. - С.7

¹⁴⁷ Об итогах проведения под эгидой ООН Ташкентской встречи группы «6+2» по Афганистану. ИА «Жахон».- 22.07.1999.

saqlanib qolayotganligini ta’kidladi va terrorizmga alohida etobor qaratishga undab, terrorizmga qarshi kurashish bo’yicha Xalqaro markazni tashkil qilish¹⁴⁸ va BMT doirasida terrorizmga qarshi kurashish bo’yicha Xalqaro konfrensiya o’tkazish¹⁴⁹ lozimligini taklif qildi.

Uchinchi bosqich (2001 yil 11 sentyabr voqealaridan hozirgi kunga qadar) – 2001 yil 11 sentyabrda AQSHda sodir etilgan terrorchilik aktlaridan so’ng, O’zbekistonning Afg’oniston hududidagi terrorizm va boshqa transchegaraviy tahdidlarga qarshi kurash bo’yicha jahon hamjamiyatiga qo’shilish bosqichi bo’lib, ushbu davrda O’zbekiston va jahon hamjamiyatining Afg’onistondagi vaziyatni tartibga solish bo’yicha siyosatida jiddiy o’zgarishlar sodir bo’ldi. Davlatimiz rahbari O’zbekiston AQSH bilan terrorizmga qarshi kurashishda faol hamkorlik qilishni ta’kidlab, Afg’oniston hududida faoliyat olib borayotgan «Tolibon» harakati va «Al-Qoida» terroristik tashkilotining lagerlarini yo’q qilish uchun keng miqyosda harbiy operatsiya o’tkazish va terrorizmga qarshi kurashish bo’yicha xalqaro koalitsiyani shakllantirish to’g’risidagi tashabbusini qo’llab-quvvatlashini ma’lum qildi. Shu bilan bir qatorda, 2001 yil 5 oktyabrda O’zbekiston Prezidenti I.Karimov yurtimizga tashrif buyurgan AQSH Mudofaa vaziri D.Ramsfeld bilan bo’lgan uchrashuvda Qashqadaryo viloyatidagi «Xonobod» va Termiz shahri yaqinidagi «Kokaydi» aerodromlari insonparvarlik yuklarini afg’on xalqiga yetkazib berish va qidiruv-qutqaruv ishlarini olib borish maqsadida AQSH harbiylarining foydalanishia kelishib olindi¹⁵⁰. Ta’kidlash joizki, ayni vaqtda «Kokaydi» aerodromidan xalqaro koalitsiya tarkibidagi Germaniya va boshqa davlat harbiylari noharbiy yuklar tranzitini amalga oshirshda foydalanib kelmoqda. Shuningdek, Afg’onistondagi ISAF harbiylari uchun noharbiy yuklar Navoiy viloyatidagi xalqaro logistika markazi orqali ham yetkazib berilmoqda. Afg’onistondagi murakkab vaziyatni hal etish bo’yicha O’zbekistonning eng nufuzli xalqaro minbarlardan muhim amaliy tashabbuslarni doimiy ravishda bayon

¹⁴⁸ 1999 йил 18 ноябрь – ЕХХТнинг Истамбул саммити.

¹⁴⁹ 2000 йил 8 сентябрь – Нью-Йоркда бўлиб ўтган БМТ Бош Ассамблеясининг «Минг йиллик саммити».

¹⁵⁰ Акмалов Ш. Национальная стратегия Республики Узбекистан в вопросах мирного урегулирования афганского конфликта. Т.: «Тошкент ислом университети», 2009. – С.19.

qilib kelayotgan davlatimiz rahbari I.A.Karimov NATO/SEAP tashkilotining 2008 yil aprel oyida bo‘lib o‘tgan Buxarest sammitida afg‘on muammosini faqat harbiy yo‘l bilan yechib bo‘lmasligi to‘g‘risidagi fikrni birinchi bo‘lib o‘rtaga qo‘ydi va mazkur mojaroni siyosiy yo‘l bilan hal etish maqsadida «6+2» muloqot guruhini «6+3» guruhiga aylantirish haqidagi taklifni ilgari surdi¹⁵¹. Bu guruhga Afg‘oniston bilan qo‘shni bo‘lgan davlatlar, AQSH va Rossiya hamda NATO vakillari kirishi nazarda tutiladi. Prezident Islom Karimovning takliflariga ko‘ra ushbu guruh faoliyati Afg‘onistonda quyidagi ijtimoiy-siyosiy masalalarni hal etishga qaratilgan:

Birinchidan, oddiy xalqning ehtiyojini qondirish.

Ikkinchidan, Afg‘oniston aholisining ish bilan bandligini ta‘minlash.

Uchinchidan, hokimiyatning vertikal boshqaruv idoralari nufuzini mustahkamlash.

To‘rtinchidan, afg‘on xalqining xalqaro koalitsiya kuchlariga nisbatan ishonchini qozonish.

Beshinchidan, xalqaro hamjamiyat imkoniyatlari hisobidan Afg‘onistonga moddiy yordam va ko‘mak ajratish.

Oltinchidan, afg‘on xalqining diniy, milliy, madaniy qadriyatlari va urf-odatlarini hurmat qilish.

Mamlakatimiz rahbarining ushbu «6+2» muloqot guruhini «6+3» ga aylantirish bo‘yicha tashabbusi so‘ngi vaqtlarda keng jamoatchilik, xususan, xorijiy siyosatchilar, diplomatlar, ekspert va mutaxassislar tomonidan katta qiziqish bilan o‘rganilmoqda. Ularning tahliliga ko‘ra, «6+3» guruhining quyidagi xususiyatlarini alohida ajratib ko‘rsatish mumkin:

Birinchidan, Afg‘onistondagi vaziyatni tartibga solish bo‘yicha 2001-2011 yillar davomida olib borilayotgan harbiy harakatlar afg‘on muammosini hal qilishda harbiy kuchdan foydalanish samarasiz ekanligi ko‘rsatdi. Shu bois, mazkur tashabbus eng maqbul va dolzarb deb baholanmoqda¹⁵².

¹⁵¹Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислон Каримовнинг НАТО/СЕАП саммитидаги нутқи Бухарест ш., 3 апрель 2008 й. // <http://www.press-service.uz/uz/gsection.scm?groupId=5254&contentId=38305>

¹⁵² Ахмедов Р. Состояние и перспективы обеспечения безопасности в Афганистане в рамках «6+3» // http://www.cps.uz/rus/analitics/express_analiz/sostoyanie_i_perspektivi_obespecheniya_bezopasnosti_v_afganistan

Ikkinchidan, ushbu tashabbus nafaqat Afg'onistonda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha muammolarni bartaraf etishda, balki xalqaro xarakterdagi boshqa muammolarni hal qilishda muhim omil bo'lishi mumkin. Xususan, Pokiston-Afg'oniston chegara muammolari, AQSH-RF, AQSH-XXR, AQSH-Eron, NATO-RF va boshqa mazkur guruhda ishtirok etishi ko'zda tutilayotgan davlatlar munosabatlariga ijobiy ta'sir ko'rstadi¹⁵³.

Uchinchidan, bir qator bahsga sabab bo'layotgan jihatlari ham mavjud. Xususan, «6+3» formatidagi guruh tarkibiga Afg'onistonning rasmiy hukumati kiritilmaganligidir. Ta'kidlash joizki, «6+2» guruhi tashkil etilgan vaqtda Afg'onistonda rasmiy hokimiyat yo'q edi. Biroq, ayni vaqtda AIRda saylab qo'yilgan prezident va parlament faoliyat ko'rsatmoqda¹⁵⁴. Shuningdek, yana bir jihati 28 ta a'zo-davlat bo'lgan NATO mamlakatlari orsidagi ayrim qarama-qarshiliklar muloqot guruhining faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi.

To'rtinchidan, OAV ma'lumotlari tahliliga ko'ra, «6+3» muloqot guruhini tashkil qilish borasidagi tashabbusga nisbatan guruhning hech bir ishtirokchilari rasmiy ravishda qo'llab-quvvatlashi yoki salbiy fikrlarini bildirmagan. Shunga qaramasdan «6+3» muloqot guruhining tashkil etilishiga bir qator omillar to'sqinlik qilmoqda. Mazkur ta'sir etuvchi omillar davlatlar nuqtai-nazaridan quyidagicha ko'rib chiqilgan:

Afg'onistondagi mavjud harbiy-siyosiy vaziyat tendensiyalarining hozirgi bosqichida AQSH afg'on muammosini harbiy koalitsiya ko'magida o'z kuchi bilan hal qilishni mo'ljallamoqda. Shu bois, AQSH Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirishda RF, XXR va Eronning ishtirok etishidan manfaatdor emas. Shuningdek, 2010 yil martda prezident B. Obamaning Afg'oniston va Pokistonga oid strategiyasining e'lon qilinishi hamda unda yangi « muloqot guruhi»ni tuzish taklifi AQSHning vaziyatga butunlay boshqa tomondan yondashayotganligini

e_v_ramkax_63.mgr 10.11.2010.

¹⁵³ Контактная группа «6+3» в контексте обеспечения международной безопасности // <http://www.samarkandinfo.uz/kontaktnaya-gruppa-63v-kontekste-obespecheniya-mezhdunarodnoj-bezopasnosti/> 30.06.2009.

¹⁵⁴ Инициатива Узбекистана по афганскому урегулированию через создание Контактной группы «6+3» воплощается в реальность – дипломат // http://www.musagetes.kz/biografii/news_2009-11-22-02-13-53-198.html

ko'rsatmoqda¹⁵⁵. Aniqroq aytganda, Afg'onistonda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga urinish Amerika uchun asosiy maqsad emas, ko'proq mintaqada mavjudligini saqlab turish uchun vositadir. Ya'ni, agar Afg'onistonda terrorizm xavfi bartaraf bo'lgan taqdirda AQSH mamlakatda milliy-etnik muammolarni, inson huquqlari masalasini yoki boshqa shu kabi muammolarni hal qilish yuzasidan hududda o'z mavjudligini saqlab turishga intiladi. Shuningdek, mintaqadagi geosiyosiy jarayonlarda mediatrlikka da'vogar bo'lgan AQSH ushbu masalada aniq biror to'xtamga kelgani yo'q. Ekspert M.Bxatrakumarning ta'kidlashicha, O'zbekiston tashabbusi Afg'onistonda Markaziy Osiyo, shuningdek, Rossiya rolining kuchayishiga olib keladi. Aynan shu omil AQSHning bu boradagi noroziligiga sabab bo'lmoqda¹⁵⁶.

O'zbekiston taklifiga ko'ra «6+3» muloqot guruhiga NATOni qo'shish borasida ushbu tashkilotning javobi, avvalo AQSH va shimoliy alyansning boshqa davlatlarining ijobiy qabul qilinishiga bog'liq hisoblanadi. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, ayni vaqtda YEI mamlakatlari orasida NATO ishtirokidagi «6+3» muloqot guruhini tuzishga nisbatan bir xil yondashuv mavjud emas¹⁵⁷.

Afg'onistondagi mummolarni hal qilishda RFning ishtirok etish masalasida pozitsiyasi – Afg'onistondagi RFning manfaatlari AQSH tomonidan qay darajada hisobga olinishiga va «6+3» doirasida rasmiy Moskvaning faoliyati qanchalik darajada ta'sir eta olishiga bog'liq. Bundan tashqari, RFning geosiyosiy manfaatlari nuqtai-nazaridan: RF va NATO o'rtasidagi «munosabatlarning sovuqligi» va NATOning «Sharqqa kengayishi» bevosita Rossiyaning geosiyosiy manfaatlariga tahdid sifatida baholanishi, shimoliy alyansning «muloqot guruhi» doirasida mintaqa davlatlari bilan hamkorligining kuchayishidan RFning manfaatdor emas deb ko'rsatilmoqda. Shu bilan birga, Markaziy Osiyoda, xususan, Afg'onistonda

¹⁵⁵ Вашингтон озвучил официальную позицию по инициативе Узбекистана "6+3" // <http://news.ivist.kz/news.php?id=520486>. 17.12.2010.

¹⁵⁶ Международное сотрудничество – важный фактор обеспечения безопасности и устойчивого развития. Uzbekistan Today, 1.05.2008 г.

¹⁵⁷ Ибрагимова Г.Р. Перспективы создания контактной группы «6+3» в контексте афганского урегулирования. «Проблемы обеспечения региональной безопасности и устойчивого развития в Центральной Азии: Мир и стабильность в Афганистане, пути и методы их достижения». (Материалы международной конференции г. Ташкент, 29-30 апреля 2008г.). –Фонд региональной политики. 2008. –С. 159-164.

barqarorlikni o'rnatish masalasida Rossiya tomoni ham aniq choralar qo'llashga shoshilmayapti. Buning sababi esa, F.Starr konsepsiyasiga muvofiq, Afg'onistonda vaziyatning yaxshilanishi hamda Markaziy Osiyo davlatlarining bu mamlakat bilan integratsiyalashuvi o'z-o'zidan hududning yagona mintaqa (Katta Markaziy Osiyo) sifatida shakllanishiga, shuningdek, o'z manfaatlarini amalga oshirishda janub tomonga yuzlanishiga imkon yaratishi mumkin. Rossiya esa Markaziy Osiyoni energetik resurslariga egalik nuqtai-nazaridan qo'ldan chiqarishni xohlamaydi. Bundan tashqari, Rossiya Afg'onistonda tinchlikning ta'minlanishini istagan taqdirda ham buni AQSH va NATO ishtirokida emas, balki ODKB (KXSHT) faoliyati orqali, shuningdek, bevosita o'zining roli orqali amalga oshirishiga harakat qiladi.

XXRning geosiyosiy nuqtai-nazaridan Markaziy Osiyo va Afg'oniston mintaqasida AQSH va G'arb mamlakatlari ta'sirining uzoq vaqt saqlanib qolishidan manfaatdor emasligi, afg'on muammosini SHHT doirasida hal qilishga harakat qilayotganligi bois «6+3» muloqot guruhini tuzishga katta qiziqish bildirgani yo'q. Shu bilan birga, AIRda barqarorlikni ta'minlanishidan va afg'on hududidan keladigan tahdidlarning bartaraf bo'lishidan ham manfaatdordir. Rasmiy Pekin ayni vaqtda mazkur «muloqot guruhi»ni tuzishga nisbatan AQSH va RFning pozitsiyasi e'lon qilingandan so'ng o'z qarashini ma'lum qilishini bildirmoqda. Mazkur tashabbus bo'yicha Xitoy nuqtai nazariga to'xtalganda shuni aytish lozimki, Afg'onistonda tinchlik o'rnatilishi va shu orqali Markaziy Osiyoda munosabatlar yaxshilanishidan Xitoy ko'p jihatdan, jumladan, SUAR masalasida manfaatdor. Biroq, shu bilan bir vaqtda kelgusida Afg'oniston va Markaziy Osiyoda AQSH hamda G'arb ta'sirining kuchayishi mamlakat geosiyosiy manfaatlariga javob bermaydi. Xitoy eksperti S.Guanchenaning fikricha, mamlakat «6+3» borasida Vashington va Rossiyaning pozitsiyasini «diqqat bilan o'rganish» bilan chegaralanadi.

Eronning AQSH va NATO davlatlari bilan munosabatlari yomonligi «6+3» guruhini tashkil qilishga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Jumladan, hind eksperti A.K.Patnaik bu guruhda NATO mavjud ekan, Eron

ishtiroki ehtimoldan yiroqligini ta'kidlaydi. Biroq, Afg'onistondagi vaziyatning yomonlashuvi AQSHning mazkur guruhga Eronni qo'shishga rozilik bildirishi mumkin. Shu bilan birga, Eron ham mazkur guruhdagi ishtirok etishi borasidagi javobi g'arb malakatlari bilan aloqalariga bog'liq. Bu borada shuni ta'kidlash o'rinli, Eron bir tomondan Afg'onistonda tinchlik o'rnatilishidan manfaatdor bo'lsa, ikkinchi tomondan AIR hududida koalitsion kuchlarning mavjud bo'lishidan manfaatdor emas. Umuman olganda, har qanday masala bo'yicha rasmiy Tehronning Vashington yoki NATO bilan muzokara olib borishi qiyin kechadi.

Pokiston XXR va RFning, shuningdek, Markaziy Osiyo mamlakatlarining Afg'onistondagi rolini kuchayishiga ijobiy munosabatda bo'lmoqda. Shu bilan birga, rasmiy Kobul va G'arb mamlakatlari o'rtasidagi munosabatlarning yomonlashib borayotgan bir vaqtda RF kabi davlatlarning roli ortib ketishidan ham xavfsiramoqda. Shunday bo'lsada, Pokiston hukumati AQSH, RF va XXRning Afg'onistonda tinchlikni o'rnatish bo'yicha aniq fikrlarini bildirsa, ushbu tashabbusga qarshilik ko'rsatmasligi mumkin. Shuningdek, Pokiston prezidenti P.Musharrafning Xitoyga tashrifi chog'ida bildirgan fikrlari guvohlik beradiki, Pokiston tomoni ham Afg'onistondagi vaziyatni tartibga solishda NATO ishtirokini qo'llab-quvvatlaydi. Mamlakat rahbarining ta'kidlashicha, Afg'onistondagi muammoni bartaraf etish barobarida Markaziy Osiyo nafaqat Xitoy va Rossiya bilan, shuningdek, AQSH va NATO bilan ham hamkorlikni mustahkamlab olishi mumkin bo'ladi.

Turkmaniston ishtirok etishi ko'zda tutilayotgan jahonning asosiy «o'yinchilari»ning hamkorlikka assolangan faoliyati shakllanadigan bo'lsa «6+3» muloqot guruhini tashkil qilishni qo'llab-quvvatlashini bildirgan. Bunga sabab, Turkmaniston AIR bilan yaqin qo'shni sifatida AQSH, XXR va RF munosabatlarida, mintaqada hamda Afg'onistondagi manfaatlarini amalga oshirishga imkoniyat yaratilishi mumkin. Shuningdek, Germaniya nashrlaridan biri «Der Shpigel» ma'lumotiga ko'ra, Turkmaniston «6+3» guruhini qo'llab-quvvatlash haqida o'z fikrini bildirib, jumladan, o'z hududida NATO

qo'shinlarining omborlari va ta'minot bazalarining joylashtirilishiga rozilik bergan¹⁵⁸.

«6+3» muloqot guruhi faoliyatiga Tojikiston ham yaqqol xayrixohligini bildirgani yo'q. Ayni vaqtda Tojikiston bir tomondan koalitsion kuchlarga mamlakat hududidagi Ayniy aviabazasidan foydalanish bo'yicha ko'mak berayotgan bo'lsa, boshqa tomondan Tojikiston Afg'onistonda xalqaro koalitsiya kuchlarining bo'lishiga salbiy yondashib turgan Eron bilan aloqalarni mustahkamlashga intilmoqda. Shunday bir sharoitda Tojikistonning ushbu masaladagi fikri «muloqot guruhini» tashkil qilish bo'yicha AQSH, RF va XRR qo'llab-quvvatlasa qarshilik ko'rsatmasligini bildiradi.

Bundan tashqari, Hindiston va Yaponiya mutaxassislari afg'on muammosini hal etishga qaratilgan «muloqot guruhi»da o'z davlatlarining ishtiroki zarurligini keltirib o'tishgan. Xususan, J.Neru nomidagi Xalqaro tadqiqotlar universiteti vakili A.Patnaikning aytishicha, Hindiston bevosita AIR chegaralari bilan tutashmasada, Afg'onistondagi muammo bilan bog'liq masalalarni hal qilishda har qanday xalqaro strukturada ishtirok etishi lozim. Chunki mamlakat shimoliy hududlarining xavfsizligi bevosita AIRdagi holatga bog'liqligini ta'kidlaydi. Yaponiya bosh vaziri Taro Aso Afg'onistonni qayta tiklash ishlariga eng katta moliyaviy ko'mak berayotgan davlat sifatida Yaponiyaning ham mazkur ishlarda o'rni borligini takidlab o'tgan. Shuningdek, Yaponiyaning O'zbekistondagi sobiq elchisi A.Kavato Afg'onistondagi ijtimoiy infrastrukturani rivojlantirishda AQSHdan keyingi o'rinda turadigan donor davlat Yaponiya hisoblanishini va shu tufayli Yaponiyaning mazkur muloqot guruhida bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi. Shu bilan bir qatorda, qator ekspertlar Afg'oniston bilan bog'liq butun muammolar majmuini hal etish borasida to'plangan uzoq yillik tajriba unga harbiy yo'l bilan yechim topib bo'lmasligini ko'rsatganini, BMT shafe'ligida «6+3» muloqot guruhining tuzilishi muhim ahamiyat kasb etishini qayd etmoqdalar¹⁵⁹. Mazkur g'oyani amalga oshirishga nisbatan tegishli davlatlarning yondashuvlari tahlil qilinganda bu

¹⁵⁸ Международное сотрудничество – важный фактор обеспечения безопасности и устойчивого развития. Uzbekistan Today, 1.05.2008 г

¹⁵⁹ Ташкентский взгляд на афганское будущее // <http://www.afghanistan.ru/doc/18602.html> 17.10.2010

masalada tomonlarning ikki xil pozitsiyaga ega ekanini ko'rish mumkin. Birinchi yondashuv tarafdorlari Afg'oniston muammosi bo'yicha «6+3» guruhiga ijobiy pozitsiyada, biroq, tashabbusni amalga oshirish bo'yicha yetarli kuch va vositaga ega emas. Ikkinchi guruhni esa muammoning aynan shu tarzda yechilishidan manfaatdor bo'lmagan tomonlar tashkil qiladi.

Afg'onistonning bir necha xususiyatlarini, shu jumladan, geopolitik joylashuvini hisobga olgan holda, bugungi kunda jahon hamjamiyati bizga qo'shni ushbu davlatni Markaziy Osiyo mintaqasining ajralmas bir qismi deb qaramoqda. O'zbekiston esa Afg'onistonni Markaziy Osiyo Hamkorligi Tashkiloti (MOHT) ga kuzatuvchi sifatida qabul qilishni taklif qilib, ushbu davlatni Markaziy Osiyo mintaqasidagi jarayonlarga har tomonlama jalb etish lozimligini ilgari surmoqda. Shu o'rinda, Afg'onistonni qayta tiklash ishlarida, barqaror hayotni yo'lga qo'yish borasida dunyodagi ilg'or xalqaro tashkilotlar va donor davlatlar hamda unga qo'shni bo'lgan davlatlarning imkoniyatlaridan samarali foydalanish kelajakda yaxshi natija berishi mumkin. Bu, albatta, urushdan keyingi Afg'onistonda kechayotgan qayta tiklanish jarayoniga, mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Keyingi paytlarda Afg'onistonda vujudga kelayotgan harbiy-siyosiy vaziyatga ko'ra afg'on muammosini harbiy yo'l bilan hal qilib bo'lmashligi, koalitsion kuchlar tomonidan mamlakatni barqarorlashtirishga yo'naltirilgan strategiya kutilayotgan natijalarni bermayotganligi kuzatilmoqda. Shu bois, afg'on muammosini hal qilishda O'zbekiston tashabbuslari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, BMT Bosh Assambleyasining 2010 yil 20-22 sentyabr kunlari bo'lib o'tgan Mingyillik rivojlanish maqsadlari bo'yicha oliy darajadagi yalpi majlisida birinchilar qatorida so'zga chiqqan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Markaziy Osiyoda kechayotgan jarayonlar, mintaqaviy xavfsizlik va ekologik muammolar qatorida yana bir bor Afg'oniston mojarosini bartaraf etish yo'llariga alohida to'xtaldi. Mamlakatimiz rahbari Afg'oniston misolida hozirgi zamonning eng dolzarb xalqaro muammolarini hal etishda urush, siyosiy va harbiy nizolar to'siq bo'layotganligini ta'kidlab, bu mamlakatda vaziyatni barqarorlashtirish uchun

siyosiy-diplomatik resurslarga tayanish bilan birga iqtisodiy – ijtimoiy infratuzilmani qayta tiklashga qaratilgan tegishli loyihalarni amalga oshirish lozimligini ta’kidladi. O‘zbekistonning Afg‘oniston bilan bog‘liq muammolarni hal qilishda yig‘ilgan ko‘pyillik o‘z tajribasiga suyanib, uning yechimini harbiy yo‘l yondashuvi bilan hal qilib bo‘lmasligi alohida uqtirib o‘tildi. «Tashabbusimizning mazmun-mohiyati shundan iboratki, afg‘onistonliklar o‘z mamlakati muammolarini o‘z manfaatlaridan kelib chiqqan holda, Afg‘onistonda urushning tugashi va uning barqaror kelajagidan manfaatdor mamlakatlar ko‘magida o‘zlari hal etishlari darkor», deb ko‘rsatildi¹⁶⁰. Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, afg‘on muammosini bartaraf etishda O‘zbekiston tashabbuslari eng maqbul va oqilona bo‘lib, xususan, «6+3» muloqot guruhi AIRdagi vaziyatni tartibga solish bo‘yicha eng samarali vosita hisoblanadi. Biroq, ayni paytda «6+3» muloqot guruhini tuzishga nisbatan AQSH, Rossiya, Xitoy va Eron kabi ishtirokchi davlatlar tomonidan rasmiy munosabat bildirilmagan. Shuning uchun aytish mumkinki, yetakchi kuchlarning mintaqada o‘z mavjudligini ta’minlashga va uni kengaytirishga urinayotganligi hamda geosiyosiy manfaatlarining to‘qnash kelayotganligi Afg‘onistonda tinchlik va barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan yangi formatdagi «6+3» muloqot guruhini tuzish bo‘yicha tashabbusning amalga oshishiga to‘sqinlik qilmoqda. Yuqorida keltirib o‘tilgan davlatlar afg‘on muammosini hal etishda umumiy yondashuvga kelmas ekan, mazkur tashabbusning amalga oshish istiqboli dargumon bo‘lib qolaveradi. Shunday bo‘lsada, bugungi kunda xalqaro hamjamiyat ham Afg‘onistondagi mojarolarni harbiy yo‘l bilan yechib bo‘lmasligini sekin-asta tushunib yetmoqda. Shu bois, mamlakatimiz ilgari surayotgan tashabbuslar, albatta, yaqin kelajakda amaliyotda o‘z aksini topsa ajabmas.

Afg‘onistonda tinchlikni ta’minlash uchun hukumatni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, mamlakatning ichki ishlariga aralashayotgan tashqi quchlarni aralashuvini va «tolibon» harakatiga tashqaridan qurol-yarog‘ yetkazib berishni

¹⁶⁰ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг БМТ саммити Мингйиллик ривожланиш мақсадларига бағишланган ялпи мажлисидаги нутқи // Халқ сўзи, 2010 йил 22 сентябрь

oldini olish lozim. Bu esa o'z navbatida mamlakatda vaziyatni tinchlik tomonga o'zgarishiga olib kelishi mumkin.

3-bob bo'yicha xulosalar

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, qayd qilingan uchala bosqichning har birida O'zbekiston Respublikasi ham o'z davlat siyosati doirasida, ham xalqaro tashkilotlar mexanizmlaridan foydalangan holda, Afg'onistonda barqarorlikni ta'minlash borasida mavjud imkoniyatlarni aniq maqsadni ko'zlab ishga soldi. O'rta muddatli kelajakda ham xavfsizlikni ta'minalash yuzasidan Afg'oniston omili O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi. Butun milliy strategiyamizning asosiy yo'nalishlaridan biri ana shunday mazmun-mohiyatga ega.

Ikkinchi band bo'yicha xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyo mintaqasi, shu bilan birga Afg'oniston AQSH, Rossiya, Xitoy va G'arbiy Yevropa davlatlari manfaatlari to'qnashadigan mintaqaga bo'lib qolmoqda. «6+3» muloqot guruhining tashkil etilishi Afg'onistondagi vaziyatni tartibga solishda shubhasiz katta ahamiyatga ega. Biroq, ushbu tashabbusni amalga oshirishda kuchli davlatlar AQSH va Rossiya, shuningdek, NATO va boshqa davlatlar nuqtai- nazarlarining mos kelmayotganligi mazkur g'oyaning amalga oshishiga to'sqinlik qilib turibdi .

Yuqorida keltirilganidek, yirik davlatlarning Markaziy Osiyo va Afg'onistonda barqarorlik hamda o'zaro integratsiyaning yuzaga kelishidan manfaatdor emasligi, shuningdek, mintaqani o'z ta'sir doirasida tutib turishga intilish mavjudligi bois, mazkur davlatlar «6+3» muloqot guruhini tashkil etish bilan bog'liq O'zbekiston tashabbusini rasman inkor etmasada, uni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amaliy choralar qo'llashni e'tibordan chetlashtirishga harakat qiladi. Yuqoridagilardan shuni kuzatish mumkinki, Afg'onistonda antitolibon operatsiyalari o'tkazilayotganligiga qaramasdan bu yerdagi vaziyat barqarorlashayotgani yo'q va buning natijasida Markaziy Osiyo mintaqasining xavfsizligiga bo'lgan bir qator tahdidlar saqlanib qolmoqda.

XULOSA

O'tkazilgan tadqiqot natijasida xulosalar berilib, o'rganilayotgan muammoning asosiy nazariy jihatlarini yoritildi.

1. Tashqi kuchlar aralashuvi bugungi kunda xalqaro munosabatlar tizimida legitiqlashgan ko'rinishda shakllanib, xalqaro xavfsizlik tahdidlariga qarshi kurashish maqsadida faol amalga oshirilmoqda. Shuningdek, ayrim holatlarda harbiy aralashuvni amalga oshirish bo'yicha qarorlarning qabul qilinishi dunyoning yetakchi davlatlari orasida qarama-qarshiliklarni kuchayishiga ham sabab bo'lmoqda.

2. Afg'onistonda davom etayotgan mojarolarning kelib chiqishi dinamikasini tahlil qilganda uning uzoq tarixga ega ekanligi ma'lum bo'ladi. Shu bois, Afg'oniston jahonning yetakchi davlatlari geosiyosiy «o'yinlari» uchun harbiy harakatlar maydoniga aylanib qolgan. Afg'onistonda bo'lib o'tgan barcha «Katta o'yin» urushlarida bir tomon bevosita harbiy harakatlarni olib borgan bo'lsa, boshqa tomon unga qarshi kurashayotgan kuchlarni (hoh mujohidlar bo'lsin, hoh «Tolibon» harakati bo'lsin) qo'llab-quvvatlab turgan. Shu sabab, ularning birortasi bu yerda to'liq g'alaba qozona olmagan.

3. 90-yillarda Pokiston Afg'onistondagi fuqarolar urushini tugatish, Afg'onistonni birlashtirish va barcha uchun manfaatli bo'lgan yangi transport yo'laklarini ochish maqsadida «Tolibon» harakatini vujudga keltirishi va uning XX asr oxirlaridan «Katta o'yin»da o'zi uchun ajratilgan kichkina rolni «ijro etish»dan bosh tortishi vaziyatni yanada murakablashtirib yubordi. Hozirgi kunga kelib Pokistonning o'z milliy xavfsizligini ta'minlash borasida olib borayotgan faoliyati oxir-oqibatda nafaqat afg'on xalqi va Markaziy Osiyo mintaqasi uchun, balki butun jahon uchun keng ko'lamli fojeaga aylandi. Afg'oniston bora-bora xalqaro terrorizm va ekstremizm uchun qulay shart-sharoitlarga ega markazga aylanib qoldi.

4. 2001 yil 11 sentyabrda Afg'onistonda o'rtnashgan «Al-Qoida» terrorchilik tashkilotining AQSHda sodir etgan «terrorchilik aktlari» xalqaro hamjamiyat tomonidan «qurolli hujum» sifatida ko'rib,

«agressiya akti» sifatida baholandi. Shu bilan bir qatorda, nodavlat suyeht («Al-Qoida» terrorchilik tashkiloti) ham xalqaro huquqda «agressiya akti»ni amalga oshiruvchi subyeht sifatida tasniflashtirildi. Bu esa, o'z navbatida, Afg'onistonga xalqaro kuchlarning aralashuvini yuzaga kelishiga, NATO mamlakatlari va AQSHning ittifoqchilar bilan birgalikda Afg'onistonda harbiy harakatlar olib borishiga sabab bo'ldi. Shuningdek, mazkur tashqi aralashuv ilgari yuz bergan aralashuvlardan (Yugoslaviya, Iroq va sh.k.) farqli o'laroq, terrorchi guruhni qo'llab turgan, tan olinmagan hukumatga nisbatan legitimlashgan ko'rinishda namoyon bo'ldi.

5. Afg'onistonda harbiy kompaniya boshlanganidan buyon (2001-2011 yillar) zamonaviy qurollardan foydalanib, turli masshtabdagi harbiy operatsiyalar o'tkazilayotgan bo'lsada, ularda bir qator muammolar – koalitsion qo'shnlarning nazorat-hududlaridagi kamchiliklar, harbiy operatsiyalarning ayrim jihatlarl targ'ibot va OAV orqali fosh qilib yuborilayotganligi, harbiy va noharbiy yuklarni yetkazib berishda tranzit yo'llarida vujudga kelayotgan muammolar va mamlakatda terroristik aktlarning faollashuvi, shuningdek, havo zarbalari tufayli tinch aholi orasida ham qurbonlarning ortib borayotganligi kuzatilib, afg'on muammosini hal qilishda harbiy yo'l noqobil ekanligi o'z isbotini ko'rsatmoqda. Ma'lumki, hozirgi vaqtda ham «Tolibon» harakati a'zolari mamlakatning ba'zi hudidlarida o'z ta'sirini ushlab turibdi. Bu esa, bugungi kunda xalqaro koalitsiyaga nisbatan afg'on xalqi, mamlakat rasmiylari va xalqaro hamjamiyat tomonidan ishonchsizlikni (norozilikni) kuchaytirmoqda.

6. Hozirgi vaqtda ko'plab tortishuvlarga sabab bo'layotgan harbiy kontingentlarni olib chiqib ketish masalasi noaniqligicha qolmoqda. Bunga sabab, bir tomondan, koalitsion kuchlar 2011 yildan boshlab 2014 yilgacha

harbiy kuchlarni to'liq olib chiqilishi ma'lum qilingandi, lekin unday bo'lmagani va boshqa tomondan esa, AQSH tomoni 2010 yilda 30 ming qo'shinini

olib kirish haqida ma'lum qildi hamda Afg'oniston hududida doimiy harbiy kontingentlarni saqlab qolish maqsadida uchta operativ bazani barpo etishga kirishganidir. Bundan xulosa sifatida AQSH o'z qo'shinlarini AIRdan yaqin kelajakda olib chiqib ketmaydi deyish mumkin.

8. Mamlakatdagi koalitsion kuchlar tomonidan milliy armiyani shakllantirishga qaratilgan olib borilayotgan tegishli kompleks chora- tadbirlar ko'lamining kengligiga qaramay, yaqin istiqbolda AIR xarbiylarining mamlakat xavfsizligini ta'minlash borasida mustaqil faoliyat yuritishiga erishish murakkabligicha qolaveradi. Bunga milliy armiyaning tayyorgarlik darajasi hamda AQSHning mintaqadagi pozitsiyasini saqlab qolishga urinishi asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatadiki, afg'on muammosini bartaraf etishda O'zbekiston tashabbuslari eng maqbul va oqilona bo'lib, xususan, «6+3» muloqot guruhi AIRdagi vaziyatni tartibga solish bo'yicha eng samarali vosita hisoblanadi. Biroq, ayni vaqtda «6+3» muloqot guruhini tuzishga nisbatan AQSH, Rossiya, Xitoy va Eron kabi ishtirokchi davlatlar tomonidan rasmiy munosabat bildirilmagan. Shu sababli ta'kidlash joizki, yetakchi kuchlarning mintaqada o'z mavjudligini ta'minlashga va uni kengaytirishga urinayotganligi hamda geosiyosiy manfaatlarining to'qnash kelayotganligi Afg'onistonda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan yangi formatdagi «6+3» muloqot guruhini tuzish bo'yicha tashabbusni amalga oshishiga to'sqinlik qilmoqda. Muloqot guruhiga kiritilishi ko'zda tutilayotgan davlatlar afg'on muammosini hal etishda umumiy yondashuvga kelmas ekan, mazkur tashabbusning amalga oshish istiqboli dargumon bo'lib qolaveradi. Shunday bo'lsada, bugungi kunda xalqaro hamjamiyat ham Afg'onistondagi mojarolarni xalqaro harbiy kuchlar vositasida yechib bo'lmasligini sekin-asta tushunib yetmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.- T.: «O'zbekiston», 1997.
2. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-tom. – T.: O'zbekiston, 1999.
3. Karimov I.A. Asarlar to'plami. 10-tom. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T.: «O'zbekiston», 2002
4. Karimov I.A. Afg'onistonda tinchlik va xavfsizlik uchun. -T.: «O'zbekiston», 2002.
5. Karimov I.A. Asarlar to'plami. 11-tom. Biz tanlagan yo'l - demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo, hamkorlik yo'li. -T.: - «O'zbekiston», 2003.

II. Ilmiy adabiyotlar

O'zbek tilida:

6. Бобожонова Д. Миллатлараро муносабатлардаги барқарорлик. –Т.:Фан, 2002.
7. Раҳмонов Д.Н. Миллий муносабатлар ва уларнинг сиёсий-худудий бошқарилиши (ҳозирги жаҳон амалиётидан).- Т.: Фан,2000.

Rus tilidagi adabiyotlar

8. Акмалов Ш.И. Проблема Афганского урегулирования в современных Пакистано-Иранских отношениях. Диссертация на соискание уч.ст. кандидата политических наук. – Т.: ТашГИВ, 2002.
9. Задорожный И.В. Влияние внешнеполитических факторов на процесс консолидации афганского общества. Автореферат диссертации на соискание уч.ст. кандидата политических наук. – Бишкек, 2007.
10. Каримов Р. Конфликтный потенциал в треугольнике Узбекистан-Афганистан—Таджикистан // Центральная Азия и Кавказ, 2006, №4. С. 61-66.
11. Коргун В. Афганистан в начале XXI века М: 2004. С 108
12. Стивен Таннер. Афганистан история войн- М.: Эксмо, 2004
13. Таннер С. «Афганистан: история войн от Александра Македонского

до падения «Талибан»» /Пер. с английского С. М. Саксина. – М.: «Эксмо», 2004.

14. Темирханов Л. Восточные пуштуны. Основные проблемы новой истории – М.: Наука, 1997

15. Ю.В. Ганковский. Национальный вопрос и национальные движения в Пакистане. Москва 1967.

Ingliz tilida:

16. America and Muslim Middle East, Queen-Stown, 1998.

17. Anthony Arnold. Afghaniatan: The Soviet Invasion in Perspective // Stanford: Hoover Institution Press. 1981.

18. Banuazizi Ali and Myron Weiner. The New Geopolitics of Central Asia and its Borderlands. – Bloomington: Indiana University Press. – London I.B. Tauris, 1994.

19. Brian Cloughley. A history of the Pakistan Army – Karachi: Oxford University Press 2008

20. Cline R. S. World Power Assessment. A Calculus of Strategic Drift. – Washington: 1975.

21. Galeotti mark/ The Soviet Union's Last Wor/ - London, 1995.

22. Herrman Rechard K. Sovlet Behavior in Algional Conflicts. Old Question, new strategies and importal ltssons// world police, vol 44, № 1, 1992.

23. Jolanta Sierakowska-Dydo. «Tribalism and Afghan Political Traditions» (Warsaw: Institut of Oriental Stadies? University of Warsaw, January 2003), <http://www.wgsr.uw.edu.pl/pub/uploads/aps04/5Sierakowska-DydoTrybalism.pdf>.

24. K.K.Aziz. Studies in history and politics – Lahore: Maktaba jaded press 2002

25. Kaufman Y. Power and International Relations // Military Policy and National Security / Y. Kaufman (ed.). – New York: Princeton, 1956.

26. Malcolm N. Shaw QC. International Law/ Fifth edition. – Cambridge: Cambridge University Press, 2005.

27. Morgenthau H. Politics among Nations. 4th ed. – New York: 1967.

28. Olaf Karoe. The Pathans – Karachi: Oxford University Press 2006
29. Ahmed Rashid TALIBAN Militant Islam, Oil and Fundamentalism in Central Asia. – London.: Yale University Press 2000.

III. Davriy nashrlar, statistik to‘plamlar va hisobotlar

O‘zbek tilida:

30. G‘oyibnazarov Sh. Xalqaro terrorizm: ildizi, omillari va manbai. –T.: «O‘zbekiston», 2009.
31. Hotamov G‘. «Yovuzlikka qarshi turmagan uni yoqlagan bo‘ladi: Faktlar, talqinlar, munosabatlar». –T.: «Ma’naviyat», 2002.
32. Сафоев С. Марказий Осиёдаги геёсиёсат. –Т.: «ПАТЕНТ ПРЕСС», 2005.

Rus tilida:

33. «Афганистан и региональная безопасность: пять лет после Талибана». Выпуск III (11-12 декабря 2006 г.). - Бишкек, Душанбе, 2006, - С. 45.
34. Азии: Мир и стабильность в Афганистане, пути и методы их достижения». (Материалы международной конференции г. Ташкент, 29-30 апреля 2008г.). –Фонд региональной политики. 2008, –С. 159-164.
35. Акимбеков С. Афганский узел и проблемы безопасности Центральной Азии 2003.г
36. Акмалов Ш.И. Национальная стратегия Республики Узбекистан в вопросах мирного урегулирования афганского конфликта (1991 - 2009 гг.). – Т.: ТИУ, 2009.
37. Алимов Р.М. Центральная Азия: общность интересов. – Т.: Шарк, 2005.
38. Арон Р. Мир и война между народами / Под общей ред. канд.полит.наук Даниленко В. И. – М.: 2000.
39. Ахмед Рашид. Талибан: ислам, нефть и новая большая игра в Центральной Азии. - IB Tauris, 2000.
40. Бобокулов И. И. Международно-правовые аспекты региональной

безопасности: вопросы теории и практики. – Т.: Университет мировой экономики и дипломатии, 2010.

41. Бобокулов И.И. Вопросы международно-правового определения статус - региональных организаций в уставе ООН // Международные отношения.- Т.: УМЭД. №4. 2007.

42. Бобокулов И.И. Эволюция концепции безопасности: от военного к социальному аспекту // Международные отношения. №3. 2006.

43. Ибрагимова Г.Р. Перспективы создания контактной группы «6+3» в контексте афганского урегулирования. «Проблемы обеспечения региональной безопасности и устойчивого развития в Центральной Арунова М. Р. Афганистан: правда против лжи//Международная жизнь, 1985, № 12. – С. 135.

44. Искандаров К. Талибан: факторы возрождения и перспективы мира и региональной безопасности // Материалы международная конференция

45. Клименко С. Концепция НАТО «Многонациональные оперативные силы»// Зарубежное военное обозрение, 2005, № 12. – С. 15.

46. Князев А.А. Афганский конфликт и радикальный ислам в Центральной Азии: Сб. Док.и материалов.-Бишкек, Илим, 2001.

47. Кулагин В.М. Международная безопасность. - М.: «Аспект Пресс», 2007.

48. Масутов Т. Афганские дневники. – Алматы. «РОНД», 2004.

49. Махмудов Р. «Большая игра» в сердце Центральной Евразии: новый виток конкуренции // Центральная Азия и Кавказ, 2009, N 3. С.66.

50. Перестройка Афганистана - совместный проект. Международное сотрудничество осуществляется с целью реконструкции афганских провинций //per Concordiam. - Германия, №Том 1, Выпуск 3, 2010,

51. Постников А. Схватка на «Крыше мира». –М., 2001.

52. Рахманов А.Р. Право международной безопасности. - Т.: ТГЮИ, 2005;

53. ситуация и трансформация политического курса страны. МГИМО (У) МИД России, Октябрь, 2008.

54. Скотникова Л. А. Право на самооборону и новые императивы безопасности. *Международная жизнь*, 2004, № 9. -С.35.
55. Темирханов Я. Восточные пуштуны. –М.: Наука, 1987.
56. Туляганова Н.У. Афганский фактор в современных международных отношениях в Центральной Азии. – Т.: ЖИДУ, 2004.
57. Шмит Н. Майкл. Барьба с терроризмом и применение силы с точки зрения международного права // Европейский центр изучения вопросов безопасности и им. Джорджа Маршалла. – Гармиш-Партенкирхен, 2001, №5. –С. 40.
58. Шумов С., Андреев А. История Афганистана. – М.: «Крафт-Традиция-Евролинц», 2002.

Ingliz tilida:

59. Contemporary practicy of the United States // *American Journal of International Law*. – 000, – No 96, 2002.
60. Nye J. And Owen W. America's Information Edge // *Foreign Affairs*. March / April. 1996.
61. Pulladan I. Afghanistan end the U.S.: The Critycal Years. «The Middle East Jurnal», vol. 5, № 2, p. 187; Amsturз B. Afghanistan: The First Five Years of Sovet Occupation. Wash., 1986.
62. Zvyagelskay Irina. Russia's designs in Central Asia // *The News International*, Wednesday. Май 8, 1996.

VIII. Internet saytlari

63. Австралия направит израильские БПЛА в Афганистан, а Бразилия – на Олимпиаду // <http://www.newsru.co.il/arch/world/11dec2009/heron702.html>.
64. Афганистан: 65 миллиардов на войну <http://www.ng.ru/world>.
65. Армия Афганистана расширила территорию проведения войсковой операции «Навруз» на севере страны. // www.afghanistan.ru/doc/19559.html. 21.02.2011.
66. Ахмедов Р. Состояние и перспективы обеспечения

безопасности в Афганистане в рамках «6+3» //

http://www.cps.uz/rus/analitics/express_analiz/sostoyanie_i_perspektivi_obespecheniya_bezopasnosti_v_afganistane_v_ramkax_63.mgr 10.11.2010.

67. Азими: 2014 годне означает окончание иностранного военного присутствия в Афганистане. // www.afghanistan.ru/doc/19599.html. 25.02.2011.

68. Беспилотником Predator управляет пиратский софт //

http://www.infox.ru/hi-tech/weapon/2010/08/18/Northrop_Grumman.phtml.

69. Берг И.С. Об использовании бундесвером БПЛА в Афганистане //

<http://www.iimes.ru/rus/stat/2010/13-03-10.htm>.

70. В Афганистане убит один из лидеров талибов /

<http://news.mail.ru/society/arc>. 9.06.2007.

71. Вашингтон озвучил официальную позицию по инициативе Узбекистана

72. "6+3" // <http://news.ivist.kz/news.php?id=520486>. 17.12.2010.

73. В Афганистане убит один из полевых командиров. //

<http://www.ng.ru/world.05.15.2009>.

74. В 2010 году НАТО и США выделяют \$11,6 млрд на обучение афганских сил // <http://www.afghanistan.ru/doc/19239.html>. 6.01.2011.

75. Глава миссии подготовки афганских служб рассказал о ходе выполнения этой задачи. // <http://www.kgcentr.info/?pid=4&cid=7&nid=2129>. 10.10.2010.

76. Заявление Североатлантического совета (12 сентября 2001 г.)

<http://www.nato.int/docu/2001/p01-124e.htm>.

77. Игнатенко А. Исламский радикализм как побочный эффект «холодной войны» // Интернет: http://www.niiss.ru/misc_ignb.shtml.

78. Инициатива Узбекистана по афганскому урегулированию через создание Контактной группы «6+3» воплощается в реальность – дипломат //

http://www.musagetes.kz/biografii/news_2009-11-22-02-13-53-198.html.

79. Контактная группа «6+3» в контексте обеспечения международной безопасности // <http://www.samarkandinfo.uz/kontaktnaya-gruppa-63v-kontekste>

obespecheniya-mezhdunarodnoj-bezopasnosti/ 30.06.2009.

80. НАТО отрицает существование графика передачи контроля безопасности афганским силам // <http://www.afghanistan.ru>. 9.11.2010.

81. НАТО официально объявила об уходе из Афганистана // <http://www.warandpeace.ru/ru/news/view/56220/>.

82. Пилоты люфтваффе отправлены на обучение в Израиль // <http://lenta.ru/news/2010/01/29/bundeswehr/>; «Канада начала использовать израильские БПЛА в Афганистане» <http://army.lv/ru/bespilotniki/699/16860>.

83. Польские военные в Афганистане получают израильские БПЛА // http://www.newsru.co.il/world/11oct2010/aerostar_108.html.

84. Пресс-конференция премьер-министр Австралии Дж.Ховарда (14 сентября 2001 г.) <http://australianpolitics.com.au/foreign/anzus/01-09-14anzus-invoked.shtml>.

85. Суныцы. Искусство войны // <http://cclib.nsu.ru/koi/projects/satbi/satbi/books/sunzi/p2.html>.

86. Ташкентский взгляд на афганское будущее // <http://www.afghanistan.ru/doc/18602.html> 17.10.2010.

87. Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг НАТО/СЕАП саммитидаги нутқи // <http://www.press-service.uz/uz/gsection.scm?groupId=5254&contentId=383051999>. April 03, 2008.

88. Хавфсизлик йўлида ҳамкорлик // http://www.nato.int/ebookshop/introduction_to_nato/nato_security_uz.pdf.